

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**USMON SANAQULOV**

**AMIR TEMUR HAYOTI BILAN BOG`LIQ  
TARIXIY LAVHALAR**  
**(O'ZBEKISTON TARIXI BO'YICHA MAQOLALALAR TO`PLAMI)**

**SAMARQAND- 2011**

**Sanaqulov U. Amir Temur hayoti bilan bog`liq tarixiy lavhalar.**  
(O`zbekiston tarixi bo`yicha maqolalar to`plami), SamDCHTI nashri, 2011.  
124-bet

SamDChTI Ilmiy-uslubiy kengashlari (2010 yil, 05 oktyabrdagi  
bayonnomasi qaroriga asosan nashr etildi.

Mazkur maqolalar to`plami materiallari muallifning institut talabalariga o`qigan ma`ruzalari, ilmiy seminar va anjumanlardagi chiqishlari, matbuot ("Zarafshon", "Ulug`bek vorislari", "Alolat", "Xalq so`zi" kabi gazetolari) sahifalarida chop etilgan qator maqolalari asosida tayyorlandi va u SamDChTI Ilmiy va uslubiy kengashlarida ko`rib chiqilib, ma`naviyatshunoslik va O`zbekiston tarixi bo`yicha qo`shimcha materiallar sifatida nashrga tavsiya etildi. Bunda buyuk saltanat va ma`naviyat sohibi Amir Temur hayotiy faoliyati haqidagi materiallar talabalar o`quviga moslashtirilgan holda bayon qilingan.

Muallifning temuriylar faoliyati bo`yicha tavsiya etayotgan materiallari taniqli olimlarning ilmiy ishlaridagi va tarixiy yozma manbalardagi ma`lumotlarga tayanilgan. Ushbu materiallar professor **Usmon Sanaqulov tavalludining 70 yilligi va ilmiy pedagogik faoliyatining 52 yilligi munosabati bilan O`zbekiston tarixi bilan qiziquvchi talabalar va yosh mutaxassislar uchun tavsiya etildi.**

Mas`ul muharrir- **Farmon TOSHEV**  
Muharrir- **Salohiddin HAYITOV** – filologiya fanlari  
nomzodi, dosent  
Taqrizchilar- **Shakar AHADOV** – tarix fanlari doktori, professor,  
**M. HAMDAMOVA** – tarix fanlari nomzodi, dosent

## SO'ZBOSHI

Ma'lumki, Amir Temur o'zining qudratli saltanati, mohir va salobatli harbiy sarkardaligi, jahongirliги bilangina tanilib qolmay, buyuk ma'naviyat sohibi va davlat arbobi sifatida Markaziy Osiyo tarixida, xususan, vatanimiz, millatimiz o'tmishi da, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan. U o'zining qo'pqirrali iste'dodi, aql-zakovati bilan o'zbek xalqining avlodlarini va davlatchiligini jahonga mashhur eta olgan va Sohibqiron deb nom olgan ulug' va mu'tabar siymolardan sanaladi. Ana shunday ulug' va mo'tabar siymoning shaxsiyati, faoliyati haqida tarixnavislar, xususan, o'tgan asr davomida olimlarimizning ishlarida, darslik va o'quv qo'llanmalarda har xil mulohazali, zidiyatli fikrlar aytilib kelingan. Shuning uchun ham keyingi davrlarda Amir Temurning haqiqatga mos buyukligi, o'ziga xos siymosi, uning turli xususiyatga ega bo'lgan shaxsiyati va jahongirlik faoliyatini talqin etish nihoyatda murakkab masala bo'lib kelgan edi. Aniqrog'i o'tgan asrimizning 90-yillariga qadar Sohibqiron faloiyatiga salbiy qarashlar ustun edi. Ba'zi olimlarimiz o'z ishlarida Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini o'zining bosqinchilik, vayronagarchilik, zulm va adolatsizlik, vahshiyona yurishlari bilan nom chiqargan Chingizxon shaxsiyati va faoliyatiga tenglashtirib talqin etishgan. Bunday qarashlar, ayniqsa sobiq sovet tuzimi davrida kuchli edi. To'g'ri, ularning o'ziga xos maqsad va qarashlarda ba'zi bir umumiy yaqinlik bo'lgan. Lekin bu maqsad va qarashlarning amalga oshirishda har ikkala jahongir faoliyatidagi farq kuchli- dir, ularni teng o'lchash mumkin emas. Xuddi ana shu masalalarga oydinlik kiritish va har ikkala jahongir faoliyatiga to'g'ri yondoshish, xususan, Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini hozirgi zamon talabi asosida keng kitobxonlarga, ayniqsa, talaba yoshlarga o'ziga xos uslubda yoritib berish Usmon Sanaqulovning risolasida maqsad qilib qo'yilgan.

Ushbu risolada ta'kidlaganidek, Sohibqiron Amir Temurning hayotiy faoliyati haqida keng ma'lumot beruvchi asarlar uning hayotligi davridanoq yozila boshlangan. Jumladan, G'iyosiddin Ali Yazdiyning "Kitobi ro'znomai g'azovoti Hindiston" nomli asari sohibqiron hayotligi davrida yozilgan asarlardan biri sanaladi. Lekin ushbu asarda jahongir haqidagi fikrlar bir muncha bo'rttirilganligi, ortiqcha maqtovlar aytilganligi sababli Amir Temurga ma'qul bo'lmagan. Keyinchalik Sharafiddin Ali Yazdiyning va Nizomiddiy Shomiylarning "Zafarnoma"lari, Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus

tarixi”) asari, jumladan Fosih Xavofiyning “Mujmal-i Fosihiy” kabi ko’pgina tarixiy-badiiy asarlarda Sohibqiron Amir Temurning faoliyati yoritilib kelindi. Sohibqiron faoliyati haqida aniq ma’lumot larga boy asar, uning o’z qalamiga xos, bevosita rahbarligida yaratilgan “Temur tuziklari” yuqorida qayd etilgan asarlar orasida alohida qimmatga ega.

Shu kabi XX asr boshlarida Mullo Salohiddin ibn Mullo Aloiddin xoja eshon (Salohiddin Toshkandiy) Amir Temur faoliyatiga doir yozilgan barcha asarlardagi ma’lumotlardan foydalanib, ularni umumlashtirgan holda ajoyib original asar yaratdiki, bu asar ham o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham U.Sanaqulov o’z maqolalarida Salohiddin Toshkandiyning “Temur noma” (“Jangnomai Amir Temur Ko’ragoniy”) asariga qo’proq ahamiyat bergan. Bu bir tomondan to’g’ri, albatta. Unda Temur shaxsiyati, buyuk siymosi va tarixiy voqyelar ilk bor hozirgi o’zbek tilida juda qiziqarli tarixiy-badiiy lavhalar asosda yoritilganligi bilan ayniqsa xarakterlidir. Mullo Salohiddin asarida kitobxonning butun diqqatini Amir Temur siymosiga jalb qilish uchun tarixiy voqealarni badiiy lavhalar bilan aralashtirgan, ya’ni tarixiy-badiiy uslubdan unumli foydalanilgan. Ana shu badiiy lavhalar va tarixiy ma’lumotlardan xarakterli o’rinlari tavsiya etilayotgan to’lamda juda yaxshi tahlil etib beriladi.

Ta’kidlash lozimki, professor Usmon Sanaqulov ko’p yillardan beri Amir Temur faoliyatiga qiziqib, uning shaxsiyatini o’rganib kelmoqda. Olimning aytishicha, bu masalaga u ilk bor qiziqishi akademik Ibrohim Muminov tomonidan yozilgan “Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli”(1968 y.) nomli risolasi bilan boshlangan. Chunki bunga qadar sobiq sovet tuzumi davridagi tarixiy manbalarda va darslik qo’llanmalarda Amir Temur shaxsiyati va uning faoliyatiga salbiy tarzda qaralib kelingan edi. Akademik I.Muminov risolasi esa bunga zid g’oyadagi fikrlar bildirilgan edi. Bu davrlarda ilk bor Amir Temurning faoliyatiga jasorat bilan ijobiy tarzda qaralib, uni buyuk davlat arbobi va o’zbek davlatchiligi asoschisi sifatida talqin etilgan edi.

Mana, hozirgi davrda istiqloq sharofati bilan Amir Temurning O’rta Osiyo, xususan o’zbek xalqi tarixida tutgan ijobiy xizmatlari haqqoniy tarzda yuzaga chiqdi. Buyuk saltanat va ma’naviyatimizning sohibi, jahonga mashhur davlat arbobi sifati da uning shaxsiyati va faoliyati keng o’rganilmoqda. Ana shu maqsadni ko’pdan beri orzu qilib yurgan U.Sanoqulov ham Amir Temur faoliyatini keng kitobxonlarga o’z qarashlari nuqtai nazaridan yoritishib berishga kiridi. Uning bu borada

“Mindi davlat markabiga ul sabiy”(“Xalq so’zi”, 1995, 30 iyun), “Temuriylar davri: ma’naviy qadriyatlarning asosi” (“Adolat”, 1995, 9 sentyabr), “Chingizxon Temurga qarindoshmi?”(“Zarafshon”, 1995, 8 aprel), “Jahongiri kam bu dunyoni”(“Zarafshon”,1995, 20 aprel), “Ovropa xaloskori”(“Zarafshon”, 1995, avgust), “Temuriylar davrida hunarmandchilik tarmoqlari”(“Ulug’bek vorislari”, 2001, 7 mart), “Temuriylarning soliq siyosati” (“Zarafshon”, 2010, 9 fevral), ayniqsa, “Zarafshon” gazetasining 2010 yilning 20 apreldan 15 may sonigacha “Buyuk m’naviyat va saltanat sohibi (Amir Temur hayot faoliyatidan lavhalar)” rukni ostida o’ndan ortiq maqolalarni chop ettirishi fikrimizning dalilidir.

Xullas, Usmon Sanaqulovning mazkur ritobi ana shu nashr ettirgan ishlarining natijasi bo’lib, unda Amir Temurning sohibqiron bo’lib tug’ilishi haqidagi badiiy lavhalar va tarixiy ma’lumotlar, Sohibqironning ajdodi, nasl-nasabi, ya’ni urug’-aymog’i kim bo’lganligi yoki ularni nima uchun barloslar deyilishi, ularning asl kelib chiqish joyi, tili haqida va chingiziylarga aloqasi bormi yoki yo’qligi kabi juda ko’p qiziqarli fikr va mulohazalar talqin etilgan. Masalan, sohibqiron so’zining ma’nosi, etnik xususiyati va bu nomga loyiq bo’lish kimlarga nasib etgan? degan mulohazalarga Mullo Salohiddinning “Temurnoma” asari asosida sohibqironlik haqida aytilgan fikrlar havola etiladi. Masalan, “Temurnoma”da dunyoda uch nafar sohibqiron o’tganligi, sohibqiron so’zida “sohib” qismi forscha, o’zbechada esa “ega” ma’nosini ifodalashi, arabcha “qiron” so’zi ilmi nujumda ikki sharofatli sayyora, Zuhra (Venera) va Mushtariy (Yupiter) o’z harakatida bir-biriga qarab yaqinlashgan holatini “qiron burji” va uni baxt-saodat alomati deb fol ko’rilganligi va shu vaqtda tug’ilgan bola sohibqiron hamda baxtiyor hukmron deb atalishi, bunday holat har sakkiz yilda bir martaba sodir bo’lishi mumkinligi kabi keltirilgan qator badiiy-tarixiy lavhalar shular jumlasidandir.

Bunday ma’lumotlarni Alouddin Otamalik Juvaniy, Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy, Hamdulloh Mustofiy Kazviniy, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Xofizi Abruning “Zubdat-ut tavorix Boysung’uriy”, Sharofuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fosix Ahmad Havofiyning “Mujmali fosihiy”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlay-as-sa’dayn”, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur”, jumladan Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi” kabi juda ko’p badiiy-tarixiy asarlarda uchraydi. Bular haqda ham mazkur to’plamda ma’lumotlar keltirilgan.

Amir Temur shaxsiyati va faoliyati haqida o'tmish tarixiy asarlarda ijobiy fikrlar aytilgan bo'lishiga qaramay, so'nggi davrlarda, xususan, sobiq ittifoq davrida ba'zi olimlar tomonidan yozilgan tarixiy-badiiy asarlarda salbiy baho berilib kelinganligi risolada to'g'ri ta'kidlanadi. Amir Temurning, ayniqsa, uning o'spirinlik davrlari noto'g'ri talqin qilinganligi, ya'ni go'yo u bezori yoki qaroqchi sifatida ulg'aya borgan va savodsiz shaxs tarzida talqin etilganligi, U.Sanaqulov risolasida tarixiy yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida rad etiladi.

Darhaqiqat, risolada Temurning nasl-nasabi toza va aniq, ya'ni amirzodalar avlodidan ekanligi, jumladan uning otasi Shahrizabz bekligidagi e'tiborli amaldor amirlardan bo'lganligi, beklikka qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'ida katta yer maydoni va aholi ho'jaligi unga qarashli bo'lganligi tarixiy manbalar asosida bayon etiladi.

Umuman, ushbu risolada Amir Temur shaxsiyati va uning faoliyati tarixiy manbalar va hozirgi olimlarimizning tadqiqotlariga asoslanib, ishonchi dalillar bilan odilona tarzda muallif tomonidan talqin etilgan. O'rni bilan shuni ham ta'kidlash lozimki, U.Sanaqulov talabalik davridan boshlab, xalqimiz va tilimiz tarixiga qiziqib kelgan. Bu sohada uning o'nlab kitoblari va 200 ga yaqin maqolalari chop etilgan. Masalan, uning "Qadimgi turkiy til"(1987 y.), "Eski o'zbek adabiy tili" (Samarqand, 1988 y.), "O'zbek xalqining hamda tilining tarkib topishi va nomlanishi"(Samarqand, 1990 y.), "Buyuk saltanat va ma'naviyat sohibi"(Samarqand, 1996 y.), "O'tmish ajdodlarimiz haqida lavhalar"(Samarqand, 2003 y.), ayniqsa olimning ijodiy faoliyatining mag'zi sanalgan nomzodlik va doktorlik ishlariga asos bo'lgan yirik monografik ishlari-"O'zbek adabiy tili tarixi" (Toshkent, 1995, 2001 yy.), "O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari"(Toshkent, 2004 y.), "O'zbek xalqi va tilining etnogenezi va etnik tarixidan lavhalar", (Samarqand, 2010 y.)" kabi qator kitoblari shular jumlasidandir. Olimning ijodi ko'p qirrali bo'lib, biz uning kelgusi faoliyati bunday xayrli ishlarni yanada davom ettirishini istab qolamiz.

Salohiddin HAYITOV -  
filologiya fanlari nomzodi, dosent

# BUYUK SALTANAT VA MA'NAVIYAT SOHIBI AMIR TEMURNING HAYOTIY FAOLIYATIDAN LAVHALAR

## *1. Sohibqiron tushunchasi va Sohibqironning dunyoga kelishi*

Ko'pchilik, xususan, oliy o'quv yurtlari talabalari bilan Amir Temur va uning vorislari bo'yicha muloqotda bo'lganimizda asosan Amir Temurning sohibqiron bo'lib tug'ilishi haqidagi ba'zi fikr-mulohazalarimizni bilishni istashadi. Shu kabi talabalarning ko'pchiligini Amir Temurning ajdodi, nasl-nasabi, ya'ni urug'-aymog'i kim bo'lganligi yoki ularni nima uchun barloslar deyilishi, ularning asl kelib chiqish joyi, tili va mo'g'ullarga aloqasi bormi yoki yo'qligi haqidagi qator mulohazalar qiziqtiradi. Bu savollarning javobi boshqalarni ham qiziqtirsa ajab emas. Shuning uchun boboqalonimiz hayotiy faoliyatidan ba'zi bir lavhalarni keng kitobxonlar ahliga havola etishni lozim ko'rdik. Bunda avval bo'lajak jahongirning dunyoga kelishi, nima uchun Sohibqiron deb atalishi, Sohibqiron so'zining ma'nosi, bu nomga loyiq bo'lish kimlarga nasib etganligi kabi savollar bo'yicha qisqacha fikr bildirsak o'rinlidir.

Sohibqironlikka loyiq bo'lgan siymolar jahoniy saltanat egasi bo'lish bilan birgalikda jahoniy ma'naviyat sohibi, umuman barkamol shaxs ham bo'la olishi lozimdir. Xuddi shunga munosiblar soni tarixiy manbalarda aytilishicha ko'p bo'lmagan, balki bu nomga sanoqli siymolar muyassar bo'la olgan. Boshqa tarixiy-badiiy asarlarda sohibqironi a'zam sifatida 5 nafar jahongir sultonlar (hukm dorlar) va ular sulolasi haqida ma'lumotlar berilgan. Ba'zi manbalarda esa olti nafar sohibqiron o'tgan deb qayd etiladi. Bular haqida qisqacha ma'lumotlarni keltirish mumkin. Yuqorida qayd etilgan asarlarda, chunonchi, Mullo Salohiddin ibn mullo Aloiddin xoja eshon (Salohiddin Toshkandiy)ning "Temurnoma" asarida sohibqironlik haqida fikr bildirilib, dunyoda uch nafar sohibqiron o'tganligi qayd etilgan. Unda **"Sohibqiron" so'zining kelib chiqishi ma'nosi yoki etnik xususiyati** haqida ham fikr bildirilgan.

Salohiddin Toshkandiyning asarida, jumladan, "Temur tuzuklari"da ham "Sohibqiron" so'zining ma'nosi quyidagicha izohlanadi: *"Sohibqiron-Amir Temurning laqabini anglatgan; bu so'z "sohib" va "qiron" so'zlarining birikuvidan shakllangan; fors-tojikcha "sohib" qismi turkiy-o'zbechada "ega" ma'nosini ifodalaydi; arabcha "qiron" so'zi ilmi nujumda ikki sharofatli sayyora, Zuhra (Venera) va Mushtariy*

*(Yupiter) o'z harakatida bir-biriga qarab yaqinlashgan holatini "qiron burji" va uni baxt-saodat alomati deb fol ko'rilgan; Sohibqiron-mazkur ikki sayyora bir-biriga yaqinlashgan vaqtda tug'ilgan baxtiyor podshoh demakdir"*<sup>1</sup>.

Bu fikr "Temurnoma" asarining ... **"Emdi Amir Temur sohib qiron onadan tug'ulmoqi voqyeasini eshitung"** nomli (sarlav hali) qismida bayon etilgan. Masalan, *"O'zgalar bu voqyeani sharhi shul bo'lur derkim, qay vaqt har yetti kavkab tole'i saratonda jady burjinda ma'itda bo'lsa qiron bo'lurlar. Shunday vaqtg'a o'g'ul vujudga kelsa, tole'i mas'ud o'lur. Shul soatda tangri taborak va taolo olamni yaratibdur. Har farzand shul soatda tavallud bo'lsa, oning tole'i oxir umrigacha doimo iqboli mas'uddir. Aytibdurlarkim, uch o'g'ul shu soatda tug'uldi. Avval Iskandar Zulqarnayn hazratlari afandimiz, ikkinchi Muhammad rasul akrom sallollohu alayhi vassallam sayidimiz, uchunchi Amir Temur Ko'ragon xonimiz va begimizdur, derlarkim, tavalludi Iskandardin tavalludi rasul alayhis salomgacha sakkiz yuz yil, tavalludi Muhammad alayhissalomdin tavalludi Amir Temurgacha sakkiz yuz yil. Har sakkiz yuz yilda kavokib jady darajasida bo'lgandurlar..."*<sup>2</sup>.

"Temurnoma"ni nashrga tayyorlovchi olim, Poyon Ravshanov ushbu fikrlarni sharxlab, quyidagicha ma'lumot bergan: *"Ikki sayyora ning-Zuhal bilan Mushtariyning yaqinlashuvi davrida (Olloh taolo shu soatda olamni yaratgan ekan) tug'ulgan o'g'il sohibqiron bo'lar ekan. Yulduzlar harakatidagi bu holat har sakkiz yuz yilda takrorlanar ekan. Shunday peshonasi yarqiragan zotlar Amir Temurga qadar ikkita o'tgan ekan. Bular-Iskandar Zulqarnayn va Muhammad payg'ambar. Amir Temur Muhammad payg'ambardan so'ng sakkiz yuz yil o'tib, uchunchi sohibqiron bo'lib tug'ilgan ekan. To'g'ri, ayrim tarixiy asarlarda, masalan, "Abdullanoma" ("Sharafnomai shohiy") asarida Hafiz Tanish Buxoriy bu mundarijaga Abdulla xon nomini ham kiritadi"*<sup>3</sup>.

Salohiddin Toshkandiy asarida esa olamda faqat **Iskandar Zulqarnayn, Muhammad payg'ambar va Amir Temurlar** sohibqiron bo'lib tug'ilganlar, degan fikrni bildirgan. Ammo Hafiz Tanish Buxoriy Abdullaxonni ham shu siymolar qatoriga sohib qiron podshohlardan deb ko'rsatgan. Bu kabi fikrlarni hisobga olsak, sohibqironlikka muyassar bo'lgan podshohlar nomi tarixiy manbalarda juda ko'p ko'rsatilgan.

<sup>1</sup>. Темурнома, 22-б.; Темур тузуклари, 9-ҳавола, 58-б.

<sup>2</sup>. Темурнома, 49-б.

<sup>3</sup>. Темурнома, 22-б.



Masalan, Alouddin Otamalik Juvaniy (1226-1283), Rashiduddin Fazlulloh Hamadoni (taxmi nan 1247-1318), Hamdulloh Mustofiy Kazviniy (1281-1349) kabi muarrixlarning asarlarida bir qancha hukmdorlar nomi tilga olingan.

Ushbu ma'lumotlar qatorida Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida ham bu haqda ba'zi fikrlar borligini qayd etish mumkin. Alloma asarida qadimiy turk-mo'g'ul avlodlaridan bo'lgan, aniqrog'i Qayon ibn Elxon naslidan Buzanjarxon ibn Alanquva ham sohibqiron deb atalganligi qayd etiladi<sup>1</sup>. Mirzo Ulug'bek ushbu ma'lumotni tarixiy manbalarda aytilganligini uqtirib, Buzanjar tug'ilgan vaqt ("hijratdan keyingi 115 sanada") qiron yiliga to'g'ri kelgan degan fikrni bayon etadi. Asarda sohibqironlik xislatlari mavjudligini ko'rsatish maqsadida uning faoliyati haqida anchagina fikr bildirgan. Jumladan, "To'rt ulus tarixi" asarida Chingizxon ham sohibqiron podshohlari qatorida tilga olinadi.

"To'rt ulus tarixi" asarida keltirilgan o'z mulohazasini tasdiqlash bilan birga o'tmish tarixidagi ma'lumotlarga ham murojaat qilgan. Shu bois, Mirzo Ulug'bek o'z asarida Alouddin Otamalik Juvaniy, Rashiduddin Fazlulloh Hamadoni, Hamdulloh Kazvaniy kabi bir qancha olimlarning nomlarini tilga olib, ularning asarlarida qayd etilganligi ma'lumotlarni qayd etgan.

Darhaqiqat, Amir Temur bilan Chingizxon ajdodlarini bog'liqligi haqida "Amir Temur ajdodlari" risolasida (Toshkent, 1992 y.5-, 6, 17, 28-betlar), jumladan, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida anchagina keng fikr bayon etilgan. Sohib qiron Amir Temurning dunyoga kelishi faoliyati esa Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Xofizi Abruning "Zubdat-ut tavorix", Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fosix Ahmad Havofiyning "Mujmali fosihiy", Abdurazzoq Samarqandiy ning "Matlay-as-sa'dayn", Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur" kabi juda ko'p tarixiy-badiiy asarlarda batafsil ma'lumotlar bayon etilgan. Bu kabi manbalarning ko'pchiligida har ikkisi bo'yicha fikrlar bor. Lekin birida keng birida tor holda yoki yo'l-yo'lakay to'xtab o'tiladi. Ammo bizningcha, "Mo'g'ullarning yashirin tarixi", Abdulxayr Hamadoniyning to'rt jildlik "Jami'at-tavorix", ayniqsa, Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asarlari dagi ma'lumotlarning manbai birdir. Demak, Mirzo Ulug'bek asarida keltirilgan ma'lumotlar, ularning asarlarida ham u yoki bu tarzda

---

<sup>1</sup>. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (Б.Аҳмедов, Н.Норкулов, М.Ҳасанийлар таржимаси). -Т.: Чўлпон, 1994, 66-67-бб.

qayd etilgan. Lekin shunga qaramay, asosan **uch nafar kishi** **sohibqironlikka** muyassar bo'lganligi ko'pchilik asarlarda tan olinadi.

Tarixnavis Salohiddin Toshkandiyniig "Temurnoma" asarida sohibqiron Amir Temurnipg dunyoga kelishi haqida fikrlarni qiziqarli badiiy hikoyalar tarzida bayon etadi. Masalan, hali dunyoga kelishga ulgurmagan Amir Temur va onasining hayotidagi epizodlar quyidagi badiiy hikoya shaklida bayon etiladi: *"Tegina begim mohni tug'ori yaqin kelgan vaqtda, Yukuna xonim bir kechasi tush ko'rdikim, Tegina begim moh etakidin Quyosh tulu' qilib, mashriqdin mag'ribg'a borub tamom olamni oldi. Andin Hindiston sarig'a mayl qildi... O'rnidin turub otasidin qolgan bir g'ulomi, ya'ni quli bor erdi, oti Moydun edi, oni chaqirib, ... Yukun xonim aydi: "Tegina begimni tushumda andog' ko'rdum, bir ta'birg'a yetuk kishi bo'lsa, ushbu tushni so'rgil", deb voqyeani bayon qildi... Qul aydi: "...Samarqand viloyatida bir mag'orada oti Sabulak ota degan kishi har qanday mushkul so'z bo'lsa hal qilur ermish" degach, Moydunni Sabulak ota sarig'a yubordi... Sabulak ota aydi:... "Tarixning yetti yuz o'tuz beshida bir o'g'uli sohibqiron vujudga keladur. Gumon qilurman, tulu'i Kavkabning vaqtig'a qarag'onda yaqindurkim, ul o'g'ul onadin yer yuziga tug'ulur sohibqiron bo'lib, yetti iqlimni olg'ay, aning avlodi sakkiz yuz yil saltanat surg'ay"... Yukun xonimg'a kelib bayoni voqyea ta'birini aydi. Anga rashk o'ti sho'la urdi. Qulig'a aydikim, "bir ish qilib, Tegina begim mohni o'ldurayluk..."<sup>1</sup>.*

Shu kabi asarda Amir Temur dunyoga kelayotgan yilida yetti iqlim podshohlari (Rum Qaysari, Bag'dod malikasi Dilshod xotun, shoh Shujo', Hindiston begi va podshohi Malik Ra'no Ballixon, Farang podshohi, Xitoy va yettinchi Totor-urus podshohlari ham xuddi shunday tashvishga tushganlari) sohibqiron tug'ulmasdanoq uni yo'q qilish rejasini tuzganliklari haqida hikoyalar berilgan.

Asarda qayd etilishicha, ulardan uch nafari musulmon, to'rt nafari kofir podshohlaridan bo'lgan. Ularning barchasi Movarounnahr hukmdori, aniqrog'i Buxoroga Bayonqulixonga xabar berish uchun elchilar jo'natishgan. Movarounnahrning barcha hukamolari ishtirokida elchilar bilan uchrashuv-yig'in o'tkazilgan va tug'ulgan go'dak-sohibqironni yo'q qilishga, o'ldirishga qaror qilingan.

Muallif o'z asarida Amir Temurning tug'ilish kuni (soati)ni o'tmish bitiklaridagi kabi samoviy jismlar (yulduzlar) harakati ya'ni har sakkiz yuz yilda sodir bo'ladigan ikki samo yulduzi (Zuhal va Mushtariy)ning

---

<sup>1</sup> . Темурнома, 47-48-66.

bir-biriga yaqinlashuvi hodisasi soniya siga to'g'ri kelganligi va bu kun olam yaratilgan vaqt deb ham hisob langanligini badiiy bo'rttirish yoki tasodifiy deb qaramaydi. Balki bu hodisa oldindan bashorat qilingan, ollohning karomati deb qarab, Temur shaxsiyatini yanada ulug'laydi. Chunonchi Salohid din Toshkandiyning "Temurnoma" asaridan keltirilgan yuqoridagi epizodlarni, ya'ni Yukina xonim tushining ta'birini yoki xuddi shunday karomatli hodisalar turli mamlakat podshohlarida ham bo'lib, tug'iladigan sohibqron chaqaloqni, hatto uni tug'ilmasdanoq o'limga hukm qilinishini eslang. Muallif bu epizodlarda Amir Temur shaxsiyatini nafaqat ulug'laydi, balki bu bo'rttirishlar, badiiy hikoyalar orqali Sohibqironning kelgusida qanday buyuk shaxs bo'lishini ham o'z o'quvchisiga oldindan bashorat qiladi. Muallif bu ma'lumotni oddiy fikrda aytishi ham mumkin edi, ammo unda Temurning shaxsiyati oddiy kishilardek aks etardi.

To'g'ri, o'tmish tarixiy-badiiy asarlarda bayon etilgan buyuk shaxslar, mashhur shahzodalar taxt-saltanatga erishgunlariga qadar og'ir, mashaqqatli kunlarni o'z boshlaridan kechiradilar, o'limga va dahshatli hodisalarga duch keladilar. Lekin, Amir Temurdek ona qornidaligidayoq o'lim bilan olishib, sarson-sargordonliklarda bo'lgan emas. "Temurnoma"da bu holat quyidagicha qiziqarli bir badiiy epizod orqali hikoya qilinadi.

*"Tegina begim moh ko'b zori qilib aydi: "Ey bobo, mani o'ldurmoqni qanday xohlayursan, manda gunoh bo'lsa, qornimdagi bolaning nima gunohi bor?" Anda Moydun aydi: "Sani shu bola sababidin o'ldururman", deb qilichini ko'tarib solgach, jon vahmidin Tegina begim moh o'zini quduqg'a tashladi. Iqboli Amir Temur nogox havoda barq paydo bo'lib, yashin kelib qulni ko'krigidin urib, ikki bo'lak qildi"*<sup>1</sup>.

Xullas, Amir Temurning tug'ilishi haqiqattan ham yuqorida qayd etilgan kunda bo'lganmi? Ushbu savolni tasdiqlovchi javobni sohibqiron to'g'risida yozilgan boshqa tarixiy asarlarda ham o'qish mumkin. Sohibqironning qayerda va qachon tug'ilganligi masalasida mulohazali fikrlar bor. Bu haqda uning nasl-nasabi haqida fikr yuritilganda to'xtalamiz. Aytish joizki, Sohibqironning tug'ilishi bilan bog'liq afsona va rivoyatlardan Amir Temurning shaxsiyatini ulug'lash, uning boshqa hukmdorlardan farqli tomonlarini, o'ziga xos buyuk shaxs ekanligi kitobxon ko'z o'ngida badiiy, ta'sirchanlik tarzda tasvirlash uchun juda o'rinli foydalanilgan. Zero, P.Ravshanov ta'kilaganidek,

---

<sup>1</sup> . Темурнома, 48-б.

badiiy adabiyotda buyuk tarixiy shaxslar hayotiy faoliyati, ularning taqdiri azaldan belglab qo'yilganligi an'anaviy tarzda tafsif etilib kelingan. Bu an'ana "Temurnoma" da ham chetlab o'tilmagan. Chunki Amir Temurdek shaxsiyati va uning faoliyati nafaqat O'rta Osiyo tarixida, balki dunyo tarixida iz qolirgandir. Shuning uchun ijodkorlar uning hayotini oddiy tarzda emas, yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlashni lozim topganlar. Bu tasvirga haqiqatdan ham Amir Temur loyiq bo'lgan.

## ***2. Sohibqironning o'spirinlik davrlari***

Darhaqiqat, badiiy-tarixiy asarlarda tasvirlanishicha ba'zi mashhur sultonlar go'daklik chog'idanoq antiqa, hayratomuz xususiyat larga ega bo'ladilar. Juda ko'p sarguzashtlarga boy turmush qiyin chiliklarini, azob-uqubatlarni o'z boshlaridan kechiradilar. Jumladan, sharq adabiyotida mashhur bo'lgan "Shohnoma"da tasvirlangan podshohlar bunga misol bo'la oladi. Ammo bo'lajak jahongir-sohibqiron Amir Temur tug'ulmasdanoq, o'gay onasi Yukun xonim uni o'limga mahkum etgan. Rivoyat qilinishicha, u go'daklik (chaqaloqlik) chog'idanoq yetti iqlim podshohlari birlashib, uni yo'q qilishga azmu qaror qilishgan. Shu kabi tug'ulmasdanoq (ona qornidayoq) qiyinchilikka duchor bo'lgan. Bu kabi epizodlar faqat Amir Temur shaxsiyatiga xosdir.

Xullas, bu qayd etilgan qiziqarli hikoyatlar muallifning Sohibqiron shaxsiyati haqida mavjud tarixiy ma'lumotlarni, haqiqatlarni o'ziga xos badiiy tarzda aks ettirish usulidir.

Biz quyida Amir Temur va uning sulolasi haqida ba'zi fikrlarni berishga harakat qilamiz. Shu kabi jahongir faoliyati bilan bog'liq holda Chingizxon va uning sulolalari haqida qisman ba'zi bir ma'lumotlarni ham yo'l-yo'lakay bayon etamiz. Chunki bu ikki jahongir faoliyati birinchidan, Markaziy Osiyo, Movarounnahr xalqlari o'tmishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayni davrda o'tmish tariximizni yoritish uchun ular faoliyati ham ancha keng yoritimoqda. Ularda Chingizxon va Amir Temurning dunyoga kelishining yoshlik davrdan boshlab, ular sulolasining oxirigacha bo'lgan ma'lumotlarga deyarli teng e'tibor berilgan. Aytish joizki, Amir Temur bilan Chingizxonning qilgan ishlariga bir xilda qarab va teng o'lchab bo'lmaydi. Lekin yaqin o'tmishda esa ularning faoliyati teng holda salbiy baholangan. Ammo ularning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari qarama-qarshi turadi.

Chunonchi, buyuk saltanat va ma'naviyat sohibi Amir Temur haqidagi ma'lumotlarda o'tmish tariximizda bir qancha ijobiy fikrlar aytilgan bo'lishiga qaramay, so'nggi, xususan, o'tgan XX asr davomida Chingizxon qatori, ancha salbiy munosabat bildirib kelingan edi. Masalan, sobiq ittifoq davrida, aniqrog'i, 70 yil davomida ba'zi (ayniqsa, yevropalik va rossiyalik) olimlar tomonidan yozilgan tarixiy-badiiy asarlarda sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga to'g'ri baho berilmay kelinganligi sir emas. Ularda Amir Temurning faoliyati, ayniqsa, uning o'spirinlik davrlari noto'g'ri talqin qilingan. Go'yo u bezori va savodsiz shaxs tarzida talqin etiladi. Tarixiy yozma manbalar dalillari esa aslida bunday emasligini tasdiqlaydi.

Temur avlodlari haqida ma'lumaot beruvchi o'tmish tarixiga doir tarixiy-badiiy asarlarda Sohibqironning kimligi, qanday xususiyatlarga ega ekanligi ochiq va ishonchli dalillar orqali bayon etib berilgan. Jumladan, Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma" asarida Amir Temur shaxsiyatiga baho berishda, ba'zan badiiy to'qimalardan foydalangan bo'lsa-da, asosan o'tmish tarixiy ma'lumotlarga tayangan, o'zidan oldingi tarixiy manbalarga asoslangan. U Sohibqironning faoliyatini yoritishda badiiy to'qimani jahongir shaxsiyatiga xos yuksak xususiyatlarni yoritish maqsadida qo'llagan. Bu badiiylik esa kitobxon o'ngida Sohibqironni buyukligini gavdalantirish uchun xizmat qilgan.

Bizningcha, Amir Temurning shaxsiyatidagi kuch-qudrat, shijoat va qobiliyat, tadbirkorlik va iqtidorlik kabi yuksak xususiyatlarni bayon etishda muallif badiiy mubolag'a va to'qimalardan ustalik bilan o'rinli foydalangan. Chunki Temur shaxsiyatidagi ko'p qirrali fazilatlarini oddiy so'zlar bilan bayon etish qiyin, aks holda Jahongir va Sohibqiron kabi buyuk nomga ega bo'lgan hukmdorning shaxsiyati oddiy hukmdorlar shaxsiyatidan farqlanmasdi. Balki, dunyoni larzaga keltirgan buyuk saltanat sohibi, haqiqatdan ham muallifning badiiy tarzda ta'riflaganidek hayratomuz xususiyatlarga ega bo'lgan. Shu bois buyuk jasoratli xususiyatlarning yanada ta'sirli chiqishi uchun muallifning badiiy mubolag'adan foydalanishi o'rinli chiqqan.

Ushbu o'rinda aytish joizki, Amir Temurning tug'ilib, ulg'aygan joyi haqida tarixiy manbalarda, ayniqsa, hozirgi olimlar fikrlari har xildir. Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida Amir Temurning tug'ilib o'sgan joyi ota-onasining dargohi emas, balki Amir Chokuning xonadoni-Zanjir Saradir-Zanjir Saroy (Qarshi shahri yaqinida) deb ko'rsatiladi. (Sharqshunos V.V.Bartold Zanjir Saroy Qarshidan ikki kunlik yo'l ekanligi yozgan. Bu masalada yana keyinroq

to'xtalamiz.) Zanjir Sara manzilga Tegina mohim Yukun begim zulmi bilan kelib qolgan edi. Sohibqiron chaqaloqligidan to 12 yoshlarda bo'lganida ham bu dargohda yashab kelganligi aytilgan. Ammo shu davr orasida ular o'zlarining kim ekanliklari yoki kimning avlodiga tegishli ekanliklarini Amir Chokuga sezdirishmagan. Shu kabi Sohibqiron ning otasi Amir Tarag'ay ham xabarsiz bo'lgan. Xuddi ana shu davrda u o'z tengqurlari orasida ancha yuksak iste'dodli bo'lgan. Qobiliyatligi, jasur va tadbirkorligi, sezgirligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Yosh Sohibqironning bu xususiyatlar "Temurnoma"da quyidagicha aks ettirilgan: "... Amir Temur Mirzo Sayfiddin Amir Choku o'g'li birla ov ovlab yurur edi. Hanuz Amir Choku bilmas erdikim, bu Amir Tarag'ay bahodur o'g'li ekanin. Tegina begim moh ham aytgani yo'q erdi. Ammo Amir Chokug'a Amir Tarag'ay yaqin xesh erdi. Aksar Amir Temur bolalar birla o'ynab yursa o'zi amir bo'lub, o'zga bolalarni vazir navkar qilur erdi. Birov aydi, «Abu Muslim qassobni sixlik qanorasini bir barmog'ila otib yuboribdur, kitobda ko'rdum», deb. Amir Temur aydi: "bu sahal martabadur, man ham ko'tarurman". Anda qassob qanorasini keltirdilar, bir barmoq birla otib tashladi. Andin keyin yana bir joyda qo'lini yuklik aroba ostiga qo'yub ko'tarib tashlagan erdi, bu voqyeani Amir Choku eshitib hayron bo'ldi. Aydikim, "Bu o'g'ul magar Jahongirdur"<sup>1</sup>.

Ushbu lavhadan ko'rinib turibdiki, Amir Temur yoshlik davridayoq kuch-quvvati, jasorati bilan Amir Chokuni ham hayratga sola boshlagan. Asarda sohibqironning o'spirinlik davridagi hayratomuz faoliyati haqida ham ko'plab lavhalar berilgan. Bu lavhalarda Amir Temur yoshlik davridayoq tengqurlari, hatto, kattalarni ham o'ziga jalb eta borgan. U el-yurti, qabilasi orasida kundan-kun mashhur bo'la borgan. Masalan, "Alqissa, bir kun qirq qul quduqdin suv tortib erdi. Mirzo Sayfiddin aydi: "bir kishi bo'lsa, quduqdin yolg'iz o'zi ushbu qovg'ada suv olsa?!" Amir Temur aydi: "Bordur". Anda mirzo kula berdi. Amir Temurni g'ayrati kelib quduq uzra borib, zanjirni ushlab tortib, yolg'iz o'zi qovg'ada suv olib, odamlarga berdi. Necha bor olib, oxurg'a quya berdi. Mirzo Sayfiddin aydi: "Ey qarindosh, mani o'zingga vazir qilg'aysan". Amir Temur aydi: "man shoh emasman, sani vazir qilsam". Mirzo aydi: "niyat qilib erdim, agar qarindoshim quduqdan qovg'ani tortib olsa, podshoh bo'lur deb, niyatim tuzuk keldi". Amir Temur ahd qildikim, "man podshoh bo'lsam sani vazir qilurman", deb.

---

<sup>1</sup>. Темурнома, 53-54-66.

*O'shal kunda qirq qovg'a suv oldi. Barcha odamlar mamnun bo'ldi. Bu ishni Amir Choku barcha qabilasi birla eshitdi*"<sup>1</sup>.

Ushbu lavha mazmunidan anglashilib turibdiki, ayni davrda Amir Temurning kimligi, ota-onasi, urug'-aymog'i kim ekanligi ma'lum qilinmagan paytda ham Amir Chokuning o'g'liga o'xshash nufuzli oilalarga mansub bo'lgan o'spirinlar yosh sohibqironning kelajakda podshoh bo'lishiga to'liq ishonganlar va unga ergashganlar. Demak, Amir Temurning kelajagi uning kunlik faoliyatida namoyon bo'la borgan. Uning hayotidagi bu kabi fazilatlar otasi Amir Tarag'ayga yetib boradi. U o'z farzandini qidirib topishga kirishadi. Zanjir Sara (Saroy) manzilidagi hayratomuz fazilat -larga ega bo'lgan yosh o'spirinni o'z o'g'li bo'lishi mumkinligiga ishonch bilan yo'lga o'tlanadi.

Amir Tarag'ay Zanjir Sara manziliga kelganda ushbu yosh o'spirinning shijoatli bir ishini ko'rib, uning chaqqon va dovyurakligiga qoyil qoladi. Asarda muallif bu xaqda quyidagicha yozadi: *"...o'g'lin dong-ovozasi shuhrat bo'lub, ani amir Turag'ay bahodur eshitib erdi... Nachand kun yo'l yurub, Zanjir Sara mavz'ida quduq yoqasig'a keldilar. Havo ko'b issig' erdi. Anda Amir Temur qirq qovg'a suv olib, horib-charchab uyquga borib erdi. Nogoh, bir ajdar-ilon kelib Amir Temurni ko'krakig'a chiqib, xoxlasakim, zarb yetkursa. Turag'ay bahodur ko'rdiki, ilon anga zaxmat urub, chaqq'udek, ko'rgan zamon otaliq muhabbati jo'shg'a kelib hayron bo'lub, ne madad qilarin bilmay turub erdi. Amir Temur ko'zini ochib ko'rsa, ko'ksida bir ajdar-ilon turur. Filhol ilonni kallasin g'archa tishlab tashladi. Bu mamnu'at jumlasidin biridir... Alqissa, Turag'ay bahodur bu jihatdan tahsin va taajjubda qolib, atrofidin aylanaverdi. Aydi: "Ey o'g'ul, otang kim?". Bu aydi: "Mir Choku o'g'ludurman". Bahodur aydi: "Amir Chokuning manga uyini ko'rsatgil". Amir Temur Turag'ay bahodurni Amir Chokuning hovlisig'a keltirub, Amir Chokuga aydi: "bir mehmon kelibdur". Anda bahodurni ko'rub, ikov quchoqlashib ko'rushdilar... andin keyin bahodur aydi: "bu g'ulom bachadin bu kun taajjub ishlarni ko'rdum". Amir Choku aydi: "bu manim qulim emas, muni onasi mani singlim xonimdur..."*<sup>2</sup>.

Ushbu satrlardan ma'lumki, Amir Tarag'ay ham, Amir Choku ham ota-ona uchrashuvlariga qadar Amir Temurning kimligini bilish magan. Amir Tarag'ay xotini Tegina begim bilan uchrashgandan so'nggina

---

<sup>1</sup>. Темурнома, 54-6.

<sup>2</sup>. Темурнома, 54-55-66.

Amir Temurni o'z farzandi ekanligini bilgan. Shu zaylda 12 yasharli sohibqiron o'z otasi bilan topishgan...

“Temurnoma” asarida Amir Temurning yoshlik chog'idagi, to'g'rirog'i 12 yoshdan so'nggi davrlardagi shaxsiyatini yorituvchi lavhalardan biri-Shaxrisabzga kelgandan so'nggi faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu davrda uning shaxsiyatidagi harbiy sarkardalik, jahongirlik faoliyatlari ko'rina borgan. Chunki yosh Sohibqiron 12 yoshlik davrigacha, tengqurlarining barchasidan ustunligini namoyish etib, ularni o'z hukmiga bo'ysundirgan. 12 yoshdan so'ng undagi saltanat taxti sari hukmdorlik, jahongirlik tomon parvozga tayyorlanish xislatlari tobora ravshanlasha boradi.

Bizningcha, bu davr sohibqiron shaxsiyatidagi o'spirinlik faoliyatining **ikkinchi bosqichidir**. Amir Temur shaxsiyatidagi bu xususiyatlar asardagi quyidagi satrlarda o'z aksini topgan: *“Emdi hazrat Amir Temurni davlat anqaribi ochqusi ko'lg'a qanday keladur, qanday mamlakatlarni uxda qiladur. Roviyy ayturkim, Amir Sohibqiron g'a jahonbonlig'ni osori tez oid bo'laberdi, doim maqsudin qushi yuqori parvoz qila berdi. To sarhadig'a yetguncha ushoq bolalarni o'rtasida saltanat rusumin qilur erdi. Har bochag'a bir mansabni muqarrar qilib, o'zi amir bo'lib, o'zgalarni vazir, bakavul, yana har yerg'a qaravul qilib, alarga sipohlik ilmini o'rgatur erdi. Odamlar anga-uzok yaqindin tomosha qilur erdilar, har kun ushbu odatda la'bat ila o'ynar erdi. Bir kun bir oqsoqol qari kishi aydi: “agar amir bo'lsang jahonni uxdasidin chiqarmusan?” Amir Sohibqiron aydi: “Ey bobo, shu qadar himmatim qushi baland parvoz qilg'ondurkim, agar rub'i maskun taxti tasarrufimg'a kelsa, bir kaf tufroq kabi emasdur....”<sup>1</sup>.*

Amir Temurdagi qattiqqo'l sarkardalik, harbiy ishda o'quv-tartib qonunchilik, gunohkorning aybi aniq yoki isbotlangan bo'lsa unga rahm-shafqat qilmaslik, qattiq jazoga tortish kabi xususiyatlar xuddi ana shu o'spirinlik davrida uning shaxsiyatida ko'ringan. Masalan, *“...bolalar o'ynab birini gunahkor qilib, Amir Temurni oldig'a kelturdi. Buyurdikim, bu bola gunahkor bo'lubdur, podshohlar kabi ani jazog'a ijozat berdi. Filhol Sohibqironni nafasini ta'siri birla ushoq bolalar oni yig'ochga ostilar. O'shal holda bu bola jon berdi. Ushoq bolalar har tarafga qocha boshladilar. Sohibqiron o'zi yolg'iz hayron bo'lib qoldi. Ammo g'ayrat qocharg'a yori bermadi”<sup>2</sup>.*

---

<sup>1</sup>. Темурнома, 56-б.

<sup>2</sup>. Темурнома, 57-б.



Jahongirlik saltanati sari jo'shib ulg'ayayotgan o'spirin Sohibqiron shaxsiyatidagi gunohkorlarni jazolashda qattiqqo'l, shafqatsiz bo'lish xususiyati asarning ko'p o'rinlarida badiiy mubolag'a, bo'rttirish va to'qima usullari orqali yoritilgan. Yuqorida keltirilgan lavhaga o'xshash yana bir hikoya beriladiki, unda uch mamlakatdan uch o'spirin bolani uch ustoz tarbiyasiga o'z shogirdlari sifatida "Rijol-ul g'oyib" tarbiya maskaniga imtihon qilish uchun olib kelishadi. Agar uchala yigitning qaysisi imtihondan to'liq o'tsa uning maqsad yo'lidagi ishiga rivoj bo'lib, barcha iqlimdagi shahar va viloyatlar uning izmida bo'ladi, amirlik va saltanat uning avlodlari qo'lida sakkiz yuz yilgacha saqlanishi haqida bashorat qilinadi. Ana shu imtihondan biri doimo mast-alast holatda bo'lib, butkul gunohi azimga botib yurgan kishini jazolashga odilona hukm chiqarish edi.

Asarda Amir Temurning bu boradagi hukmi quyidagicha yoritiladi: *"Amir Temurg'a shayx Shams Kulol murabbiy bo'ldilar... Uch shayx o'z amirzodasig'a tavojjih qilib, ta'rif qilurlar. Qutb bular har birin so'zlarin eshiturlar. Rijol-ul g'oyib barchalari sukutda erdilar... Qutb boshlarini ko'tarib, naqshban diy pirlari Mir Kulolg'a aydilar: "bu maqomi imtihondir. Bular har birin imtihon qilmoq kerak". Shul so'zda erdilar, bir yigitni kelturdilar, mast, loa'qal, bir qo'lida shisha va sharob va bir qo'lida yarog'. Kiygan libosi qora. Har jonibg'a qarab bozi qilur. Qutb aydilar: "bu manim o'g'lumdur, har chand tavba berdim, tavba qabul qilmadi. Uch martaba tavbasin sindurdi. Siz uchovingiz muning borasiga hukm qilinglar. Yaman bekbachchasi faqix erdi, aydi: "Munga xud o'zingiz". Mag'rib bekbachcha hakim erdi, aydi: "Yana bir tavba beringiz".*

*Soqibqirong'a aydilar: "san nima dersan", anda Sohibqiron irg'ib turub andog' urdikim, rijol o'ldi. Ul ikkovi Sohibqironga ta'na qildilar: "bu Qutbni o'g'li erdi, na uchun nohaq o'ldurding? Sharob ichgan jazosi xuddur, o'ldurmoq emas". Sohibqiron aydi: "Siz ikkovingiz o'z hunarlaringizni aydingiz, manga lozim bo'ldi, o'z hunarimni ko'rsattim... Bu maqomg'a mast kelmoq lozim emasdur". Boz uch to'rani tarbiyachilari munoqashada bo'ldilar. Biri "Sulton Muhammad to'rani so'zi xub erdi, agar tavbani bersalar, yana qilmasmudi" dedi. Yana biri aydilar: "andisha'i nazarg'a kelsa, ta'zir lozim". Shayx Kulol aydilar: "Salobati amirlig' shuldir kim, gunahkorni o'ldurgay, xususan, gunahkorkim, tavba sindurgan bo'lg'ay"<sup>1</sup>.*

---

<sup>1</sup> . Темурнома, 59-б.

Demak, Amir Temurning tarbiyachi - ustozlari ushbu imtihon natijasini to'g'ri deb topadilar, chunki necha tanbehlardan so'ng ham o'z gunohini qayta-qayta takrorlagan shaxsning jazosi qattiq, beshafqat bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydilar. Bu kabi sinovlar yana davom ettiriladi. Imtihonning so'ngida esa o'sha qattol xunrez ham bo'lmaslikka va rahm shafqatli bo'la olishga undovchi hamda sababsiz qon to'kishlar va vayronagarchiliklarning salbiy oqibatlarini tushunib, kelgusida o'zi barpo etajak saltanatida xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun yetti iqlimda hukmronlik qilgan o'tmish podsholiklarning jirkanch ishlari bilan tanishtiriladi.

Masalan: *“Sohibqironni qasrg'a kelturdilar. Yetti darvoza qulflik, har qulfini ochib barchadin ichkari kirsakim, afak etagi to'la qon, misli diydai oshiqon, gulgun tan, ya'ni erkak odamlarni tanasi marmar toshidin qonlari qurub, bir kursi taroshlangan, atrofida yana erkak odamlar kallalari terilgandur. Aksar ushbu kabi toshlarni Sohibqiron ko'b ko'rdi. Uluslari ul vaqt qolmabdurlar. Bir qizil parda, o'shal uy o'rtasig'a torttilar, muvakkillar aydilar: “o'shal kishikim podshohlik da'vosin shul o'rindin o'tkuzilgay deb, “sandalig'a o'lturg'il”, dedi. Amir o'lturdi, o'zini xonaqohda ko'rdi. Yana Qutb oldida turar erdilar: “Muborak bo'lsun yetti iqlimga amirlig'. Agar o'z o'g'lung yozuqlu bo'lsa o'ldurmoqqa tavakkuf qilmaysan. By misoldur, o'shal tabali davlatdur. O'shul uykim, Zol dunyo erdi, ko'rding ming-ming erlarni boshlarin yebdur. O'shal muvakkillar asbobi podshohlig'ingga kerak erdi, bularni barchasi timsoldur”. Alqissa, Qutb Sohibqirong'a ko'p-ko'p nasihatlar qildi. Keyin Shayx Kulolg'a tobshurdilar”<sup>1</sup>. Xuddi ana shu bilim va nasihatlar sohibqiron ulg'aygach, o'z mevasini berdi.*

Umuman, Amir Temur 12 yoshligidayoq o'ta jasur, dovyurak, shijoatli, tadbirkor jo'raboshi-sarkarda sifatida tanila borgan edi. Ushbu haqiqat esa el og'zida afsonalarga aylana bordi. Amir Temur shaxsiyatidagi bu xususiyatlar asta-sekin ilohiy qudratga bog'lanib ketdi, qanchadan-qancha tarixiy afsonaviy-badiiy asarlar ning yaratilishiga olib keldi. Amir Temur haqidagi qayd etilgan badiiy lavhalarda tarixiy haqiqat borligiga aminmiz. Bu kabi lavhalar faqat “Temurnoma”dagina emas, balki, boshqa asarlarda ham keng o'rin olgan. Bu haqda “Temurnoma” asarining muallifi ham quyidagi fikrlarni bayon qilgan:

*“Amir Temurni to'rt kirdikorini kitobg'a yozg'anlar, nechukkim, avval bir qo'li birla to'la yuklik arobani ostidin ko'targ'on, ikkinchi, ajdar boshini tishi birla tishlab olib tashlagan. Uchunchi, qirq kishi*

---

<sup>1</sup> .Темурнома, 60-б.

*tortadurg'on kovg'ani yolg'iz o'zi tortib olgan. To'rtunchi, qutur uyuz bo'lib, yetti yilgacha sira o'zini qashumagan erdi*"<sup>1</sup>. Ushbu voqyealarda badiiylik bo'lsa-da, har bir badiiylik haqiqat zamirida tug'ilishini ham esdan chiqarimaslik lozim. Chunonchi, har qanday jismoniy kuch-qudrat juda ko'p jismoniy mashg'ulotlar natijasida, albatta ro'yobga chiqadi. Ushbu fikrning dalilini "Temurnoma" asarida keltirilgan quyidagi voqyea orqali ko'rsatmoqchimiz. Bunda Bahodirxon bir filni ozod ko'tarib bog'da sayr qilib ko'rsatadi. Amir Temur va uning farzandlari bu ishni dastavval uddalay olmaydilar. Lekin Amir Temur jismoniy mashq natijasida fildan ham og'ir bo'lgan yukni ko'tarib sayr qiladi. Masalan, "*Bahodurxon kulub aydi: mani masofimni ko'rgil. Filhol, buyurdi fil kelturdilar. Xon boshig'a dubulg'a kiydi, bir mil tekis yer bog'i bor erdi, anga kelib, filni ko'tarib aylanturdi. Barcha tahsin qildilar. Sohibqiron aydi: meni o'g'lum ham ahli shijoat din bo'lur, buyursangiz, imtihon qilsak. Xon ruxsat berdi. Avval Umarshayx... so'ngra Mironshoh to'ra ham ko'b zo'r qildi, ko'tarol madi. Andin so'ng Mirzo Shohruh...*

*...Sohibqiron chanoqchig'a loydin filni suratini qilg'il deb buyurdi. Uch kunda tayyor qilib berdi. Uch kung'acha Amir ko'tarib, mashq qildilar, so'ng ustig'a loy qo'shub ang'a o't yoqib o'rtadilar, safol bo'ldi. So'ngra ustig'a odam chiqsa ko'tarib, o'n kishi joy olg'udek bo'ldi. Qirq kung'acha boshlarig'a dubulg'a kiyib, oni ko'tarib mashq qildilar. Qirq kunda ustig'a o'n kishi chiqsa ham ko'tardilar. Qirq kundan so'ng... Sohibqiron iltijo qildilar o'shal filni keltursalar... Xon buyurdi, filni kelturdilar. Bahodurxon filni ko'tarib, bog'ni bir martaba aylantirib qo'ydi. Sohibqiron aydi: men ham ko'targ'ayman. Xon aydi, ey xo'ja, uyalub qolursan, qo'yg'il, dedi. Amir qabul qilmadi, dubulg'ani kiyib. filni ko'tarib, yetti marotaba bog'din aylanturdilar. Halq o'rtasidin g'arv chiqdi. Xon izza bo'lub, istiholada qoldi. Andin so'ng Amir mulozimlaridin o'n kishi ul filg'a mindilar, yana ko'tardilar. Muni ko'rub Bahodurxon Amir bila kurash tushmoqg'a harakat qildi, Ertadin kech vaqti g'acha talash qildilar. Alqissa, Amir Sohibqiron ko'tarib yerga andog' urdiki, xonni kalla xandalagi jasadi falakidin uzulub... ketdi"*<sup>2</sup>.

Xullas, Amir Temurning o'spirinlik davri haqida aytilgan fikrlarda qanchalik bo'rttirilganlik bo'lmasin, ularning aksariya ti haqiqat, ya'ni uning vujudiga xos bo'lgan xususiyatlar zamirida yuzaga kelgan. Uning

---

<sup>1</sup>. Темурнома, 54-6

<sup>2</sup>. Темурнома, 181-6

butun umri davomida, hayotiy faoliyati davrlarida insoniyat aqli zakovatini lol etadigan darajada amalga oshirgan ishlari ana shunday badiiy o'xshatishlar va bo'rtirishlarga teng keladi yoki loyiqdir.

### *3.Sohibqironning ta'lim-tarbiya olgan davrlari*

Taniqli tarixshunos olim Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchigi tarixi" kitobida bu masalada bergan ma'lumotlari diqqatga molikdir<sup>1</sup>. Uning yozishicha, odatda, o'ziga to'q oilalar hamma zamonda farzandlariga yaxshi bilim va tarbiya berishga intilib kelganlar. Sohibqironning otasi Amir To'rag'ay ham bundan mustasno bo'lmagan. Chunonchi, To'rag'ay Bahodir Kesh (Shabrizabz) hududida nufuzli amaldorlardan biri bo'lgan. Niyoziy (Achig'i) hududi (Shahrisabzdagi Tanxoz daryosining o'ng sohilida joylashgan yerlar) uning shaxsiy-merosiy mulki hisoblangan. Demak, Sohib qironning otasi o'ziga to'q oilalardan sanalgan. U bo'lajak jahongir o'g'liga turli soha ilmlarini o'zlashtirishga tegishli sharoit yaratib bera olgan. Amir Temir yoshligidan turli sohalarga qiziquvchan bo'lgan. U tirishqoqlik bilan ko'p sohadagi ilmlarni egallashga harakat qilgan. Shuning uchun ham o'rta asr muarrixlari uning tarix, til (turli tillar va yozuvlarni bilishga) va adabiyot, she'riyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik kabi sohalardagi salohiyatiga alohida fikr bildirib o'tishgan. Tarixchi Xofiz Abruning yozishicha, Amir Temur kitob mutolaa qilishni hech kanda qilmagan<sup>2</sup>. O'spirinlik vaqtidayoq Qur'onni yod bilgan, ulamolar imtihon qilishib, quvvai xotirasiga tasannolar aytishgan.

Amir Temur shaxmat o'yinida katta mahoratga ega bo'lgan va buyuk xotira egasi hisoblangan. Uning tug'ma iste'dod va o'tkir xotiraga egaligi haqida tarixiy manbalarda ko'plab fikrlar bor. Masalan, rivoyat qilishlaricha, Sohibqiron Sherozni bo'ysundir gandan so'ng olimu fozillarni shahar masjidiga yig'ib, ular bilan turli sohalarda so'hatlashib, ba'zi mazularda bahs va munozaralar ham uyushtirgan. Shunda Qur'oni Karimni turli ohangda o'qish bo'yicha hofizlar o'rtasida bahs olib borilgan. Qur'oni Karimni yoddan 14 ohangda ayta oladigan iste'dodli forsiyo shoir Hofiz ham bahsda qatnashgan. Amir Temur Hofizdagi bu buyuk qobiliyatning borligini sezgan bo'lsa kerak, "sen hofiz bo'lsang "Arofat" surasini oxiridan boshiga qarab oyatma-oyat aytib berginchi", deb murojaat qilganda, u "bunday qilish (yoddan

<sup>1</sup> . Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Т.: Шарқ, 2001., 154-155-бб.

<sup>2</sup> . Низомиддин Шомий. Зафарнома. -Таувер нашри, 1-2-жилдлар. 1937; 1956. 2-ж.162-б.

aytish-U.S.) mumkin emas”, degan ekan. Shunda Sohibqiron yig’ilgan jamoa ahlining talabi bilan Qur’oni Karimning “Baqara” surasini oxiridan boshiga qarab, oyatma-oyat yoddan aytib berayotganda, yettinchi oyatga yetganda ahli anjuman hayratdan unga tahsinlar aytgan ekanlar.

Tarixnavis Shomiyning “Zafarnoma”sida shoir Hofizning (vafoti 1390 y.) tirikligi paytida, aniqrog’i, 1384 yilda Amir Temurning Sherozda bo’lganligi haqida ma’lumotlar bor<sup>1</sup>. Temur Tuzuklari matnida Sohibqironning Qur’ondan fol ochishi haqidagi fikrlar ham uning savodli ekanligini tasdiqlaydi<sup>2</sup>. Bu haqda 1946 yilda chop etilgan Britaniya qomusida ham Amir Temurning savodli ekanligi, Qur’onni yaxshi o’qiy olganligi haqida ma’lumot berilgan<sup>3</sup>. Bunday yuksak bilimni unga singdirishda kamolot cho’qqisiga ko’tarilishida va saltanat egasi bo’lishida, o’spirinlik davridan boshlab ta’lim–tarbiya bergan ustozlarining xizmatlari katta bo’lgan. Lekin aslida, birinchi galda unda o’ta tirishqoqlik, ilmga intiluvchanlik, g’oyatda keng dunyoqarashlilik, umuman, kam uchraydigan tug’ma iste’dod mavjud bo’lganligini ham inkor etib bo’lmaydi. O’zida qayd etilgan xususiyatlar ham mavjud bo’lganligi sababli ustozlarning bergan saboqlari o’z mevasini bergan va uni ko’pchilik tan olib, unga ergasha borgan. Natijada u asta-sekin cho’qqiga intilib, yuqori mavqeni egallay borgan. Bu xususiyatning ba’zilari Amir Chuku dargohidagi o’spirinlik faoliyatida ham yaqqol seziladi. Amir Temur o’zining yuksak iste’dodi bilan yoshlik davrlaridanoq ko’pchilikning nazariga tushgan, albatta.

Avvalgi faslda qayd etilgan lavhalarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, Amir Choku Sohibqironning yoshlik davrlaridagi dastlabki tarbiyachi-ustozlaridan biri bo’lgan. U o’z o’g’li Sayfiddin tarbiyasi va ta’limiga qanday qaragan bo’lsa, Amir Temur ta’lim-tarbiyasiga ham shunday e’tibor bilan qaragandir. Chunki Amir Choku zamonasining obro’li, e’tiborli mansabdorlaridan bo’lgan, boy-badavlat yashagan. Shu sababli o’g’li Sayfiddinning tarbiyasi uchun maxsus o’qituvchilar, tarbiyachilar olgan. Sayfiddin bilan birgalikda Amir Temur ham ular qo’lida dastlabki boshlang’ich ta’lim-tarbiyaga ega bo’lgan. Umuman, yoshlikdan o’tkir zehinli, trishqoqligi tufayli yaxshi ta’lim tarbiya ola boshlagan Sohibqiron, asta-sekin o’z davrining e’tiborli va mashhur siymolari, allomalarining nazariga tushgan.

---

<sup>1</sup> .Шомий.Кўрсатилган асар, 1-жилд, 84, 104, 105-бб.

<sup>2</sup> . Темур тузуклари (А.Соғуний, Х.Кароматов таржимаси).-Т.: Фафур Фулом, 1991, 17-б.

<sup>3</sup> . Темур тузуклари, 18-б., 1-ҳавола.

Demak, yosh Sohibqironning har tomonlama kamolotga yetishuvi da o'z davrining e'tiborli va mashhur siymolari, allomalarining ta'lim-tarbiyasi ham katta rol o'ynaganligini ham inkor etmaymiz, albatta. Jumladan, uni Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Kutub kabilarning murabbiy sifatida imtihon qilishi ham fikrni tasdiqlaydi. Tarixiy manbalarda, jumladan, "Temur tuzuklari"da Sayid amir Kulol yoki Shamsuddin Kulol Xojagon Naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan shayxlaridan biri bo'lgan, Nasaf (Qarshi) shahrida Xoja Bahovuddinga "zikri xufiya" usulini o'rgatgan. U Amir Temurning otasi Amir Tarag'ay ning ham piri bo'lgan. Shuningdek, Cayyid Baraka va Zaynuddin Toybodiy qatori Amir Temurning ham pirlaridan biri hisoblangan. Bo'lg'usi Sohibqiron keyinchalik o'zining qo'lga kiritgan barcha zafarlarini ana shu piru ustozlari nomlari bilan bog'lagan edi<sup>1</sup>. (Shamsuddin Kulol 1371 yida vafot etgan va Keshda dafn etilgan)<sup>2</sup>.

"Temurnoma" asarining matnida yana bu haqda quyidagicha ma'lumot qayd etiladi: *"Derlarkim: avval Amir Temur Sohibqiron ning Shayx ul a'lam tarbiyat qildilar, ikkinchi shayx Shamsiddin Kulol tarbiyat qildilar. Uchunchi Shayx Xasan Bohurziy tarbiyat qildilar. To'rtinchi Naqshband pirim tarbiyat qildilar. Olamdin intiqol qilg'unlaricha to'rt vali tarbiyat qilur erdilar"*<sup>3</sup>.

Temuriylar davrida rivojlangan islom ma'naviyati bilan turkiy halqlarning o'ziga xos o'tmish ma'naviyati ham uyg'unlashib ketadi. Jumladan, o'sha davrning muqaddas yozuvi sanalgan arab yozuvi va yodgorliklari bilan birgalikda turkiy va boshqa xalqlarning o'tmish yozuvlari va bitiklari ham o'rganilgan. Chunonchi, Sohibqiron Amir Temur saltanatida bobokalonlar udumiga ko'ra ba'zi muhim tarixiy hujjatlar va qadimiy yodgorliklar o'tmish yozuvlarida bitilgan yoki nusxalashtirilgan. Ba'zan esa o'tmish yozuvi manbalarida o'qib tushunish zarurati tug'ilgan. Shu sababli bu sohada maxsus ta'limga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug'ilgan. Chunonchi, tarixiy yozma asarlarda temuriylar va ularning zamondoshlari ba'zi bir qadimiy bitiklarni o'qib, izohlab berishlari ushbu fikrni quvvatlaydi. Masalan, bu fikrning tasdig'i sifatida Tumanaxon davrida kadimgi turkiy-uyg'ur yozuvida bitilgan Qobulxon va Qochuvli bahodirxon ahdnomasining so'nggi satrlariga e'tibor beraylik: **"Shu haqdagi qarorni uyg'ur yozuvida bitib qo'ydilar, har ikkovlari unga imzo chekdilar"**.

<sup>1</sup> .Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи, 1-китоб, 355-б.

<sup>2</sup> . Темурнома, 21-б., 4-хавола.

<sup>3</sup> . Темурнома, 95-б.

Xuddi ana shu ahdnomani To'g'liq Temurxon **Amir Temurga ko'rsatganda sohibqiron uni o'qib tushungan edi.** "Temur tuzuklari" asarida ham Sohibqiron ushbu ahdnoma haqida fikr bildirgan<sup>1</sup>.

Afsuski, so'nggi davrlarda, ayniqsa, sovetlar tuzumi davrida Amir Temurning o'qimishli, bilimliligi haqida haqiqatdan yiroq, g'ayri ilmiy fikrlar aytib kelingan edi. Endilikda esa zamondosh tarixchilarimiz tomonidan Sohibqiron va uning faoliyati haqida aytilgan g'ayri ilmiy mulohazalarning asossizligini tarixiy manbalardagi muhim dalillar va Sohib qiron zamondoshlari asarlaridan keltirilgan ishonchli ma'lumotlar orqali ko'rsatilib, ular fikrlariga aniqlik kiritildi.

Chunonchi, o'z davrining taniqli tarixnavisi sanalgan olimlar dan Ibn Arabshoh, hatto Amir Temurga nisbatan adovatli bo'lgan ligiga qaramay, o'zining "Ajoyib-ul maqdur fi-tarixi Taymur" asarida sohibqiron haqida haqiqatni yozishga majbur bo'lgan. *U o'z asarida yozishicha, mashhur arab donishmandi Ibn Xoldun Amir Temur bilan bevosita yaqindan suhbatda bo'lib, Sohibqironni "buyuk aql-zakovot-ilm egasi" deb e'tirof etgan ekan.* Ayniqsa, Sohibqironning shaxsiy qiyofasi, salobati, kuch-qudrati haqida uning quyidagi fikrlari xarakterlidir: *" Amir Temur jismu jasadi kelishgan, qaddi-qomati tik, uzun bo'yli, go'yoki qadimgi pahlavonlar avlodlari misoli bo'lib, boshi katta, g'oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo'lalik, oqish yuzini och qizil rang jonlantirgani bilan hyech bir dog'siz, bug'doyrang emas. Qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, pochalari go'shtli, bo'yi basti kamoliga yetgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli ikki shamdek bo'lsa-da shodligi bilinmas, yog'on ovozli edi, u o'limdan qo'rqmas ... iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq bo'lib, go'yo zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgi-yu ko'ngil xushlikka maylsiz, garchi unda o'ziga ozor yetadigan biron so'z bo'lsa ham haqiqat (to'g'ri so'zlik) unga yoqar edi. U bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas va qo'lga kiritiladigan yutuqlardan shodlanmas edi"*<sup>2</sup>.

Amir Temurning yetuk bilim va itehdod egasi ekanligi, jismonan favqulodda juda baquvvat bo'lganligi haqida o'sha davrlardagi taniqli tarixnavisilar asarlarida ancha e'tiborli va ishonchli fikrlar mavjud. Masalan, Hofizi Abruning "Zubdat-ut-tavorixi Boyso'ng'uriy" va Abdurazzoq Samarqandiyning (1413-1482) "Matlaiy-as-sa'dayn va

<sup>1</sup> . Темур тузуклари, 20-б.

<sup>2</sup> . Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи.-Т.:Мехнат,1992, 65-б.;Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи, 1-китоб, 356-б.

majmai bahrayn” va boshqa qator asarlarda sohibqiron Amir Temur o’z zamonasining ilg’or bilimdo ni, ijodkor, ilm-fan ahlining homiysi sifatida qayd etiladi. U falsafa, tabobat va nujum (astronomiya) fanlaridan ham yaxshi xabardor bo’lgan<sup>1</sup>.

Ayniqsa, “Tuzuklar”ida yozilishicha, ulug’ kishilar bilan yoki shaxsiy yozishmalarni-maktub (xat)larni Amir Temur o’z qo’li bilan bitganligi aniq qilib aytilgan. Masalan,“...Tug’luq Tomur xonnint oldiga borish-bormasligimni bilmay ikkilanib qoldim. Shu hol asnosida pirim (Toybodiy) dan maslahat so’rab xat yozgan edim, ushbu mazmunda javob yozib yuboribdilar...”<sup>2</sup>. Yoki har bir zaruriy ishda “Qur’on”ni varaqlab fol ochishi, oyatlarni o’qib berishi uning yuksak savodxonligining yorqin dalilidir. Hatto, manbalarda uning o’tmish bilimlaridan xabardorligi, turli xil yozuvlarni va tillarni bilishi haqida ham fikrlar yo’q emas.

Manbalarda qayd etilishicha, **turkiy-uyg’ur-mo’g’ul** tillari bilan birgalikda **arab, fors kabi tillarni va yozuvlarni ham bilgan**. Va o’z farzandlari hamda zamondoshlarini ham bu sohaga jalb etgan. “Temurnoma” asarida yozilishicha, Sohibqiron Amir Temurga Sheroz o’lkasidan shoh Shujo’ o’z nomasini elchi xoja Abdurahmon orqali yo’llagan. Xoja Abdurahmon bu nomani shaxsan sohibqironning qo’liga topshirgan va shu onda Amir Temur xatni o’qib chiqqan: “*Anda xoja Abdurahmon nomani chiqarib Amir... O’qub ko’rsalar yozibdur... Amir Sohib qiron muni anglab, aytdilar, koshki shoir bo’lsam erdi, bularga javob aytur erdim*”<sup>3</sup>. Ushbu satrlarni yana izohlash joyizdurki, bu nomaning bir qismi she’r (qit’a) bilan bitilganligi sababli Amir Temur ham xatini she’r (qit’a) bilan yozishni istaganligi ta’kidlanadi.

Jumladan, tarixiy-badiiy asarlarda temuriy shahzodalarning ham sarguzashtlarida zabt etilgan o’lkalarda bo’lganida o’tmish yozuvlarida, masalan, qadimiy yunon-baktar yoki ibriy, turkiy-uyg’ur, yoyinki, qadimiy arab (rayhoni) kabi yozuvlarda bitilgan ba’zi yodgorliklarga duch kelib, ularni o’qiy olganligi borasida hikoya qilinadi. Ular duch kelgan bitiklar qadimiy yunon-baktar yoki ibriy, turkiy-uyg’ur, yoyinki, qadimiy arab (rayhoni) kabi alifbolarda yozilganligi aytilgan. Bu haqdagi ma’lumotlar temuriylar zamonida va so’nggi davrlarda yozilgan manbalarda ham uchraydi. Masalan, Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ahmad bin

---

<sup>1</sup> . Ибн Арабшоҳ. Кўрсатилган асар, Темур тузуклари, 18-б., 1-ҳавола.

<sup>2</sup> .Темур тузуклари, 17-б.

<sup>3</sup> .Темурнома, 192-293-бб.



Muhammad ibn Arabshohning “Ajoyib-ul maqdur fi-navoyibi Taymur”, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” si kabi qator tarixiy-badiiy asarlarda keltirilgan hikoyatlarda qayd etilgan. Chunonchi, “Temurnoma”da Aristotel zamonasida bitilgan xat haqida ma’lumot keltirilgan.<sup>1</sup>

Ushbu ma’lumotlardan anglashilib turibdiki yunon baqtar yozuvida yoki o’tmish yozuvlariga (maktub, xat kabi) yozma yodgorlik larga Amir Temur qiziqqan va ularni o’qiy oladigan maxsus kishilarni o’z saroyiga to’plagan yoki tayyorlatgan. Hikoyalar mazmunidan sezilib turadiki, Soqibqiron har bir yodgorlikning tarixi va siru-asrorini bilish bilan juda qiziqqan. Hatto, sohibqironning o’g’illari ham qadimiy yozuv yodgorliklarni o’qiy olishi, ma’nosini tushuntirib berishlari borasidagi fikrlar ba’zi hikoyatlarda qayd etilgan. Masalan, Mirzo Mironshoh Tus shahridagi bog’da bo’ladi. Unda bir nechta binolarga duch keladi. U binolarning darvoza-eshiklarida ilingan qulflardagi qadimiy yozuvlarni o’qishga muyassar bo’ladi.

Asardagi ushbu ma’lumotlar badiiy to’qima, bo’rttirish orqali hikoya shaklida yozilganligi aniq, albatta. Ammo biror bir shaxs yoki biror bir tarixiy voqeya badiiy qalamda (rivoyat tarzida) yozilar ekan, albatta uning dastlabki ildizi bor bo’lganligi ham aniqdir. Chunki, har bir hikoya, latifa yoki rivoyatlarning yuzaga kelishida biror bir narsa-predmet yoki hodisa asos yoki sabab bo’ladi, ya’ni har bir rivoyat zamirida ma’lum darajada haqiqat yotgan bo’ladi. Demak, yuqoridagi hikoyatlar zamirida ma’lum darajada haqiqat ham yo’q emas. Chunki qayd etganimizdek, temuriylar o’zlari zabt etgan o’lkalarda yoki o’lja qilib olgan yodgorliklar orasida turli xildagi o’tmish yozuvlarida bitilgan satrlarga duch kelganlari aniq. Chunonchi, qulflardagi turli xil bitiklar, *ibriy tilida yozilgan quti buyumdagi bitik, lavhadagi tavid satri kabilar qadimgi uyg’ur va arab yozuvlaridagi ahdnoma -yodnoma, vasiyatnomalar* shular jumlasidandir.

Bu kabi yozuvlarni Sohibqiron o’zi yoki unga, goh temuriy shahzodalar, goh olimu hukamolar, mutaxassislar tomonidan o’qib tushuntirilganligi ham haqiqatdan yiroq emas. Chunonchi, Amir Temur singari temuriylarning barchalari yuksak savodli, tarixiy merosga va uning yozuvlariga qiziquvchan, keng bilim sohibi bo’lishgan. Jumladan, “Temurnoma” hikoyalaridan birida **Mirzo Umarshayxning** qadimgi yozuvlaridagi *ibriy xatini o’qiganligi aytiladi: “Amir Sohibqiron hukamolar bila bir uy ichra kirdilar. Anda bir taxti oj yig’ochdin.*

---

<sup>1</sup> . Темурнома, 50-б.

...anda nachand satr yozilg'on, hech kishi ul xatni o'qimoqg'a quvvati yetmadi. ...bu xatti ibriydur, ...Mirzo Umarshayx o'qub bildi. Bu xatni yozg'uvchi Iskandar Zulqarnayn bo'lur". Shu kabi "Temurnoma" asarining ba'zi bir sahifalarida Amir Temur va shahzodalar qadimiy arab, fors va boshqa tillarga xos yozuvlarni ham o'qiy olganliklari ketma-ket hikoya qilinadi<sup>1</sup>.

Umuman, Amir Temur ustoz va tarbiyachilaridan yoshlikda olgan saboq va o'gitlariga hamisha amal qilgan. Farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalagan. Bu fikrning dalili "Temurnoma"da ham bor: "*Amir aydi, ey o'g'lum, alar (ya'ni dushman tomon -U.S.) jangga muqayyid bo'lmaguncha rap zafar tobsang, alarg'a omon berg'il... ey nuri-diydam, zinhor bog'-bo'stonlarni vayron qilmag'il, yosh bolalar qo'lga tushsa, asir qilmag'il, avratlar qo'lga kelsa asokirg'a aytg'il, fasod qilmasunlar, sharob ichmag'il, ko'p uxlamag'il*"<sup>2</sup>. Amir Temur ushbu o'gitlarni jahongirlik davridagi janggohlarda, o'g'li Mirzo Shohruxning dushmanga qarshi jo'natish oldidan aytgan edi. Bu kabi o'gitlar uning "Tuzuklari"da ham ko'plab berilgan. Bu haqda ham maxsus fikr yuritish alohida mavzuni talab etadi...

Ulug' zotning o'spirinlik davri va kelajagini "Temurnoma" asarida keltirilgan quyidagi she'riy parcha bilan yakunlashni lozim topdik:

Qutbdin topdi Nazar Sohibqiron,  
Aning uchun bo'ldikim, shohi jahon.  
Yoshi o'n ikkidin o'tub ul pisar,  
G'oyib eronlar etib anga nazar.  
Necha san'atni ko'rub, borub kelub,  
Nechasini eshitib, anglab bilub.  
Mindi davlat markabig'a ul sabiiy  
Shuhrati topdikim Iskandar kabi.

#### **4. Sohibqironning nasl- nasabi**

Shunisi xarakterliki, Sohibqironning hayotiy faoliyatiga bag'ishlangan juda ko'p manbalar o'rganilib, ulardagi ma'lumotlar keng kitobxonlarga taqdim etilgan bo'lsa-da, bu ulug' zot faoliyatining ba'zi tomonlari ko'pgina muxlislar, xususan, hozirgi yosh avlodlar uchun qiziqarlidir. Chunonchi, talabalarning ko'pchiligini *Amir Temurning ajdodi, ya'ni urug'-aymog'i kim bo'lgan yoki ularni nima uchun*

---

<sup>1</sup> .Темурнома, 172-184-66.

<sup>2</sup> .Темурнома, 196-6.

*barloslar deyishadi? Chingizxon bilan Amir Temur qardoshmi? kabi qator savollar qiziqtiradi.*

Amir Temurning tug'ilib, ulg'aygan joyi haqida tarixiy manbalarda, ayniqsa, hozirgi olimlar fikrlarida ham bir xillik yo'q. Masalan, o'tmishdagi tarixiy manbalardan Sharafuddin Ali Yazdiy va Fasix Xavofiylarning bergan ma'lumotlariga ko'ra *Sohibqiron hijriy 736-sichqon yil(milodiy 1336 yil 8-9 aprel)da Qashqadaryo viloyatining Kesh (Shahrisabz)dan o'n uch chaqirim uzoqlikda bo'lgan Hoja Ilg'or qishlog'ida(keyingi davrlarda bu qishloq Yakkabog' tumaniga ham qo'shilgan), barlos Tarag'ay Muhammad bahodir oilasida dunyoga kelgan<sup>1</sup>* (ushbu o'rinda izohlash lozimki "barlos" urug'-qabila nomi, "bahodir" esa jasoratli, dovyuraq, botir kabi yuksak qobiliyatlarga egallikni anglatadi). *Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida esa Sohobqiron- ning tug'ilib o'sgan joyi ota-onasining dargohi emas, balki Amir Chokuning xonadoni-Zanjir Saradir.-Zanjir Sara (saroy) (Qarshi shahri yaqinida) deb ko'rsatiladi.* Baloslarning nasl-nasabi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar ularni mo'g'ullar urug'idan deb talqin etadilar. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi.

Taniqli o'zbekshunos olim, akademik Ahmadali Asqarov tomonidan barloslar bo'yicha aytilgan quyidagi fikrlar, ayniqsa xarakterlidir. Olim o'zining ishlarida bu sohada ko'pgina o'tmish tarixiy va so'nggi davrlar manbalarini tahlil etgan. Jumladan, U o'zining "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" asarida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari<sup>2</sup> asosida barloslar haqida muhim ma'lumotlarni qayd etgan<sup>3</sup>. Chunonchi, *barloslarning asl vatani Onon va Qurulun daryosi havzalarida bo'lgan. Ular chingiziylar sulolasiga qadar ham o'ziga xos mavqeiga ega bo'lgan turkiy qabilalar sanalgan. Chingizxon davrida esa ular ancha o'ziga xos nufuzga va ishonchli harbiy kuchga ega bo'lganlar. Shuning uchun ham Chingizxon bu qabilani o'z ittifoqiga kiritib, ularga tayangan. Kubalay va Qorachur barloslar Chingizxonning nufuzli amirlaridan hisoblanganlar. Ularning bir qismi XIII asrning birinchi yarmida Ili daryosi sohillariga, Sharqiy Turkistonning g'arbiy viloyatlariga ko'chib kelib, shu asrning 60-yillarida Chig'atoy ulusining harbiy tayanchlaridan biri sifatida ming oila Kesh (Shahrisabz) hududiga ham ko'chib o'tishgan.*

<sup>1</sup> .Шарафиддин Али яздий. "Зафарнома" 192-б.; Темур тузуклари,14-б.

<sup>2</sup> . Низомиддин Шомий. Зафарнома.-Т.:1996., 21-б.

<sup>3</sup> . Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.-Т.: Университет, 2007, 255-256-бб.

*Amir Temurning otasi Barlos Amir Tarag'ay Muhammad Bahodir (vafoti 1360<sup>1</sup>) ham barlos amirzodalari avlodidan sanalgan. Onasining ismi Tegin xotin bo'lgan<sup>2</sup>. Manbalarda yozilishicha, Temurning otasi Kesh viloyatidagi nufuzli amirlaridan biri bo'lgan va hozirgi Shahrisabz tumanidan 20-22 km sharqda Tanxoz daryosining o'ng sohilida joylashgan Niyoziy (Achig'i) nomidagi hududlar Amir Tarag'ayning merosiy mulki hisoblangan<sup>3</sup>. Amir Temur ham ana shu barlos amirzodalar oilasida voyaga yetgan. Temuriylar sulolasi davrida saltanatning siyosiy hayotida juda katta nufuzga ega bo'lgan barloslarning ayrim guruhlari Sohibqiron harbiy yurishlari paytida va keyinchalik Bobur Mirzoga ergashib Janubiy Tojikiston, Afg'oniston, Hindiston va Kashmirkacha borib o'rnashib qolganlar.*

*Barloslarning etnik tarkibi, tili haqidagi bahslarda sharqshunos olim V.V. Bartold barloslarni mo'g'ul tilli xalqlar sifatida talqin etgan<sup>4</sup>. Rashididin esa barloslarning ilk ajdodlari turk edi, deydi. Keyinchalik ular yozma manbalarda mo'g'ullarning Nurin qabila ittifoqi tarkibida tilga olinadi<sup>5</sup>. Aslida Barloslar turkiy tilli qabilalardan bo'lishgan. Ular turkiy tilda so'zlashalarda uzoq davr mobaynida mo'g'ul qabila ittifoqi tarkibida bo'lib, mo'g'ul tili va urf-odatlarini yaxshi o'zlashtirganlar.*

*O'tmishga xos yozma manbalarni sinchiklab o'rgangan xitoyshunos olimi A.Yu.Zuyev barloslar kelib chiqish jihatidan turkiy xalq bo'lgan, degan xulosaga kelgan<sup>6</sup>. Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" sida Amir Temur aslini o'zbek va mangut(mang'it-U.S.) avlodi bilan bog'lab hikoyalar keldtirilgan. Masalan, "...o'zbeklardin Sohibqiron vujudga kelur, oti Amir Temur bo'lur. Ul o'lka iqlim barchasini musaxarra qilur"; "...To'ra (Mironshoh) aydi muni (qulfni) ochmoqig'a hyech kishig'a ruxsat bormu? Ul kishi aydi, ore, borligin hikmat kitoblarida ko'rub erdimki,... o'zbaklar ichra Iskandari Soniy tug'ulur, oni bir o'g'li eshik qulfni ochqay"<sup>7</sup>. "...mangut ikki qismdur: oq mangut, qora mangut. Oq mangut Amir Temur avlodidur"<sup>8</sup>. Chunonchi, temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlarda "turkiy til", "turk elati" iboralari*

<sup>1</sup> . Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. 192-б.

<sup>2</sup> .Темур тузуклари, 14-б.

<sup>3</sup> .Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.:Шарқ, 2001, 154-б.

<sup>4</sup> . Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Соч.5, стр.36.

<sup>5</sup> . Рашид ад-дин. Сборник летописей (Петрушевский И.П.-Кириш сўзи.). 1952. т.3.ч.1.,стр.29.

<sup>6</sup> . Зуев А.Ю. "Джами ат-таварих" Рашид ад-дина как источник по ранней истории жалайиrow. "Письменные памятники востока, историко-филологические исследования», Ежегодник.-М.1972, стр.178-185.

<sup>7</sup> .Темурнома, 88, 171-бб.

<sup>8</sup> .Темурнома, 92-б.

*keng qo'llangan<sup>1</sup>ki, ularning davlatida so'zlashuv asosan turkiy tilda olib borilgan. Zero, Amir Temur va uning vorislari ham o'zlarini barlos turklaridan deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham Amir Temur saltanatni qo'lga kiritgan davrda, 1370 yilgi Balx qurultoyida turk-mo'g'ul udumlariga amal qilib, xon nomini olishdan voz kechgan va o'zini amir deb atagan<sup>2</sup>. Ammo xon bajaradigan barcha vazifalar amir zimmasida qolgan, umuman davlatni boshqaruvi Temurning qo'lida bo'lgan. Bosh amir-Oliy hukmron (davlat, hukumat boshlig'i, hukmdor-xon) sifatida barcha vazir va amirlar(hokimlar) hamda tobe mamlakatlar Amir Temurga bo'ysungan. (Bu soha davlatni boshqaruv tizimi masalasiga xos bo'lib maxsus fikr yuritish talab etiladi).*

Ushbu o'rinda qayd etish lozim bo'ladiki, ba'zi tarixiy manbalarda turk-mo'g'ul an'anaviy udumlarga zid keladigan fikrlar ham bayon etilgan. Chunonchi, taniqli tarixnavis olim Azamat Ziyo hamda Poyon Ravshanov Amir Temur va Chingizxonning avlod-ajdodlari birligi haqidagi o'tmish manbalardagi rivoyat asosidagi fikrlarga qarshi mulohazalarni bildirishgan<sup>3</sup>. Azamat Ziyoning yozishicha, "Amir Temurning chingiziylardan bo'lmish Qozonxonning qizi Saroy Mulkxonimga (1337-1408) uylanishi, ya'ni xon avlodiga kuyov (ko'ragon), **qarindosh** bo'lishi uning siyosiy mavqeyini rasman bo'lsa ham mustahkamlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari Chig'atoyxon amirlaridan Qarochar barlos Amir Temur avlodi ekanligi va u o'z vaqtida Chig'atoyxon ulug' amiri sifatida o'lkani boshqargani (Shomiy asariga ilova qilingan<sup>4</sup>) haqidagi yarim haqiqat, yarim afsona ham taomilga kiritilgan.

*Yarim haqiqati shundaki, Chig'atoyning Qarochar barlos nomli mingboshisi bo'lgan. Ammo ishonchli manbalarda uning xon nomzodi sifatida mamlakatni boshqargani haqida so'z yo'q (bu mulohazani tasdiqlash uchun Rashiddin fikriga ilova qilingan<sup>5</sup>). Shu ma'noda Yazdiy "Zafarnomasi"da keltirilgan Amir Temur ajdodlariga oid shajara g'irt afsona va to'qimadir. Zero unga ko'ra go'yo Amir Temur urug'i Chingizxon urug'i bilan amakivachcha. Bu hech bir haqiqatga to'g'ri kelmaydi va uni isbotlovchi biron-bir tarixiy ma'lumot yo'q"<sup>6</sup>, deb yozadi Azamat Ziyo .*

<sup>1</sup>. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома, 109, 168, 229, 271, 282, 375-бб.

<sup>2</sup>. Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи, 256-б.

<sup>3</sup>. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи, 175-б.; Темурнома (Равшанов П. "Темурнома" хақида сўз), 10-б.

<sup>4</sup>. Шомий. Зафарнома. 1-жилд, 10-б.

<sup>5</sup>. Рашид ад-дин. Сборник летописей, т. 1, часть, 2, с. 275.

<sup>6</sup>. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи, 175-б.

Bu kabi fikr va mulohazalardan asosli xulosaga kelish lozim, albatta. Lekin bu masalada ba'zi bir mulohazali o'rinlar borga o'xshaydi. Agar biz o'tmish manbalarini ham, zamonaviy manbalarni ham kuzatsak bu haqda ikki xil xulosaga kelish mumkin.

**Birinchidan,** *o'tmish manbalaridagi rivoyatlarga ko'ra, ajdodlar Nuh alahis-salomdan boshlanadi va bunda Chingizxon va Amir Temurlarning ilk avlod-ajdodlari orasida qarindoshlik bog'lanadi. Bu shajara Amir Temur haqida yozilgan o'tmish asarlarning deyarli barchasida u yoki bu tarzda tilga olinadi. Hatto, bu shajara Amir Temur qabr toshida ham aks etgan. Shuningdek, zamonaviy davrimiz manbalarida ham, xususan, Oltoy tillar oilasi bo'yicha qilingan tadqiqotlarda turk-mo'g'ul tillari bir guruhga kiritilgan<sup>1</sup>. Demak, ushbu manbalarda aytilgan fikrlar bo'yicha **birinchi xulosa-** Temur va Chingizxon, ya'ni turk-mo'g'ul avlod-ajdodlari qardosh bo'lishgan.*

**Ikkinchidan,** *agar biz o'tmish an'ana va udumlarimizning, yana bir shariatlariga qarab ish tutsak, yetti avloddan so'ng qarindoshlik aloqalari yo'qolgan sanaladi. Xuddi ana shu nuqtai-nazardan qaralganda ham, shuningdek, zamonaviy olimlarimizning turk-mo'g'ul tarmoqlarining milodiy asrdan boshlab (xususan I-VII asrlarda) mustaqil tarzda bo'linib ketishi haqidagi tarixiy ma'lumotlar ham Amir Temur bilan Chingizxon avlodlarining bir biriga begona deb qarashga olib keladi. Bu jihatdan tarixnavis Azamat Ziyoning fikrlariga qo'shilsa bo'ladi. Demak, **ikkinchi xulosa-** Amir Temur va Chingizxon bir-biriga amakivachcha emas, balki begonadir. Temurning nasl-nasabi turkiyzabon barlos urug'idir. Chingizxonning urug'-aymog'i "jeti"<sup>2</sup> ko'chmanchi mo'g'ul qavmidir. Ular o'rtasidagi qarindoshlik faqat xon avlodiga (chingiziylarga) kuyov (ko'ragon) bo'lishi bilan bog'lanadi, xolos. (Hozircha biz shu xulosaga keldik.) Umuman, bu masalada hali ancha mulohazali fikrlar ko'p. Ushbu mavzuni har tomonlama sinchiklab o'rgangandan so'ng bu borada yanada ishonchli xulosaga kelish mumkin.*

---

<sup>1</sup> . Баскаков Н.А. Алтайская семья языков и ее изучение.- М.: Нука, 1981 (ушбу китобда Олтой тиллари буйича қилинган тадқиқотлар ва айтилган фикр-мулоҳазалар ҳам талқин этилган).

<sup>2</sup> . Бартольд В.В. История Туркестана. Соч., т. 2, часть 1.-М.: 1963., 154.; Улуғбек и его время. Соч., т.2, с.36.

## *5. Temuriylar sulolasining tarixiy mohiyati*

Avvalo ta'kidlash lozimki, ma'lum bir davrlarda chingiziy lar nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Yevropadan Yapon dengizigacha, O'rta dengizdan Hindixitoygacha bo'lgan ulkan hududlarda o'z saltanatini o'rnatdi. Lekin, chingiziylar va ularning davlat tizimi nomidagina markaz, ya'ni yakka (bosh) xon (Chigizxon) tomonida boshqarilsa-da, aslida bu saltanat tarqoq, bebosh xonu amirlar, beklklar tomonidan o'zboshimchalik bilan boshqarilgan, umuman markazlashgan davlat emas edi. Shu kabi bu davlat zabt etilgan mamlakatlardan moddiy va madaniy jihatdan ancha qoloq edi. Shuning uchun chingiziylarning ko'p jihatdan zamon taraqqiyotidan orqadaligi, qoloqligi zabt etgan mamlakat larning barcha sohalaridagi rivojlangan tarixiy taraqqiyotiga ancha salbiy ta'sir etdi. Jumladan, qadimiy Turkiston o'lkasi xalqlarining chingiziylargacha bo'lgan o'tmishiga nazar tashlasak buning guvohi bo'lish mumkin.

Chingizxon tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi bilan vatanimiz o'tmish tarixiga nazar tashlasak, xalqimiz to'rtinchi marta qaramlik davrini o'z boshidan kechirganligiga (miloddan avvalgi VI-IV asrlargacha-qariyb 200 yil ahmoniylar va miloddan avvalgi IV dan boshlab qariyb 150 yil grek-yunonlar, milodiy VIII-IX asrlarda arablar, so'ng XIII asrning 20-yillaridan 1370–yilgacha chingiziylar hukmronligida bulganligiga<sup>1</sup>) qaramay o'ziga xos moddiy va madaniy taraqqiyot mavjud edi. Aytish joizki, chingiziylar avvalgi qaramliklar davrida ancha mavjud bo'lgan moddiy va madaniy taraqqiyotni ham tamoman izdan chiqarishdi, umuman, rivojlanib borayotgan moddiy va madaniy taraqqiyotni bir necha yuz yillar orqaga surdi.

Umuman, chingiziylarning o'lkamizdagi hukmronligi 150 yil davomida na ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, na ilmu madaniyat sohasida e'tiborga loyiq biror bir ijobiy-tarixiy iz qoldira olmadi, aksincha, juda katta salbiy iz qoldirdi. Asrlar davomida xalqimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan ajoyib tarixiy obidalar-qasr va qo'rg'onlari, go'zal qishloq va shaharlari, me'morchilik san'atining nodir, betakror yodgorliklari xarobaga aylandi.

Xususan, arab xalifaliklari davrida mamlakatimizda qanchadan-qancha fan darg'alari, chunonchi, buyuk matematik, astronom va geograf, aljabr (algebra) ilmining otasi Muhammad al-Xorazmiy, Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri sifatida tanilib, "Shayx ur-ra'is",

---

<sup>1</sup> Каримов Ш. Шамсутдинов Ш. Ватан тарихи (1-китоб).-Т.: Ўқитувчи, 1997. 49, 60-61, 170-66.

“Donishmandlar sultoni”, “Tabiblar shohi”-Yevropada “Avisina” kabi mo’tabar nomlarga sazovor bo’lgan alloma Abu Ali ibn Sino, bir qancha zamonaviy (“Mineralogiya” asari kabi) bilimlarga asos solgan, qomusiy ilm sohibi, umumjahon fani va madaniyatiga katta hissa qo’shgan Abu Rayhon Beruniy, “Ikkinchi Arastu” nomi bilan jahonga mashhur bo’lib, falsafa, musiqa, va matematika ilmlari poydevorini tiklagan Farobiy, islom madaniyati va ilm-fani sohasida tengi yo’q nazariyotchi, buyuk xadisnavis va badiiy ijodkor Xoja Ismoil Buxoriy, shu kabi arablar qaramligidan so’nggi davrlarda turkiy til va adabiyotning mashhur namoyandalaridan Mahmud Qoshg’ariy, Al Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy kabi qanchadan qancha mu’tabar siymolarning meroslari qadrsizlandi. Ilm-fan sohasidagi nodir yodgorliklar, qomusiy alomalar, tengi yo’q ijod sohiblarining bebaho meroslariga zavol etdi, yoqib yuborildi, kuli ko’kka sovurildi. O’sha davrlarda qanchadan-qancha ularning izdoshlaridan ilm-fan darg’alari-olimu fozillar, buyuk ijodkorlar ham qadrsizlanib, quvg’in ostiga olindi. Ular chingiziylar zulmidan, bosqinchilik xuruj laridan qochib, o’zga mamlakatlarga panoz izlab ketishga majbur bo’ldilar.

El-yurtimiz boshiga tushgan ana shunday mudhish holatning barham topishida Amir Temur va uning saltanati o’ziga xos muhim o’rin egallaydi. Temuriylar saltanati yuzaga kelishi bilan Vatani miz tarixida alohida o’rin egallagan, jahonshumul ahamiyatga ega bo’lgan voqyealar yuz berdi: jumladan, o’zining bosqinchilik, talon-tarojlik, buzg’unchilik, zulm va adolatsizlik, vahshiyona yurish lari bilan nom chiqargan mo’g’ullar; aniqrog’i chingiziylar sulosasi yemirildi, tamoman inqirozga uchradi. Xuddi ana shu bosqinchilik va vayronagarchilik, zulm va adolatsizlik hamda feodal tarqoqlik asosida tuzilgan davlat o’rnida markazlashgan mustaqil turkiy o’zbek davlati, ya’ni Temuriylar sulolasi vujudga keldi. Bunday tarixiy voqyea, bevosita, jahon tan olgan, buyuk sarkarda Amir Temur faoliyati bilan bog’liq bo’ldi.

To’g’ri, bunday unutilmas tarixiy voqyealarning yuz berishida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoit, zidiyatli holat ham sabab bo’lganligini inkor etib bo’lmaydi. Chunonchi, o’sha davrlarda Markaziy Osiyoda yagona uyushgan davlat ning yo’qligi, balki zulmkor mamlakat hukmronligi ham siyosiy-iqtisodiy jihatdan, ham harbiy qudratining tarqoq va zaifligi, umuman, himoya birligining kuchsizligi, ayniqsa, Movarounnahrda Chig’atoy vafotidan so’ng yanada sezilarli holga kelib qolgan edi. Xususan, XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Chingizxon davrida shakllangan ana shunday feodal



davlat parchalanib, mayda-mayda xonliklar va beklklarga bo'linib ketgan edi. Ular o'rtasida toj-taxt, bosh hukmronlik uchun kurashlar, beboshliklar ham kuchaygan edi.

Tarixnavis G'iyosiddin Xondamirning "Habib as-siyar" asarida<sup>1</sup> yozilishicha, Amirzoda Abdulla binni Amir Qozag'on (manbalarda Qozog'on, Qazag'on shakllardaham qo'llangan) hukmron ligidan (1346-1358) so'ng, shahzoda-amirzodalar va beklar, amaldorlar o'zlari boshqargan har bir kent, shahar va viloyatlarda mustaqil podshohlik-hukmronlik da'vo qilib, o'zaro qonli urushlar olib borganlar. Chunki "Amir Qozag'on davridan boshlab xonlik tizimi amirlik boshqaruviga o'zgargan edi"<sup>2</sup>. **Amir Qozag'on nasl- nasabi** jihatidan *turk-mo'g'ul (erkinit, kerayit urug'lari) avlodidan bo'lib, chingiziylar sulolasiga mansub hukmdorlardan biri bo'lgan. Shuning uchun ham bu davrlarda hokimiyatni boshqaruvda turkiy amaldorlarning aralashuvi va mavqeyi ko'tarila bordi. Xuddi shu davrlarda Amir Temur o'zining mohir Chavandoz ligi va suvoriyligi bilan ulusda tanilgan edi. Temurdagi bu xususiyat Amir Qozag'onning etiboriga tushgan edi. Shu bois Amir Temurning 1356 yilda o'zining nabirasi, Amir Xusaynning singlisi Uljoy Turkonga o'ylanishiga qarshilik qilmaydi.*

Bu davrda rasman bosh yoki markaziy xonlik hokimiyati tan olinsada, amalda esa boshqaruv amir qo'lida bo'lgan. Natijada, XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda feodal davlat boshqaruvi kichik xonliklar ko'payishi natijasida tamoman izdan chiqib, siyosiy parokandalik yuzaga keldi. Butun mamlakatda iqtisodiy tanglik kuchayib ketdi.

Amir Qozag'on davridan boshlangan soxta xonliklar (amirliklar) markaziy hokimiyatga itoat etmay, mustaqil ish yurita boshlashdi. Chunonchi, Kesh (Shahrisabz) viloyatida turkiyzabon Hoji Barlos (Amir Temurning amakisi), Ho'jandda Boyazid Jaloyir, Balxda Amir Husayn, Shibirg'onda Amir Muhammadxoja (Muhammad Aperdi Nayman<sup>3</sup>), Xatalon va Arxangsaroyda Amir Kayxisrav va Amir O'ljoytu (O'ljoy Apirdi), Samarqand viloyati da esa Amir Xizr Yasavuriy va boshqa yerlarda ham o'zlaricha hukmronlik qiluvchi mustaqil amiru hokimliklar vujudga kelgan edi<sup>4</sup>. Ular o'rtasida beboshlik, yakka hukmronlik uchun kurashlar qizib keta boshladi. Ayniqsa, Amir Qozag'onning nabirasi

<sup>1</sup>. Хондамир. Хабиб ас-сийар. ЎзФА ШИ Тошбосмалар жамғармаси, рақам № 8979.; Низомиддин Шомий "Зафарнома". Таувер нашри. 1-2-жилдлар, 1937, 1956; 1-жилд, 15-б

<sup>2</sup>. Муъиниддин Натанзий. Мунтахаб ат-таворих. 1957. Ж. Обен нашри, 113-б

<sup>3</sup>. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи, 1-китоб, 356-б.

<sup>4</sup>. Муъиниддин Натанзий Кўрсатилган асар, 204-б.; Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи, 1-китоб, 356-б.

sifati da Amir Husayn o'zini ulug' amirlik rutbasiga voris hisoblab, toj-taxt uchun kurashning oldingi saflarida borardi. U bobosi Amir Qozag'on davridagi o'z xonadoni mavqeyini tiklash uchun toj-taxt kurashining asosiy davog'arlaridan bo'lib turgan kuchli raqibi Tug'liq Temurxonga qarshi kurashga otlangan edi. O'sha davrlarda Chig'atoy avlodlari boshqaruvida bo'lgan Yettisuv va Qoshg'ar hududlaridagi tukiyo-mo'g'ul amirliklar tashabbusi bilan Tug'liq Temurni xonlikka ko'tarishdi. **Xo'sh, Tug'luq Temurxon kimning avlodi?** Ushbu savolga Sh.Karimov, R.Shamsutdinovlarning "Vatan tarixi" kitobida quyidagi fikrlar berilgan: *"1348 yilda Mo'g'uliston xonlik taxtini Tug'luq Temurni egallagan edi. Tug'luq Temurxon Chingizxon o'g'li Chig'atoyxonning nabirasi Duvaxonnig farzandi Eminxo'janing arzandasi edi (ya'ni Tug'liq Temurxon bin O'g'ulxoja yoki Eminxoja bin Duvaxon avlodidandir). Tug'liq Temur 18 yoshida turk-mo'g'ul amirlaridan bo'lgan amir Po'lotchi tomonidan xonlikka ko'tarilgan. U Sharqiy Turkiston, Yettisuv vohasidagi hududlar, Tyan-Shan tog'i (Tangritog') etaklarida joylashgan ko'plab mavzalar, jumladan, Balxash ko'li, Irtish va Emil daryolari atrofidagi yerlarni o'z ichiga olgan ulkan Mo'g'iliston saltanatini tuzib, 1348-1362 yillarda hukmronlik qilgan<sup>1</sup>. 24 yoshida islom dinini qabul qilgan edi. Shuning uchun u Movarounnahrni bosib olishni shar'an o'ziga haqli deb bilar edi. Shu bois, Mo'g'iliston xoni sifati Movarounnahrda voqyealarga befarq qaray olmasdi. Ana shu o'y va rejalar asosida Chig'atoy davlatini qayta tiklash maqsadida Tug'liq Temurxon 1358-1360 yillarda harbiy yurishlarini boshlab, Movarounnahr hududlariga kirib keladi. U 1358 yilda katta qo'shin bilan Kesh tomon yuradi"<sup>2</sup>* va qisqa muddat (1360-1361 yillar) oralig'ida Qashqadaryo viloyatiga qarashli (Qarshigacha) hududlarni o'z hukmronligiga oladi.

1361 yilda Tug'liq Temurxon Movarounnahrni qo'lga kiritayotganda Amir Husayn unga qarshi jangga otlandi. Amir Husayn bu urushda yengilib, Amudaryo ortiga chekini shga majbur bo'ldi, lekin u toj-taxt uchun kurashda umidsizlikka tushmay raqibini yengish uchun tayyorgarlikni kuchaytira bordi.

**Xo'sh, Amir Husayn kim bo'lgan? Nasl-nasabi kimga borib taqaladi?** *Amir Xusayn Balx hokimi edi. Uning nasl-nasabi Amirzoda ibn Musallam ibn Abdulla binni Amir Qozag'on (1346-1358) avlodiga borib taqaladi. Aniqrog'i, u Amir Qozag'onning naberasi hisoblanadi.*

---

<sup>1</sup> . Темурнома, 16-б.

<sup>2</sup> Каримов Ш. Шамсутдинов Ш. Ватан тарихи(1-китоб),194-б.

*Amir Qozag'on turk-mo'g'ul aralashgan (turk va mo'g'ulning erkinit, kerayit urug'lari) avlodlaridan bo'lib, chingiziylar sulolasiga mansub hukmdorlardan biri bo'lganligi yuqorida qayd etilgan edi. U 1347 yilda Movarounnahr hukmronlaridan biri Qozonxonni (qarorgohi Qarshida bo'lgan) jangda o'ldirib, uning hukmronligidagi yerlarni qo'lga kiritib, ko'pincha qo'shni viloyatlarga bosqinchilik qilib yurgan. Jumladan, Xuroson yerlarga, Hirotga hujumlar qilgan, Soli-Saroy, Xuttalon, Munk hududlari uning qo'l ostida bo'lgan. 1357-1358 yillarda Amir Qozag'on Qutlug' Temurning buyrug'i bilan ovda o'ldirilgan. Qayd etilgan hududlarda Amir Qozog'onning mavqye yuqori turgan.*

*Amir Xusayin bobosi davrida Balx hokimi sifatida turk-mo'g'ul amirlari qatorida o'ziga xos mavqyega ega bo'lgan. Bobosining vafotidan so'ng uning qo'l ostidagi amir-ulamolar, quroldosh safdoshlariga ham tayangan. Shuning uchun u o'z mag'lubiyatini vaqtinchalik chekinish deb hisobladi. Zero, unda Tug'liq Temurga nisbatan Movarounnahr va Xuroson hududlarida ustunlik jihat lari mavjud edi. Xususan, Amir Xusaynni mahalliy aholi ayniqsa, turkiy qabilalar qo'llar edi. Buning sababini tarixnavislar quyidagicha izohlaganlar. Amir Xusayn, ayniqsa, turkiy qabila larga ko'proq tayangan. Chinonchi, chingiziylar davrida Chig'atoy ulusi g'arbiy qismlarida, aniqrog'i Movarounnahr va Xurosonga sharqdan kelib o'rnashgan va mahalliy turkiy aholi tarkibiga singib ketgan turkiyzabon (o'zbek urug'lari-U.S.) va turklashgan mo'g'ul qabilalari ham Amir Xusaynni qo'llardi. Umuman, Movarounnahr va Xurosonda Husaynning mavqyei baland edi<sup>1</sup>.*

Bu davrlarda toj-taxt kurash uchun boshlangan siyosiy maydonda tarixan o'ta murakkab vaziyat yuzaga kelgandi. Ana shunday murakkab vaziyatda, XIV asrning 60- yillarida Amir Temur ham siyosiy maydonga chiqa boshlagan edi. O'sha davrlardan boshlab u bosqinchi lik va vayronagarchilik, zulm va adolatsizlik hamda feodal tarqoqlik asosida tuzilgan feodal davlat o'rnida adolatli va nisbatan markazlashgan mustaqil turkiy o'zbek feodal davlati, ya'ni temuriylar sulolasini vujudga keltirishga ahd qilib, zimdan kurash yo'liga kirishgan edi. Bu maqsadni amalga oshirish da, dastavval Amir Xusayn va unga xayrihoh bo'lgan aholidan foydalangan.

---

<sup>6</sup> . Муъиниддин Натанзий. Мунтахаб ат-таворих, 117-б.

## **6. Amir Temur uchun zafar yo'lining boshlanishi**

Chig'atoy ulusining parchalanishidan so'ng nafaqat mahalliy Movarounnahr zodagonlarining, balki Mo'g'uliston amirlarining vayronagarchilik, bosqinchilik, beboshlik yurishlari kuchayib ketdi. Ular Movarounnahrning bepoyon ekin maydonlari, go'zal va obod qishloq va shaharlarini toptab, cheksiz boyliklarini talab, bebaho yodgorliklarini vayron qildilar. 1360-61 yillarda Tug'luq Temurxon Chingizxon davlati nazoratidan chetlashayotgan yerlarni yana Mo'g'uliston xonligi hukmronligiga olish maqsadida Movarounnahr hududlariga bosqinchilik urushlarini boshlab yubordi. Chig'atoy ulusidagi mo'g'ul amirlari hamda mahalliy hokim va beklarning beboshligi, o'zboshimchaligi, tarqoqligi sababli yuzaga kelgan siyosiy tanglik Tug'luq Temurxonga qo'l keldi. U o'zining qo'shinlari bilan sarosimaga tushgan tarqoq mahalliy hokimlik larni osonlikcha birin-ketin yengib, hatto ko'plarini jangsiz bosib oldi va butun Movarounnahrni zabt eta boshladi. Jumladan, Amirlardan Xizr Yasavuriy va Boyazidlar jangsiz taslim bo'lib, Tug'liq Temurxon huzuriga bosh egib borishdi, Amir Temurning amakisi Hoji Barlos esa Qashqadaryo viloyati hokimligini jangsiz mo'g'ul xonlariga topshirib, o'zi Xurosonga jo'nadi. Uning bilan birga bo'lgan Amir Temur "o'z vatanini, merosiy yurtini (Kesh viloyatini) o'zgalar qo'lga qoldirishni istamay, el-yurtiga o'zi egalik qilish maqsadini ko'zlab amakisiga ergashmadi. U o'z maqsadini amalga oshirish uchun, avval Tug'liq Temurxon xizmatiga borishga jazm qilib orqaga qaytadi"<sup>1</sup>. Uning ishonchini qozonish orqali zimdan o'z rejasini amalga oshirishga kirishdi.

Tug'liq Temurxonning 1360 yilda Movarounnahrda kirib kelish davrida Amir Temur amakisi huzurida boshqaruv ishlarida yurib, siyosiy jihatdan ancha pishgan va davlatni boshqaruvida faollashgan, el-yurt oldidagi burchini anglagan vatanparvar shaxs sifatida shakllangan edi. U o'ziga qarashli otliq gvardiyasiga ega bo'lib, dovyurak va mohir suvoriy sifatida ham tanilgan, umuman, mustaqil siyosiy faoliyat yuritishga qodir edi. U o'z niyatini amalga oshirish uchun dastlab, o'z piru-ustozlaridan mashhur shayx Zayniddin Abubakr Toybodiy va nufuzli amirlardan biri sanalgan Hoji Sayfiddinga uchrashib maslahatini olgach, Tug'liq Temurxon xizmatiga kirishni rejalashtiradi. Bu davrlarda Movarounnahrda osoyishtalik o'rnatilmagan edi, balki mo'g'ullar va

---

<sup>1</sup> Муъиниддин Натанзий. Кўрсатилган асар, 106-б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома.-Т.: 1972.,212-213-бб.

mahalliy amir-amaldorlarning o'zaro urushlari, talon-tarojlik harakatlari avjiga chiqqan edi. Mehnatkash aholi ning boshiga yanada ayanchli kulfat yog'ildi, ularning tinka-madori quridi, hatto bunday talon-taroj va beboshliklardan ba'zi davlatmand shaxslarda ham, o'rta hol kosib va hunarmandlarda va yer egalarida ham norozilik alomati kuchaygan edi. Natijada, zulm va adolatsizlikka qarshi halq g'alayonlari boshlangan edi.

Qo'zg'olonchilarga yuqorida qayd etilgandek, ba'zi davlatmand va o'rtahol aholi ham qo'shila boshladi. Xuddi ana shu davrlarda o'zining dovyurakligi, harbiy mahorati bilan mohir suvoriy-shijoatli otliq jangchi sifatida tanilgan va mo'g'ullarga nisbatan adovat ruhida bo'lib, ularga qarshi kurashmoq uchun zimdan payt poylab yurgan Amir Temur siyosiy kurash maydoniga chiqadi va yurtidagi g'alayonchi omma unga ergashisha boshladi. Bu borada u juda ko'p rejalar tuzgan edi. Shundan birini qat'iy amalga oshirishga kirishdi. Chunonchi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, u adovati va maqsadini pinhon tutgan holda va bu yo'lda xalqning ishonchini o'ziga ko'proq jalb etish uchun dastavval amakisi Hoji Barlos hokimligi-Kesh(Shahrisabz-Qarshi), umuman Qashqadaryo viloyatini qo'ldan chiqarmaslikka ahd qilib, Tug'luq Temurxon xizmatiga kirishga qat'iy jazm qildi.

To'g'ri, Temurning bu ahddidan o'ziga yaqin lashkarlari va el-yurtidagi xalq norozi ham bo'lgan. (Buni "Temur tuzuklari"da keltirilgan Amir Temurning piri-ustoz Zayniddin Abubakr Toybodiy bilan maslahatli yozishmalaridan ham anglash mumkin<sup>1</sup>.) Chunonchi, *"...mening askarlarim va qaramog'imdagi odamlarim Tug'liq Temurga bo'ysunishimni istamasliklarini aytdilar, chunki mening hukmim ostida mamlakat (o'ziga qarashli bo'lgan el-yurt-U.S.) osoyishtalikka erishgan bo'lib, o'zining mustaqilligini qurol bilan himoya qilishga tayyor edi. Xalqning barcha iltimoslariga men hozir Tug'liq Temurga qarshi chiqib jang qilishning keragi yo'qligini va uning askarlari juda ko'pligini hamda hozir unga bo'ysunishdan boshqa iloj yo'qligini aytdim"*<sup>2</sup>.

Tug'luq Temurxon qabulida bo'lganida Amir Sayfiddin tomonidan Amir Temur to'g'risida berilgan ta'riflar (ya'ni uning amirzodalar avlodidanligi, nasl-nasabining tozaligi, hamda o'z davrining fahm-farosatli va dovyurak, salohiyatli jangchilardan biri ekanligi haqidagi fikrlari) xonga ma'qul kelgandi. Chunki Amir Temurning dovyurak, yuksak harbiy mahoratga ega bo'lgan jangchi ekanligini Tug'luq Temurxon oldin ham eshitgan edi. Shuningdek, unga ergashgan va

---

<sup>1</sup> .Темур Тузуклари, 14-15-бб.

<sup>2</sup> . Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли.-Т.: "Нур", 1992., 49-б.

saralangan jasur suvoriy jangchi larning borligi hamda ular o'zni bilan katta kuchga ega bo'lgan qo'shinni dovdiratishga qodir ekanligini avvaldan bilar edi. Shu sababli u Amir Temurni o'ziga raqib qilgandan ko'ra undan foydalanishni ko'zlab, Amir Sayfidining taklifini rad etmadi. Amir Temurni o'z xizmatiga qabul etdi. Tug'liq Temurxon xizmatida Amir Temurning obro'-e'tibori kundan-kun orta bordi. Natijada u 24 yoshida Kesh viloyatining hokimligini qo'lga kiritdi<sup>1</sup>. Amir Temur o'z maqsad va istagi yo'lida dastavval xon ishonchini oqlashga intildi. Xon bilan Amir Temur o'rtasida shartnoma ham tuzilgan edi. Xon bu shartga ko'ra Movarounnahr egallansa, Amir Temur u yerga hokim bo'lishi lozim edi. Shu asosida Amir Temur Movarounnahr (ona yurti)ni to'liq zabt etishga kirishgan edi. Ammo u Movarounnahrni egallagach, bu yerda Tug'luq Temur o'z o'g'li Ilyosxo'jani hokim etib tayinlaydi. Amir Temurni esa Ilyosxo'janing xizmatida qo'shin boshlig'i etib qoldiradi.

Tug'luq Temurxonning bu nomardligidan Amir Temurda g'azab qo'zg'asa-da, yana sabr qilishga qaror qiladi. U o'z dilida pinhon tutgan rejasini ro'yobga chiqarish uchun yana payt poylashga qaror qildi. Umuman, u hokimiyatni egallash maqsadida zimdan, sekin-asta kurash maydoniga otlana boshlaydi. Bu davrda Movarounnahr dagi ba'zi mahalliy amirlar hanuz Tug'liq Temurxonning hukmronligini tan olmay mustaqil siyosat yuritishni davom ettir moqda edilar. Shu bois, Tug'luq Temurxon ular ustidan chingiziy lar hukmronligini qat'iy o'rnatish maqsadida yana Movarounnahr ga katta qo'shin bilan kirib keldi. Bu galda Tug'liq Temurxonning ishonchiga kirgan Hoji Barlosning do'sti Amir Hamid yordamida Amir Temur yana Kesh viloyati hokimligini qo'lga kiritadi<sup>2</sup>.

Lekin vaziyat taqozasi bilan (Tug'liq Temurxonning o'g'li Ilyos'hoja bilan ziddiyatli kelishmovchiliklar tufayli) hokimlik ni vaqtincha tark etib, Xurosonga-Amir Xusayn huzuriga jo'naydi. Zero, hali qudratli kuchga ega bo'lgan mo'g'ul davlatiga ochiqchasiga jang qilishga ojizligini sezib, u o'z tarafdorlarini ko'paytirish ga va Tug'luq Temurga nisbattan raqiblik niyatidagi turk-mo'g'ul amirlari bilan yashirin ittifoq tuzishga kirishadi. Kelishuv asosida u Balx hokimi Amir Xusayn ibn Musallam ibn Qazog'on bilan ittifoq tuzadi. Hatto, bu ittifoqni mustahkamlash uchun Husaynning singlisi Uljoy Turkon

---

<sup>1</sup> Муъиниддин Натанзий. Мунтахаб ат-таворих, 206-б.; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома, 212-213-бб

<sup>2</sup>.Муъиниддин Натанзий. Кўрсатилган асар, 118-209-бб.; Али Яздий.Зафарнома, 240-б.

Og'aga uylanadi. Xullas, 1363 yilda Tug'luq Temur vafotidan so'ng Amir Temur hokimiyat uchun kurashga ochiqchasiga, astoydil otlandi va shu yilning o'zida Amudaryo sohilidagi Qunduz shahri yaqinida mo'g'ullarga birinchi zarbani beradi. Umuman, u Amir Husayn bilan birlashib, 1363-1364 yillarda Movarounnahrda chingiziy lar hukmronligining ildizini ilk bor yanchishga erishadi. Natijada Ilyos'hoja Mo'g'ulistonga qarab qochishga majbur bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, bu davrlarda mahalliy zodagonlar orasida Amir Temurga nisbatan Amir Xusaynning obro'-e'tibori balandroq turar edi. Shu bois Amir Husayn Movarounnahrda egalik qiladi. U ulug' amirlik maqomiga ega bo'ldi va an'anaga ko'ra chingiziy lardan Qobilshohni rasman xon deb e'lon qildi. Amir Temur esa yana Kesh viloyatining hokimi etib tayinlandi<sup>1</sup>.

Ammo 1365 yilda Movarounnahrning sobiq hukmdori Tugluq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja, asosan, Yettisuv va Koshg'ar hududlari hisobida katta kuch to'plab Amir Husayn va Amir Temurga qarshi jangga otlandi. Chinoz yaqinida bo'lgan jangda Amir Husayn bilan kelishmovchilik tufayli Amir Temur qo'shinlari Ilyosxo'ja boshliq mo'g'ullardan mag'lub bo'ldi. Bu mag'lubiyat natijasida mo'g'ullar uchun Movarounnahrning markaziy hududlari, jumladan, Samarqand shahrini talon-taroj qilinishiga, jabrdiyda halqni yanada qaqshatishga imkoniyat yaratildi.

Samarqand shahri vayronaga aylana boshladi, aholisi qirg'in-qatag'on ostita olindi. Natijada shahar aholisi bu kulfatdan, yovuzlikdan qutulish uchun o'zini ham, sevimli shahri Samarqandni himoya etishga majbur bo'ldi. Zulm va adolatsizliklardan sabr kosasi to'lgan halq qo'liga nima uchrasa, uni qurol sifatida qo'llab, yovuz bosqinchi dushmanga qarshi qat'iy qo'zg'aldi va jang maydoniga otlandi. Samarqand aholisining bu tashabbusini deyarli butun viloyat halqi qo'llab-quvvatladi. Bu qo'zg'olon kundan-kun zo'rayib, Sarbadorlar nomi bilan butun Movarounnahrda yoyildi.

### **Xo'sh, sarbadorlar kimlar edi, bu nomning mazmuni nima?**

*Samarqand qo'zg'oloni harakteri jihatidan 1337 yilgi Xuroson (Afg'oniston), Marv va Eronda Xo'ja Yahyo boshchiligida boshlangan sarbadorlar harakatiga o'xshab ketdi. Unda ham qambag'allardan tortib, kosib-hunarmandlar, o'rta hol tabaqa va hatto, mo'g'ullar ning bebosh amirlaridan norozi bo'lib yurgan, ayrim mahalliy hukmdorlar, yuqori (boy) tabaqa vakillari ham qatnashgan edi. Bu qo'zg'olonda*

---

<sup>1</sup>.Муъиниддин Натанзий. Кӯрсатилган асар,114,129, 221-бб.; Али Яздий.Зафарнома.239-б.

*qo'zg'olonchilar o'zlarini sarbadorlar (sarbador - so'zi forscha sarbosh, ba(r) dor-dorga, ya'ni dorga oadigan bosh, yoki bosh ko'tarmoq ma'nosidagi) nom bilan atab, "Ozodlik, o'z erkimiz uchun boshimiz dorga osilsa-da, bosh ko'taramiz, kurashamiz" degan shiorni qabul qilgan edilar. Ana shu shior ostida Xurosonda yuzaga kelgan xalq ozodlik harakati o'sha davrda-sarbadorlar qo'zg'oloni nomi bilan mashhur bo'ldi va o'chmas tarixiy voqyeaga aylanib qoldi. Chunki Eron va Xurosonning bir qismida sarbadorlar birinchi bo'lib mo'g'ullar hukmronligiga qaqshatgich zarba berib, ona yurtlarini bosqinchilar zulmidan batamom ozod etib, o'z erklarini qo'lga kiritgan edilar. Ular o'zlarining "Sarbadorlar davlati"ni (1337-1381) tuzib, Sabzavor shahrini uning poytaxti ga aylantirdilar va qariyb yarim asr (45 yil) xukumronlikni o'z qo'llarida saqlab keldilar.*

XIV asr 60 yillarida boshlangan Movarounnahr-Samarqand sarbadorlar qo'zg'oloni ham xuddi shu Eron-Xuroson harakati yo'lidan borib, dastavval mo'g'ul bosqinchilarining vayronagarchilik va xunrezlik, talon-tarojlik hujumlariga barham berishga sabab bo'ldi. Samarqanddagi qo'zg'olonda ham Xurosondagidek holat mavjud bo'ldi. Chunki, Samarqand sarbadorlari harakatida ham asosan, mehnatkash xalq tashabbuskor bo'lgan edi. Qo'zg'olonga madrasa talabasi Mavlonzoda, mahalliy oqsoqollardan biri Abu Bakr Kuluyi Naddof, mohir o'qchi Xurdaki Buxoriy kabi xalq vakillari boshchilik qilishdi. Ular rahbarligida bebosh mo'g'ullar hujumiga qaqshatqich zarba berildi. Sarbadorlar mo'g'ul bosqinchilarini Samarqanddan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. Shundan so'ng Ilyosxon (Ilyosxo'ja) boshchiligidagi mo'g'ullar Movarounnahrda quvib chiqarildi va bosqinchilar zulmiga, hujumlariga chek qo'yildi, ularning ildiziga yanada qaqshatqich zarba berildi.

Mo'g'ullar zulmiga chek qo'yilishidan ruhlangan sarbadorlar bebosh mahalliy hukmdorlarga, mulkdorlarga qarshi turishga, ularning jig'ildonini tiyishga, adolatsizligiga barham berishga qasd qildilar. Ularning mol-mulkini, yerlarini musodara qilib, mehnatkash xalqqa, qambag'allarga ulashishga kirishdilar. Sarbadorlar o'z ta'sirlarini butun Movarounnahr hududi bo'ylab yoyishdi va qo'zg'olonning siyosiy markazi Samarqand shahri bo'ldi. Xuddi shu davrda Movarounnahrda siyosiy-iqtisodiy tanglikka barham berish, mo'g'ullar hukmronligini tamoman tugatish, markazlashgan turkiy-o'zbek davlatini tuzishni maqsad qilib yurgan Amir Temur uchun qulay sharoit yaratilgan



edi. Unga xuddi ana shu fursatdan foydalanish hamda davlatni qo'lga olishga va hokimiyat tepasiga chiqishga imkoniyat yaratildi.

Amir Temur va Husayn o'zaro kelishib, (har qaysi zimdan) o'z rejalarini amalga oshira boshladilar. Ular dastavval sarbadorlar harakatiga xayrixohlik bildirib, ularning rahbarlari bilan aloqa bog'lashga kirishdilar. 1366 yilda Amir Temur va Husayn Samarqand yaqinidagi Konigil qishlog'ida sarbadorlar rahbarlari bilan uchrashuvga kelishdilar. Amir Temur va Amir Husaynni sarbadorlar o'z umidlarini yuzaga chiqaruvchi katta kuch deb bilib, ularning elchilarini izzat-ikrom bilan kutib oldilar. Elchilar amirlarning el tinchligi uchun, mehnatkash xalq manfaati uchun sarbadorlar bilan hamfikir ekanliklarini bildirdilar va qo'zg'olonchilar rahbarlarini Amirlar qarorgohiga taklif qildilar. Sarbadorlar harakatining boshliqlari yaxshi niyat bilan Husayn qarorgohiga borishdi. Ammo Amir Husayn esa ularni qo'lga olib, barchasini o'limga buyurdi. Ushbu holatdan xabardor bo'lgan Amir Temur sarbadorlar rahbarlaridan birini, ya'ni Mavlonzodani qatldan qutqarib qola oldi. Ammo u o'limdan qolgan bo'lsa-da, umrbod zindonband qilindi.

Xullas, rahbarsiz qolgan sarbadorlar harakati ayanchli holda bostirildi. Bu paytlarda amirzodalar orasida Husaynning obro'-e'tibori baland edi. Shu sababli Amir Husayn Movarounnahr hukmroni bo'lishga erishdi. Lekin bu hukmronlik uzoqqa cho'zilmasligi aniq edi. Chunki ko'pgina amirzodalar orasida ham, turli tabaqadagi aholi, xususan harbiy qo'shin orasida ham, Amir Temurning martabasi kundan-kun orta bordi. Natijada, bu holat Husayn bilan Amir Temur o'rtasidagi ittifoqning buzilishiga olib keldi.

### ***7. Amir Temur o'zini "xon" deb atashga xohish bildirmadi***

Amir Temur dastavval o'z yurti Kesh (Shahrisabz) va Qarshi viloyatlaridagi avlodlari hukmronligini mustahkamlash, ya'ni Amir Husayn qo'l ostidagi yerlarni so'ng, Movarounnahr hukmronligini qo'lga olish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi va yashirin kuch to'plash maqsadini amalga oshirishga kirishdi. Ikkinchidan, Amir Husayn davrida ham amirzoda va beklarning o'zboshimchaligi, tarqoqligi, o'zaro ziddiyatli munosabatlari natijasida uzluksiz urushlar davom etib turar edi. Shuningdek, mamlakatning barcha tabaqalari orasida, ayniqsa, savdogarlar, hunarmand va dehqonlar orasida norozilik kuchaygan edi. Ayni davrda ushbu holatdan qutilish yo'li markazlashgan davlat tuzish,

o'zboshimcha amir va amaldorlarning jilovini tiyish, ommaning birligi va osoyishta- ligini ta'minlash, umuman, mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy holatni tiklash va yaxshilash zaruriy vazifa bo'lib qoldi. Bu kabi mas'uliyatli vazifani bajarishni Amir Temur o'z zimmasiga oldi va qudratli, saralangan qo'shin bilan Amir Husaynga qarshi ochik jangga otlandi.

1370 yilda Amir Temur Amir Husayn davlatining markazi-Balx shahrini egalladi. Shu yili Amir Husayn o'ldirildi va Amir Temur Movarounnahrning mutlaq hukmdori bo'lib oldi. O'sha davrning taniqli, nufuzli amirzoda va siyosatdon amaldorlari va din arboblari, mohir kosib va duradgorlari, me'mor va muhandislari, umuman, barcha e'tiborli tabaqalardagi mashhur ayonlarning yig'inida (qurultoyida) sarkarda Amir Temur Movarounnahrning hukmdori-Amiri deb e'lon qilindi. Ammo turk-mo'g'ul avlodlarining qadimiy an'anasiga rioya etgan Amir Temur o'zini **xon** nomi bilan atamadi. (Bu tarixiy an'ananing talabi bo'lsa kerak.) Chunki rivoyatlarda o'tmish davrda Chingizxon va Amir Temur bobolarining avlodlari shajarasida yozilishicha, ularning ilk bobolari, ya'ni o'tmishdagi sakkiz pusht-avlodi bir-biriga qarindosh bo'lishgan emish. Ularning o'zaro davlatni boshqaruvida imzolangan hujjati bo'lgan ekan. Ana shu turk-mo'g'ul merosiy hujjatiga asosan Amir Temur avlodiga xonlikning qurolli kuchlarini boshqarish, Chingizxon avlodiga esa, turk-mo'g'ul davlatiga hukmronlik qilish belgilangan ekan. Temurgacha go'yo bu an'anaviy meros hujjatning ramzi saqlanib kelingan va sohibqiron ham ushbu an'anaga rasman rioya etgan. Aslida ota-bobolarimiz udumiga ko'ra yettinchi avloddan so'ng har bir qarindosh begona sanalishi lozimdir. Lekin Amir Temur shunga qaramay qadimiy an'anani buzmad. (Bu an'ana haqida "Temurnoma" asarida ham ma'lumot bor)<sup>1</sup>

Buning o'ziga xos sabablari ham bo'lgan. Chunonchi, Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi yemirilgan bo'lsa-da, Mo'g'uliston dagi va ularning ta'siridagi Oltin O'rda, Oq O'rdadagi hukmronlar davlati va ularning kuch-qudrati hali ancha baquvvat ekanligini Amir Temur bilar edi. Bu esa Amir Temur davlati (uning markazlashgan davlat tuzish rejasini to'liq amalga oshirish) uchun hali ham kuchli raqib, xavf borligidan darak berar edi. Haqiqatdan ham bu fikr keyingi davr voqyealarining rivojida o'z tasdig'ini topadi. Shu sababli ham u Movarounnahrning to'liq hukmdori hisoblansa ham, yoki "xon"lik boshqaruviga ega bo'lsa ham o'zini "Buyuk Amir" deb atashlariga

---

<sup>1</sup> . Салоҳиддин Тошкандий , Темурнома, 48-б.

xohish bildirgan. Sohibqiron o'z mamlakatining xonga xos boshqaruvini qonuniy tarzda joriy etish maqsadida yuqorida qayd etilgan ba'zi bir ota-bobolar udumlari, an'analariga rioya etishni ham hisobga olgan. Jumladan, an'anaga ko'ra, o'zini "Movarounnahr amiri" deb hisoblashishi bilan birgalikda "xon" deb atashi ham mumkin edi. Chunki u "**Ko'ragon**" unvoniga ("Xonning kuyovi" nomiga) ham muyassar bo'lgan edi. Zero, u mamlakatning sobiq hukmdorlari, ya'ni Chingizxonning o'g'li Chig'atoy avlodlaridan biri Qozonxonning qizi, Amir Husaynning tul xotini (Saroy Mulkxonimga 1370 yilda) uylandi va xon avlodiga yanada yaqin bo'lib olgandi. Qisqacha aytganda, Amir Temur "Ko'ragon" ya'ni "Xonning kuyovi" degan unvonga erishadi. Xullas, bir jihatdan qonuniy tarzda xon avlodiga yoki xonadoniga xos mavqyega va davlatni xonga xos boshqaruviga ega bo'lgan edi. Lekin o'zini xon deb e'lon qilmadi.

Aksincha, qadimiy udumga ko'ra, Chingizxon avlodiga qarashli Suyurg'atmishni (1370-1388 y) va uning vafotidan so'ng esa Sulton Mahmudni (1388-1402 y) rasmiy ravishda xon deb atab, ular nomidan yorliq va boshqa xujjatlar chiqartira boshladi. Lekin bu xonning mavqeyi cheklangan, aslida faqat nomigagina (Temur tomonidan tayinlangan) xon vazifasini ijro etuvchi edi. U faqat Amir Temur ko'rsatmasi va farmoyishlarini bajarar, o'zicha davlatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga va Temurning hukmronlik faoliyatiga aralasha olmas edi. Shunga qaramay, bu xonlikni Amir Temur to umrining oxirigacha saqlab kelgan edi. Bizningcha, bu sohibqironning ota-bobolari tomonidan ancha qadimdan tuzilgan xonlik merosiy shartnomasi, an'anasiga rioya etilishi bo'lsa kerak. Har holda, bu tadbiri bilan Temur Movarounnahrda o'z hukmronligini to'liq mustahkamlash va qonuniy toj-taxt vorisi bo'lishini ta'minlashda ota-bobolarining udumlari, qonun-qoidalari, diniy aqidalarga ham befarq qaramagan. Bunday tadbirlar Temur o'z hukmronligini mustahkamlash uchun asosiy o'rinda turmasa-da, har holda unga asrlar davomida tan olinib kelingan, nisbatan an'anaga aylangan udumga ehtiyotkorlik bilan qaradi. Bu tadbirni **"xonlik" da'vogarlarini bilan vaqtincha murosasozlik choralariidan biri deb bilgan edi.** Haqiqattan ham saltanatdagi keyingi voqalar rivojida "xonlik" davogarlarining kurashlarini Sohibqiron oldindan bilgan .

Amir Temur Movarounnardan chingiziylarni quvib chiqargach, ushbu hududga tegishli chegaralarning butunligini saqlash va mustahkamlashga kirishdi. Chunki, o'sha davrlarda Xorazm va Dashti

qipchoq yerlaridagi ko'chmanchi turk-mo'g'ul qabilalari, ayniqsa, Hatalon hokimligi (hokimi Kayxusrav), qo'ng'urot urug'laridan Xusayn So'fi kabilar Amir Temur davlatini butunligiga raxna solardi, bosqinchilik hujumlarini uyushtirib turishardi. Lekin Temur Xorazm hokimlari, aholisi bilan adolatli kelishuv yo'li asosida mintaqada tinchlik-osoyishtalik o'rnatishga kirishadi.

Manbalarda yozilishicha<sup>1</sup>, mo'g'ullar davrida Xorazm yerlari ikkiga bo'lingan edi. Birinchisi, poytaxti Urganj hisoblangan Shimoliy Xorazm yerlari Oltin O'rda hukmronligida bo'lgan. Ikkinchisi esa, markazi Kot (hozirgi Beruniy shahri) Janubiy Xorazm yerlari bo'lib, Chig'atoy ulusiga qaragan. Shuning uchun qo'lga kiritilgan Movarounnahrdagi boshqa hududlar kabi Janubiy Xorazm yerlari ham Amir Temur saltanatiga tegishli sanalardi. Lekin Oltin O'rdadan (1359 yilda Berdibekxon vafotidan so'ng) ajralib chiqqan qo'ng'irot urug'laridan Husayn So'fi Xotalon hokimi Kayxusravga tayanib, birlashgan Xorazm davlatini tuzish niyatida Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan (Amir Temur qo'lga kiritgan) Janubiy Xorazm yerlariga bostirib kiradi. U Janubiy Xorazmni, Kot va Xiva shaharlarini bosib oladi. Amir Temur bunga qarshi qurolli kurashishdan avval muzokara yo'lini qo'llaydi. Xusayn So'fi Xotalon hokimi Kayxusrav maslahati bilan tinch muzokaraga ko'nmaydi. Natijada Amir Temur unga qarshi qo'shin tortadi va Janubiy Xorazmni-Kotni egallaydi. Jangda Xusayn So'fi yengilgach, Kotni tashlab, Shimoliy Xorazmga-Urganjga qochadi va shu yerda vafot etadi.

Xusayn So'fi o'rniga uning ukasi Yusuf So'fi siyosiy maydonga-taxtga ko'tariladi. Shunda Amir Temur Shimoliy Xorazm xalqi bilan yaxshi munosabda bo'lishga intiladi va Yusuf So'figa sulx tuzishni taklif etadi. Sulx tuzilgach, Amir Temur o'z o'g'li Jahongirni Xusayn So'fining qizi, O'zbekxonning nevarasi Xonzodaga uylantiradi. Ig'vogar Xotalon hokimi Kayxusrav o'ldiriladi. Lekin bu bilan Xorazm hududidagi notinchlik barham topmadi. Yusuf so'fi sulx shartnomasini buzib, Kot shahrini bosib oldi. 1373 yilda Amir Temur yana Xorazm hududiga qo'shin tortdi, ammo har ikki tomon yana urushsiz sulx tuzishadi. Ammo shundan so'ng ham Sohibqiron Xorazm yeriga yana uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ldi. Xorazmga so'nggi yurish 1388 yilda Xorazm hukmdori Sulaymon So'fining Temurga qarshi qilgan isyoni tufayli bo'ldi. Bu qirg'inbarot urushning kelib chiqishiga Oltin O'rda xoni To'xtamishxonning ig'vosi sabab bo'lgan. Uning

---

<sup>1</sup> . Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи(1-китоб), 70-б.; Яздий. Зафарнома, 242-б.

fatvosi bilan Sulaymon So'fi Sohibqirga qarashi isyon ko'targan. Isyon bostirilgach Xorazm Temur davlatiga qo'shib olinadi. Bu mintaqada voqyealar kundan-kun chuqurlashuvb kuchaya boradi. Bunga To'xtamishning hissasi kattadir. To'xtamish va u bilan bog'liq voqyealarning ildizi ancha chuqur.

### **8. Amir Temur Dashtiqipchoq yerlarini zabt etishi**

Oltin O'rda xonligini To'xtamish Amir Temur yordami tufayli egallagan edi. (Bu haqda ham qayd etilgan manbalarda ancha keng ma'lumotlar berilgan.) Shu bois Amir Temur uchun Dashtiqipchoq yerlarini zabt etish rejasi, keyingi tadbirlardan biri hisoblangan. Chunki To'xtamishxonni o'ziga yaqin tutib, unga juda ham ishongan edi. Ammo ayyor To'xtamishxon xiyonatkorligi tufayli Temur bu rejani oldinga surib, tezlik bilan amalga oshirishga majbur bo'ldi....

**Xo'sh, To'xtamishning o'zi kim?** Bu savolga Sh.Karimov, R.Shamsudinovlarning "Vatan tarixi" kitobida ancha qiziqarli fikrlarni o'qiysiz. *"U Manqishloq (Mang'it qishloq) hokimi To'yxo'ja o'g'lining farzandi, asli Jo'chi naslidan. To'yxo'ja Oq O'rda xoni (1361-1376) O'rusxonning (u ham Jo'chi avlodidan) Oq O'rda va Oltin O'rdani birlashtirish to'g'risidagi g'oyasiga qarshi chiqadi va shu sababdan u (O'risxon tomonidan) qatl etiladi. To'xtamishxon O'risxon ta'qibidan qochib, Amir Temur huzuriga panoh izlab keladi. Buyuk Sohibqiron unga zo'r ishonch bildirib, juda katta izzat-ikromlar ko'rsatadi, qimmatbaho sovg'a-salomlar beradi, O'tror va Savron viloyatlarini taqdim etadi. U To'xtamishxonga qatl etilgan otasi uchun qasos olishi va Oq O'rda taxti uchun kurashda qurol-aslaha va qo'shin qismlari bilan yordamni ayamaydi"*<sup>1</sup>. Bizningcha, u turklashgan mo'g'ul, aniqrog'i aralashgan turk-mo'g'ul avlodidandir. Amir Temur yordami evaziga To'xtamish O'risxonga qarshi bir necha bor qo'shin tortadi, lekin har gal mag'lubiyatga uchraydi.

M. Abduraimovning ma'lumoticha, Sohibqiron "To'xtamishga to'rt marta qo'shin berib, hamisha tajribali qumondonlardan birini unga bosh etib tayinlagan"<sup>2</sup>. Nihoyat, "To'xtamishxon 1376 yilda bo'lgan jangda O'risxonning o'g'li Qutlug' Bo'g'ani mag'lub etadi. Bu jangda Qutlug' Bug'a o'ldirilganligi tufayli O'risxon xun talab etib, evaziga Sohibqirondan To'xtamishxonni topshirishni so'raydi. Shundan so'ng

<sup>1</sup> Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи(биринчи-китоб), 371-б.

<sup>2</sup> . Абдураимов М.Темур ва Тўхтамиш.-Т.: "Шарқ юлдузи" журналі,1991. 11-сон,139-б

Amir Temurning o'zi To'xtamishxonni himoya qilib, 1379 yilda O'risxon ustiga qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Sohibqiron maxfiy harbiy taktikani qo'llab, kutilmagan fursat da, qo'qisdan O'risxon O'rdasiga qo'shin tortadi, "O'risxon qarshi lik ko'rsatolmay, qochishni ixtiyor qildi va Dashti Qipchoq mamlakati Temurga bo'ysundiriladi"<sup>1</sup>. Natijada, Sohibqiron homiyligida Oq O'rda taxtiga To'xtamishxon egalik qiladi. Keyinchalik To'xtamishxon 1380 yilda Mamay qo'shiniga (Oltin O'rdaga) hujum qilib, uni yengadi va Oltin O'rdani egallaydi. 1382 yilda Dmitriy Donskoy (rus) yerlariga hujum qilib, Moskvani zabt etib, talon-tarojlik bilan boyliklarini qo'lga kiritadi va shaharning kulini ko'kka sovuradi. Ketma-ket g'alabalardan esankirab qolgan To'xtamishxon endi "jahongirlik"ni davo qiladi. Hatto, ishtahasi ochilib o'z homiysi-Amir Temurni ham mensimay qoladi. Sohibqironning obro'-e'tiboriga, shuhratli va qudratli saltanatiga g'arazgo'ylik qila boshlaydi, davlatiga raxna soladi. Asta-sekin unga qarshi kurashishga o'tadi...

Harholda, Amir Temur rahnamoligida, bevosita yordami bilan To'xtamishxon Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismida ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalariga taaluqli yerlar) va Oltin O'rda (Yoyiq va Volganing g'arbiy tomonidagi O'zbekxon hokimiyatiga tegishli yerlar)ni egallaydi. Voqyelarning bunday ijobiy rivoji dan uning homiysi Amir Temur nihoyatda mamnun bo'lgan edi. Chunki Amir Temur To'xtamishni o'ziga juda yaqin tutib, ishonchli odami hisoblab, u orqali Jo'chi ulusi, umuman, Dashtiqipchoq yerlarida o'z siyosatini o'rnatishni umid qilgan edi. Lekin Sohibqiron homiyligida ana shunday oliy martabaga erishish sharafiga muyassar bo'lgan To'xtamishxon oqibatsiz bo'lib chiqadi, Amir Temurning ishonchini oqlamadi. U salbiy tomonga o'zgardi va Sohibqiron saltanatidek qudratli davlatni va Buyuk Temurdek dovyurak jahongir bo'lishni orzu qilib, unga hasad bilan qarab, zimdan qarshi kurasha boshlaydi.

Sohibqiron uning bu yo'ldagi hati-harakatlarini sezsa-da, uni bir necha bor kechiradi. Shunga qaramay To'xtamishxon o'z izmidan qaytmaydi. Oxir oqibat, u o'z maqsadini amalga oshirish uchun, avval, Oltin O'rda xoni sanalgan O'zbekxon (1312-1340 yy.) davriga xos shuhratga erishishni ko'zlab, Amir Temur saltanatiga qarashli hududlarga ochiqchasi qarshi qo'shin kirita boshlaydi. U Kavkazorti, Ozor yerlariga qo'shin tortib, 1385 yida Tabrizga kiradi.

---

<sup>1</sup> . Темур Тузуклари, 42-б.

Amir Temur Eron hududida urush olib borayotgan bir paytda, uning yo'qligidan foydalanib, 1387-1388 yillarda To'xtamish lashkarlari saltanat markaziga, Movarounnahrqa bostirib kirib, tuman va shaharlarni talon-taroj qilishadi. Ular dastlab Sayram, Toshkent so'ng Andijon hududlarini ishg'ol etadilar. To'xtamish xon boshliq qo'shin Buxoroga hujum qiladi, ammo buxoroliklar ning matonatli qarshiligi tufayli shaharni qo'lga kirata olmay, uning atrofini talon-taroj qilib, Nahshab, Zanjirsaroy (Qarshi), G'uzor hududlariga qarab chekinadi. U yerlarni talab, Zanjirsaroy shahrini tamoman vayron etadi. Kesh (Shahrisabz) va Samarqand yerlari xavf ostiga qolganini eshitib, Amir Temur Erondagi jang harakatlarini darhol to'xtatadi va tezlik bilan Samarqandga yetib keladi. Buni eshitgan To'xtamish o'zning bosqinchi qo'shinlari bilan darhol qochib ketishga ulgiradi.

Sohibqiron To'xtamish saltanatiga (Oltin O'rdaga) hujum qilishdan avval unga yordam bergan Xorazm hokimlari Sulaymon So'fi, Ilyig'mish o'g'lon va To'g'liq Temurning o'g'li Xizrxo'ja o'g'lon Aqoto'ra, mo'g'ul xoni Qamariddinlarni va boshqa sotqinlarni jazolashni rejalashtiradi. Bu reja amalga oshgach, 1391 yining yanvar oyidan To'xtamishga qarshi 500 ming kishilik qo'shin to'plab, avval O'tror hududidagi Qorasaman degan yerda o'z chodirini tikadi. Buni eshitgan To'xtamishxon (o'z xatolarini hargal Temirbek kechirib kelganligini eslab) tezlik bilan qilmishlaridan tavba-ta'zarru qilib maktubini yozadi va o'z elchilariga berib, sovg'a-salomlar bilan Sohibqiron huzuriga jo'natadi.

To'xtamishning so'nggi qilmishlarini, vayronagarchiliku qonxo'rlik va talon-tarojlik kabi o'ta qabix ishlarini endi kechirishi qiyin edi. Shuning uchun Sohibqiron buni maxfiy tutib, 1391 yilning fevralida To'xtamish elchilarni izzat-ikrom bilan qabul qilib, ularni hurmat bilan qo'shinlar qo'ruvida jo'natadi. O'zi ularning orqasidan borib, To'xtamishga qarshi qo'qisdan hujum uyutirishni rejalashtiradi. Bu rejasi amalga oshdi. Qo'qisdan qilingan hujumdan dushman sarosimaga tushadi va tumtaraqay qocha boshladi. Sohibqiron qo'shinlari Qozog'iston orqali Kichik tog' va Ulug' tog' hududlaridan o'tib, o'z dushmanini taqib etadi. Ulug' tog' qoyasida, yassi bir toshga o'zining mardonavor yurishlari haqda esdalik bitik ham yozdirib qoldiradi (bu bitik hozir ham Peterburgdagi "Ermitaj" muzeyida saqlanmoqda).

1391 yilning iyunida Sohibqiron qo'shinlari Yoyiq(Urol) daryosidan o'tib, qo'lga tushirilgan raqib askarlaridan olingan ma'lumotlar asosida To'xtamish qo'shinlari joylashgan Samara va Chistopol oralig'idagi

Qunduzcha hududiga yetib keladi. Bu yerda shiddatli va hal qiluvchi jang boshlanadi. Har ikkala tomondan ham talofat katta bo'ladi. Ayyor To'xtamish bu gal ham qochib qutiladi. Sohibqiron katta o'ljalari va g'alabani qo'lga kiritib, g'anim ustidan ikkinchi martaba zafar quchgach (To'xtamishxon o'zini o'nqlab olmasligiga ishonch hosil qilgach), 2 oylik safaridan so'ng o'z saltanatiga qaytadi. Chunonchi, buni Ali Yazdiyning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "Temurning muzaffar bayrog'ini ko'rgan To'xtamishxonda qat'iyat yo'qoldi. U xon va taxt alami suviga qo'lini yuvib, qo'ltig'iga artdi va taxtga yana qaytib chiqish umidi chipakka chiqayotganini bilib, o'z jonini bermaslik g'amida uchqur otining jilovuni burdi va ming bir hiyla bilan qutulib qoldi...U qochishni afzal bilgan edi"<sup>1</sup>.

Ammo To'xtamish osonlikcha mag'lubiyatni hazm qila olmadi va o'ziga yangi ittifoqchilar izlab topadi. Polsha va Litva hukmdorlari yordami bilan Oltin O'rda taxtini egallab, tezda katta qo'shin to'plab, yana Amir Temur davlatiga tahdid sola boshlaydi. Masalan, Sohibqiron 1303 yida Eron hukmdori Ahmad Jaloyir bilan jang qilayotgan paytda To'xtamishxon Darband dovonidan o'tib Ozorga qarashli Shirvonni egallaydi. To'xtamish bu bilan Eron ustidan qo'lga kiritilayotgan g'alabaga ikkinchi bor halaqit beradi. Chunki, Sohibqiron 1387 yildagi Eronda olib borayotgan jangni to'xtatishga To'xtamishxon sababchi bo'lgani edi. Sohibqiron bu gal ham jangni to'xtatib To'xtamishga qarshi kurashishga majbur bo'ladi.

Amir Temur bilan To'xtamishxon o'rtasidagi so'nggi-uchinchi jang 1395 yil aprel oyida Terek daryosi bo'yida bo'lib, Sohibqironning to'liq g'alabasi bilan tugaydi. Sohibqiron To'xtamishni ta'qib qilib, Itil daryosi sohilidagi Turatur kechuviga yetib kelganda O'risxonning o'g'li Qaymrchak o'g'lon peshvoz chiqadi. Amir Temurni hurmat-ehtirom bilan kutib oladi. Sohibqiron unga zarhal to'n va belbog' hadya qilib, Jo'chi ulusi xonligini tortiq etadi. Umuman, Amir Temur To'xtamishxonni tamoman yanchib tashlash maqsadida Oltin O'rda xonligining markazi-Saroy Berkani zabt etadi. Saroy xazinasi, umuman, Oltin O'rda xonligidagi barcha molu mulkni qo'lga kiritadi. Amir Temur shu bilan To'xtamishxon va uning saltanatini siyosiy maydondan o'chiradi. Manbalarda qayd etilishicha, 1406 yilda Amir Ediqut O'zbekxon To'xtamishni qo'lga tushirib qatl etadi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> .Абдураимов М.Темур ва Тўхтамиш., 151-б

<sup>2</sup> .Каримов Ш., Шамсутдинов Ш. Ватан тарихи(биринчи-китоб), 369-382-бб



Xullas, To'xtamishxon ustidan qozonilgan tarixiy g'alaba tufayli Oq O'rda va Oltin O'rda, umuman, birlashgan Oltin O'rda-Dashtiqipchoq xonligiga qarashli to Moskvaga qadar bo'lgan hududlar Sohibqironning buyuk saltanatiga tobe bo'ladi. Shunday qilib, temuriylarning Buyuk saltanatiga ilk bor asos solinadi.

### *9. Amir Temur saltanatining boshqaruv tizimi*

Movarounnahr mintaqasida chingiziylarning qaryib bir yarim asrlik hukmronligi va ular tufayli yuzaga kelgan vayronagarchilik, moddiy va ma'naviy parokandalik natijasida tamoman izdan chiqqan davlat tizimi va undagi ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy-ma'naviy hayot buyuk Temur saltanatiga meros bo'ldi. Ushbu meros o'z vorisiga mamlakat hayotini tiklash, o'z davri talabidan kelib chiqib, uni zamonaviy holatga keltirish, taraqqiy ettirish kabi nihoyatda og'ir va murakkab vazifani yuklagan edi.

Tadbirkor sarkarda va davlat arbobi darajasiga ega bo'la olgan Amir Temur ushbu murakkab vazifani bajarish reja va tadbirlarini ishlab chiqib, uni birin-ketin amalga oshira boshladi. U dastlabki yillarda mo'g'ullar tomonidan buzib tashlangan Samarqand shahrining vayronaga aylangan qadimiy obidalarini qayta tiklab, uni poytaxt holiga keltirdi, mustahkam shahar qal'asini bunyod ettirdi. Ma'lumki, mo'g'ul istilosining oxirgi davrlarida, ayniqsa, Chig'atoy hukmronligi dan keyingi tarqoq holdagi feodal davlatning beboshligi natijasida mamlakatda qonunlar va uning amaldagi tartibi ham tamoman izdan chiqqan edi. Demak, ushbu masalaga ham e'tiborni qaratish Sohibqiron uchun dastlabki vazifalardan biri bo'lgan. U mamlakatni boshqarish qonunlarini qayta ishlab chiqish va uni amalda joriy etish maqsadida o'z ajdodi (urug'i) sanalgan **barloslarni** alohida imtiyozga ega qildi.

Amir Temur birinchi galda o'ziga yaqin safdoshlarini har sohada, ayniqsa, siyosiy va jangovarlik ruhidagi ishonchli kuch hisoblar edi. Shuning uchun barloslardan maxsus topshiriqlarni bajaruvchi ishonchli gvardiyani tuzadi, ularga mansablar ulashadi. O'lka mahkamalarini va qo'shin safini boshqarishda ulardan foydalanadi va ularga katta ishonch bildiradi. Ular orqali boshqa qabila-urug'larning ham ishonchini qozonadi. Jumladan, u **barlos, tarxon, jaloyir, org'in, sulduz, duldoy, to'g'oy, qipchoq, totor, qiyot** kabi qirqdan ortiq urug'lar birligini tuzishga muyassar bo'ladi va ularga ham mavqyeiga qarab mansablar beradi.

Shundan so'ng ular orqali holdan toygan mamlakatda tartib o'rnata boshlaydi hamda qadimiy-an'anaviy va o'sha davr uchun zamonaviy qonunlar asosida o'zi ishlab chiqqan yangi qonunlarni, tartiblarni asta-sekin joriy eta boradi. (Bu qonun va tartiblar "Temur tuzuklari" da aks etgan<sup>1</sup>). Bo'lajak mamlakat katta hududlarni qamrab olishini va uni markazlashgan davlat shaklida boshqarilishini nazarda tutib, Amir Temur **suyurg'ol tartibini** qo'llashni afzal ko'radi. "Suyurg'ol" tartibini o'z hukmronligining dastlabki davrlaridayoq qo'llaydi. "Suyurg'ol" ma'lum bir mulkni yoki o'lka, viloyat va tuman, shahar hududlarini Oliy hukmron (Bosh amir, xon darajasidagi hukmdor, ya'ni markaziy hukumat boshlig'i-xon) tomonidan o'z avlodlariga, yuqori tabaqadagi zodagonlarga, nufuzli amaldorlarga, xizmat va jasorat bilan tanilgan shaxslarga in'om etilishini ifodalaydi.

Suyurg'ol qilingan mulk, hudud, asosan, markaziy hukumat ixtiyorida bo'lib, uning hukmiga bo'ysungan. Masalan, Temur Movarounnahrda yoki mamlakat tashqarisidagi o'z ixtiyorida bo'lgan viloyatlarni farzandlariga, avlodlariga va nufuzli hamda ishonchli amirlarga suyurg'ol qilgan, ya'ni in'om etgan. Suyurg'ol talablari, Markaziy hukmdor(hukumat) tomonidan belgilangan majburiyat asosida bo'lib, suyurg'ol egasi buni so'zsiz bajarishi shartdir. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarni, asosan, o'g'illariga suyurg'ol qilgan edi. Chonchi, Balx viloyati 12 minglik qo'shin bilan to'ng'ich o'g'li Muhammad Jahongirga; Fors viloyati 10 minglik qo'shin bilan Umarshayxga; Iroq, Ozarboyjon, Armaniston hududlari 9 minglik qo'shin bilan Mironshohga; Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Siyiston viloyatlari 7 minglik qo'shin bilan Shohruh hukmronligiga suyurg'ol qilingan bo'lib, ular Amir Temurning Markaziy davlati-Movarounnahr (Samarqand)ga itoat etishardi. Bu **to'rt suyurg'ol davlat** mustaqil hukmronlik qilsalarda, markaziy hokimiyatga tobe' bo'lib, xiroj (belgilangan miktordagi daromad solig'i)ni **oliy hukmdorga**-Amir Temur davlatining poytaxti Samarqandga jo'natishi shart edi. Ikkinchidan, **Oliy ko'mondon** Temurning harbiy yurishlarida ishtirok etishi talab qilinar edi.

Umuman, bu to'rt ulus Amir Temurning itoatkor o'g'illari tomonidan boshqariladigan mustamlaka davlatlar edi. Markaziy davlatning boshqarilishida oliy hukmron va Bosh qo'mondon (Amir Temurning o'zi) va uning nazoratidagi ma'muriyat boshlig'i-**devonbegi**,

---

<sup>1</sup> . Темур тузуклари.-Т.: Фафур Фулом,1991.(А.Соғуний ва Х. Кароматов таржимаси -Т.1996.);

hukumat tarkibida hamda saroy marosimlarini boshqaruvchi arkda bir necha **vazirlar** ishtirok etishgan. Bu haqda “Temur tuzuklari”da quyidagicha ma’lumotlar bor: “Amr qildimki, to’rt vazir har kuni devonxonada hozir bo’lsinlar. **Birinchi**-mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muomalalarni, raiyat aholini, viloyatlardan olingan hosil, soliq-o’lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, (mamlakat) obodonchiligini,(aholining)farovonligi ishlarini va xazina qanday qilib tartibga keltirilganligini menga bildirib tursin.

**Ikkinchi**-sipoh (harbiy) vaziridirki, sipohiylarning maoshlari va tanho(toji-taxtdagi xizmat)larini boshqarsin, tarqoq holatga tushib qolmasligi uchun (doimo) sipoh ahvolidin xabardor bo’lsin va ularning ahvoli haqida menga xabar berib tursin.

**Uchinchi**-egasiz qolgan, vafot etgan yoki qochib ketganlarga tegishli mol-mulkni, kelib ketayotgan(savdogarlar) mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o’tloq-yaylovlarini boshqarib, bularning barchasidan yig’ilgan daromadlarni omonat tarzida saqlovchi vazirlardir. U g’oyib bo’lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo’lsa, merosxo’rlariga topshirsin.

**To’rtinchi**-saltanat ishlarini yurituvchi vazir.U butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan tamom xarajatlar, (hatto) otxona va (saroydagi) boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlargacha ogoh bo’lishi kerak.

Yana amr qildimki, sarhadlar va menga tobe mamlakatlarga oid (ishlarga mas’ul) **uch vazirdan** iborat davlat hay’ati (xolisa) tuzilsin. Ular mazkur yerlardagi moliyaviy muomalalarni va keladigan daromadlarni boshqarsinlar. Bu **yetti vazir devonbegiga bo’ysunishi lozim** va u bilan ittifoqda muhim moliyaviy ishlarni amalga oshirmoqlari va mening arzimga yetkazishlari darkor.

Yana hukm qildimki, **bir kishini arzbegi** qilib tayinlasinlar. (Bu vazir turli sohalardan kelgan arz-dod, shikoyatlarni tekshirib, hukm chiqaruvchi-adliya<sup>1</sup>, ya’ni **sud tizimi** bilan bog’liq ishlar bilan shug’ullanadi va ikki tarmoqqa yoki ikki vazirlik lavozimiga ega: harbiy sud-lashkar qozisi va fuqaro sudi hamda islomiy shariat qozisi va sadrlar sadri, sayidlar va boshqa arboblarga suyurg’al tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini tekshirib turib, bu haqda sohibqironni xabardor etadigan qozilar).

---

<sup>1</sup> . Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома, 316-б.

Shu kabi **ish yuritish-hujjalashtirish uchun maxsus kotiblar** tayinlangan. Maslan, “maxfiy va sirli ishlarni pinhon tutishga qodir bo’lgan maxsus kotib(munshiyi mahram) va devon majlislarida qatnashib, tafsilotlarni yozib boruvchi, hujjatlashtiruvchi kotib, shu kabi saltanatning har bir idorasi- da kirim-chiqimlarni, kundalik harajatlarni yozib boruvchi kotiblar tayinlangan. Demak, saltanatni boshqaruv tizimida 8-9ta vazirlik va bir qancha kotiblar ham jalb etilgan<sup>1</sup>.

Sohibqiron Amir Temur markaziy ma’uriyatni tayinlashda va tayinlangan mansabdorlar bilan hamfikir bo’lishda ularning shijoatli, qat’iyatli, uddaburo-tadbirkor va hushyorligiga katta e’tibor bergan. Jumladan; Amir Temur buni Temur Tug’lik davrida o’zining hayotiy tajribasida sinab ko’rgan. Chunonchi, azmi qat’iy, tadbirkorlik va hushyor, jang ko’rgan, mard, ishbilarmon va shijoatli sifatlarini hisobga olishga majbur bo’lgan Temur Tug’liq ma’lum fursatlarda Movarounnahrni boshqarib turish yorlig’ini Amir Temurga topshirib (uning boshqaruv kuchiga ishonib), o’zi Jete tomoniga ketgan. Zero, o’sha davrda Amir Temurga teng keladigan qobiliyatli va davlatni boshqarib turadigan kishini topa olmagan xon uni ma’lum muddatda hudud osoyishtaligini saqlab turish uchun hukmdor o’rniga qoldirishga majbur bo’lgan.

Bu haqda “Temir Tuzuklari”da ham qayd etilgan: Movaroun- nahr yerlarini zabt etish davrida turk-mo’g’ul amirlari Bekchik, Hojibek erkinit, Ulug’ Tuktemir kerayit<sup>2</sup> va bir qancha mansabdorlar o’z vazifasidan ozod etilganligi tufayli ular bilan Tug’liq Temurxon o’rtasida dushmanlik alomati paydo bo’ldi. Natijada, ular Jete tomon yuzlandilar. “Aynan shu vaqtda Tug’liq Temurxonning Dashti Qipchoqdagi amirlari ham isyon tug’ini ko’targani haqida xabar olindi. Bundan xon tashvishga tushdi.U mendan maslahat so’radi va Jete tarafga yo’l oldi, Movarounnahr- ni esa menga qoldirdi va bu xususda yorlug’u ahdnoma yozib berdi. Amir Qoro chor no’yon(nufuzli amir)ning Movarounnahr viloyatida- gi tumanini ham menga topshirdi. Men butun Movarounnahr viloyatiga, to Jayhun daryosining sohillarigacha yerlarga hukmron bo’ldim. Davlat va saltanatimning boshlanishida eng avval qilin- gan kengashim shul edi. Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to’g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan”<sup>3</sup>; yoki “azmi qat’iy, tadbirkor va

<sup>1</sup> . Темур тузуклари, 1991 йилги нашрда-85-86-бб., 1996 йилги нашри -107-б.

<sup>2</sup> . Эркинит, керайит- турк-мўғул қабилаларидан (Темур тузуклари, 18-б.).

<sup>3</sup> .Темур тузуклари, 19-б.

hushyor, jang ko'rgan, mard, ishbilarmon va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshidir"<sup>1</sup>. Sohibqiron o'zining "Temur tuzuklari"da bu kabi xulosani davlatni boshqarishda muhim o'rin egallashi lozim bo'lgan asosiy belgilar deb bilgan. Chunonchi, "Pirim Zayniddin Abubakr Toybodiy menga yozmishlar kim, deydi Amir Temur o'zining tuzuklarida, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik... Maktubda yozilmish so'zlar esa saltanat ishlarida men uchun eng to'g'ri yo'l boshchi edi. Shunga ko'ra davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim"<sup>2</sup>. Masadini amalga oshirishda u o'z tajribasi va ustozlari ko'rsatmalariga tayanadi. Shu asosda davlatni boshqarishda 12 ta belgidan yoki tamoyildan foydalanadi. Amir Temurning yozishicha, davlat ustunlari o'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan quvatlanadi: "Saltanatimni **o'n ikki toifaga** bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim.

**Birinchi toifa**-sayyidlar, ulamo, shayxlar, fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim; **Ikkinchi toifa**-aqli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblardir, sergak va keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilardir. Ularning suhbatlari va ishlaridan naf' olib tajriba hosil qildim; **Uchinchi toifa**-duogo'y kishilar. Chunonchi, duogo'y sayyidlar, piriru ustoz shayxlar (Zayniddin Abubakr Toybodiy, Mir Ziyovuddin Sabzavoriy, Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Kutub, Shayx Xasan Bohurziy kabi 12 ikki kishidan foydalangan). Ular jamoa ruhini ko'tarish, ayniqsa, harbiy yurishlar boshlanishi oldidan sipohlarning g'alaba bo'lgan ishonch ruhini kuchaytirish, zafar quchishiga ruhan madad berishda ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lishgan. **To'rtinchi toifa**-amirlar, sarxanglar, sipog'solorlarga majlisimdan o'rin berib, martabalarini yuqori ko'tardim... Sipohgarlik ishlarida ularga tayanib, ulardan kengash tilar edim. **Beshinchi toifa**-sipoh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qaradim. Sipohlardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarni taqdirladim, martabalarini ko'tardim. Har el va har mamlakatning ulug'larini, boshliqlarini

<sup>1</sup> .Каримов Ш., Шамеутдинов Ш., Ватан тарихи, 359-б.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.- Т.: Шарк, 2001. 176-б..

<sup>2</sup> .Темур тузуклари, 14-15-бб.

qadrladim...xizmatlaridan foydalandim; **Oltinchi toifa**-aqli, tajribali, eng ishonchli kishilarki, saltanat ishlarini, sirlarini ularga ochishga va kengash qilishga loyiq kishilar edi. Bular bilan sirdoshlik qilib, yashirin ishlarni bajardim va maxfiy sirlarni shularga topshirdim; **Yettin toifa**-vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiy(mirzo)lari ki, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim; **Sakkizinchi toifa**-hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muxandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir; **To'qqinchi toifa**-o'tmishni va hozirgi tariximizni yorituvchi istehdodli muharrir-tarixnavislar hamda badiiy ijodkorlardir; **O'ninchi toifa**-mashoyixlar, so'filar, xudojo'y oriflardir; **O'n birinchi toifa**-kasbu hunar egalaridir; **O'n ikkinchi toifa**-el-yurt oralab yuruvchi xabarchilar, jahongashta sayohatchilar, savdogarlar va boshqa turli sinf(hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar)vakillaridir"<sup>1</sup>. Demak, Amir Temur o'z davlatini boshqarishda barcha ijtimoiy tabaqalarga tayangan.

Oliy hukmdor o'z davlatini boshqarishda va har bir ishni boshlashdan oldin o'z fikrining to'g'riligiga qat'iy ishonch hosil qilish va undan mukammal xulosa chiqarish maqsadida kengashdan foydalangan. To'g'ri, Amir Temur o'z davlatini boshqarish usulida qattiqqo'llik va yakka hukmdorlikka ham intiladi. Bunda u 12 tamoyilga asoslangan. Lekin bu tamoyilda ba'zan boshqalarning so'zi va maslahatini ham inkor etmaydi. (Bu yettinchi tamoyilda aks etadi.) Chunonchi: "o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olganligim uchun to'la mustaqillik bilan saltanat taxtiga o'tirdim.O'z tajribamdan sinab bildimki, agar qay bir podshoh quyidagi o'n ikki narsaga ega bo'lmas ekan, saltanatdan bebahra qolur.

**Birinchi**dan, o'z so'ziga ega bo'lsin, ishini o'zi bilib qilsin... hych kim bunga aralasha olmaydi, deb bilsin... podshoh saltanat martabasiga sherik bo'lgudek qilib birovning gapiga va ishiga ergashmasin... boshqalar saltanat ishlarida podshohga sherik, yoxud ustun bo'lmasliklari shart; **Ikkinchi**dan, sulton har narsada adolatpesha bo'lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlarni saqlasin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agarda vazir zolim bo'lsa, ko'p o'tmay saltanat uyi qulaydi; **Uchinchi**dan, butun mamlakatda buyruq farmon berish ishlari podshohning o'z ixtiyorida bo'lishi lozim. Podshoh har ishda o'zi hukm chiqarsin, toki hych kim uning hukmiga aralashib, o'zgartira olmasin; **To'rtinchi**dan, podshoh o'z qarorida qat'iy bo'lsin, ya'ni har qanday ishni qilishga qasd qilar ekan, to bitirmaguncha undan qo'l tortmasin; **Beshinchi**dan, podshoh

---

<sup>1</sup> .Темур тузуклари, 63-67-бб.

hukmi joriy etilishi darkor, ya'ni qanday hukm chiqarishdan qat'iy nazar, amalga oshirilishi kerak... unga monelik qilinmasin; **Oltinchidan**, podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib, erkni unga berib qo'ymasinkim, uning xushtori ko'p, ya'ni o'zganing nafsi tez orada podshoh bo'lishni tilab, saltanat taxtini o'zi egallashga kirishadi;

**Yettinchidan**, saltanat ishlarida har kimning so'zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatsin; **Sakkizinchidan**, saltanat ishlaridagi sipohu raiyatga bog'liq masalalarda boshqalarning so'z va fe'liga qarab amal qilmasin. Vazirlar, amirlar biron kimsa haqida yaxshi-yomon so'z qilar ekanlar, eshitsin. Lekin uni amalga oshirishda butun haqiqat ayon bo'lmaguncha shoshmay, mulohaza bilan ish tutsin;

**To'qqizinchisi**, podshoh haybati sipohu raiyat ko'nglida shunday o'rnashgan bo'lishi kerakki, uning amr-farmoniga hyech kim qarshilik qilishga jur'at etolmasin; itoat va tobe'lik qilib, isyon ko'tarmasin; **O'ninchisi**, (podsho) nima qilsa, o'z erkicha qilsin... chunki podshohlarning hukm hurmatidan boshqa bahramandliklari yo'qdir. Xazina, lashkar, raiyat, saltanat-bularning barisi uning hukmi bilandir; **O'n birinchisi**, saltanatda hukm yurgizishda podshoh o'zini yagona bilib, hyech kimni o'ziga sherik qilmasin; **O'n ikkinchisi**, (podshoh) majlis ahlidan ogoh va hushyor bo'lsin kim, ular (orasida) ko'pincha ayb axtarib, uni tashqariga tashiydilar. Podshohning so'zidan, ishidan vazirlarga, amirlarga xabar berib turadilar"<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlardan anglashadiki, Temur saltanatda asosan yakka hukmdorlik qilishning tarafdori bo'lgan. Bir so'zli, qat'iyatli, qattiqqo'l va baquvvat, kuchli kishilargina davlatini, hukmdorlik- ni uzoq davr boshqara olishi mumkin deb bilgan. Bunday tushuncha unda real hayotiy tajribalari va o'sha davr tuzumiga xos bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot qonunlari va tarixiy-manbalar, an'anaviy udumlarda aks etgan real ma'lumotlar asosida yuzaga kelgandir. Shu kabi u ko'pgina misollarga dunyoviy va diniy qonunlar nuqtai nazardan ham yondoshgan. Ammo maslahat (qurultoy)-yig'inlarda harholda ushbu shaxsiy fikrlarni tasdiqlash bilan birga, u ba'zi bir tadbirlarda o'z fikrini qo'shimchalar bilan rivojlantirishga yoki o'zgartirishga xam qarshilik qilmagan. Shu kabi u kengashda aytilgan fikrlarga quloq solish foydalidir, lekin xulosani hukmdorning o'zi chiqarishi shart deb bilgan (bu yuqoridagi yettinchi tadbirda ham o'z aksini topgan). Yoki hukmdor hamma ishda adolat bo'lishi uchun to'g'ri xulosa va hukm chiqarishda unga yaqin

---

<sup>1</sup> .Темур тузуклари, 63-67-бб ( 1996 йилги нашрда 68-69-бб.)

bo'lgan saroy va shariat ahli, ayniqsa, vazirlar adolatli, insofli, qat'iy fikr bildiradigan bo'lishi lozim deb qaragan (bu yuqorida qayd etilgan ikkinchi tadbirda ham o'z aksini topgan)

Demak, oliy hukmdor ba'zi sohalarda o'z fikrining ijrosida ham fikr bildirishni, o'zgartishlar kiritishni istagan. Bu jihatdan, Temurning davlat boshqaruvida maslahatchilarning fikriga ham e'tibor berish mumkinligini, ya'ni hukmdorning davlat siyosatida ham maslahatli ish tutishi mumkinligi yaqqol seziladi. Ayniqsa, Temurning ichki va tashqi siyosatda asosan harbiy kuchga suyanganligi tufayli bo'lsa kerak, qo'shin tarkibidagi boshliqlarni tayinlashda ko'pchilik fikrini ma'qullashini o'qiymiz. Masalan, “qachonki, asl sipohlarda ish ko'rgan, jangu jadal bilan suyagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqizta- sining roziligi va ma'qullashi bilan, uni o'zlariga boshchi saylab, otini o'nboshi deb atasinlar”<sup>1</sup> Bu qoida bosqichma-bosqich yuqori darajadagi harbiy lavozimlargacha qo'llanilgan va harbiylarni asta-sekin amirlik darajasigacha ko'tarilish imkonini bergan.

Oliy hukmdor Amir Temur davlat va shariat qonunlarini tiklash uchun qattiqqo'llik, majburiylik usuliga qat'iy rioya etgan. U davlat qonun qoidalariga amal qilmagan yoki uning tartiblarini buzgan arboblarni oliy jazoga tortishgacha hukm chiqargan. Xatto, bu usulni bosib olgan davlatlar doirasida ham qo'llagan. Masalan, “Isfahonni zabt etdim. Isfahon aholisiga ishonch bildirib, qal'asini o'zlarining qo'lga topshirdim. Ular bo'lsa isyon ko'tarib, men tayinlagan dorug'ani (hokimni), askarlarimdan uch ming odam bilan birga tig'dan o'tkazdilar. Men ham Isfahon aholisini qatliom (yoppasiga qatl qilish) haqida buyruq berdim”<sup>2</sup>. “Hammani qo'rquvda va umid orasida saqladim, har bir mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim”, deb yozadi tuzuklarida. Yoki “obro' e'tiborli kishilarni aziz tutdim... ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga vazifalar berib maoshlarini belgiladim... Nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlarni topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim”<sup>3</sup> kabi fikrlarni yozgan.

Xullas. Temur davlatining birligini, tinchligini ta'minlash va o'z hukmronligini mustahkamlash uchun tajribada sinalgan usullardan

---

<sup>1</sup> . Темур тузуклари, 69-б.

<sup>2</sup> .Темур тузуклари, 43-б.

<sup>3</sup> .Темур тузуклари, 94-б



(mashhur davlatchilik tizimidan, jumladan, harbiy sarkardalar faoliyatidan) ijodiy tarzda foydalangan. Masalan, mo'g'ul xonlaridan Kebek hukmronligi davrida joriy etilgan harbiy-ma'muriy bo'linishni, asosan saqlab qolgan. Shu bilan birgalikda ba'zi bir harbiy islohotlar ham o'tkazgan....

### ***10.Sohibqiron davlatining qo'shin tarkibi va harbiy boshqaruv uslubi***

Zamonasining buyuk sarkardasi, eng mohir lashkarboshi, harbiy ta'lim egasi hisoblangan Amir Temur o'z mamlakatining ichki va tashqi siyosati, harbiy kuchning qudrati, nufuziga ancha ko'p e'tibor bergan. Chunki u mamlakatning tashqi va ichki ziddiyatlarini o'z vaqtida, tezlik bilan yo'qotishga hamda har qanday sharoitda dushman kuchlariga bardosh bera oladigan, hujumkor, jasur va zamonaviy harbiy aslahaga ega qo'shin (armiya)gina qudratli davlatga hukmronlik qilishga qodir va uni asosiy tayanch deb bilgan. Shu bois u Movarounnahr hukmroni bo'lgan kundanog, mamlakat aholisi parokanda va xonavayron bo'lib, harobalarga aylangan shaharlarni hamda davlat va shariat qonun-qoidalarini tiklashga kirishishi bilan bir qatorda harbiy islohotlarga ham alohida ahamiyat beradi. Ayniqsa, u harbiy sohada ba'zi bir islohlarni qilishda dastavval qo'shin uchun zarur bo'lgan qurol-aslahalar turlarini ko'paytirish, yangilash, ularni alohida-alohida qismlarga ajratish, sonini, vazifalarini belgilash, umumiy sonini ham aniqlash shunga binoan janglarda harbiy jihatdan sinalgan, qo'shin boshliqlarini tanlab tayinlash, tajribaga ega bo'lgan sarbozlarga tayanib, yangi kelib qo'shilgan askarlarni harbiy o'quv mashg'ulotlari orqali tayyorgarlikdan o'tkazish, umuman, harbiylarni jangovarlik ruhida tarbiyalash va harbiy intizom qonun-qoidalariga qat'iy rioya etish kabilarga jiddiy e'tibor beradi.

Bular haqida "Temur tuzuklari" va Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari va boshqa tarixiy manbalarda<sup>1</sup> quyidagi ma'lumotlarni kuzatish mumkin. Qo'shinning tarkibiy qismlari tuzilishini belgilashda o'ntalik askariy bo'linmalar asosida lashkarlarni tuzadi. Buning uchun **ayl** (daha) – o'nlik; **xushun**(sada) - yuzlik; **hazora**-minglik, **tuman**-o'n minglik va ularni boshqargan harbiy boshliqlarni **ayrboshi**-o'nboshi; **xushunboshi**-yuzboshi; **mirihazora**-mingboshi; **tuman og'asi**-o'n ming boshi tarzida nomlangan.

---

<sup>1</sup> . "Temur tuzuklari".-T. Fafur Fulom, 1991.(A.Sofunij va X. Karomatov tarjimasi. -T.1996.); Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.-T.1972.; Salohiddin Toshkandiy ("Jangnoma Amir Temur Kuragony"-1908) "Temurnoma".-T.: Chulpon, 1991.

**Tuman og'asi lashkar boshlig'i**, ya'ni **o'nta** yoki shunga yaqin **hazorani boshqargan**. **Mirihazora 10 ta** yoki 10 ga yaqin **xushunni boshqargan**. **Xushun boshi** esa **10 ta** yoki 10 ga yaqin **aylni boshqargan**. **Ayrboshi 10 kishidan tashkil topgan eng kichiq harbiy bo'linmani boshqargan**. Demak, Ammr Temur **lashkarlari 4 qismdan tashkil topgan**. Har bir qismda yuqoridagidek askar soni belgilangan. **Qo'shin (armiya) tarkibi esa yuz ming yoki yuz mingdan ortiq tumanlardan tashkil topgan** bo'lib, u bevosita Amir Temur tomonidan boshqarilgan. Agar qo'shin jang sharoitida qo'llansa **Amir Temur bosh qo'mondon** sifatida, qo'shinni bir necha bo'laklarga bo'lib, o'ziga ishonchli **lashkar boshliqlari** ixtiyoriga topshirgan. Lashkar boshliqlari esa bevosita qo'shinbosh qo'mondoni (ko'shin boshlig'i Amir Temur)ga bo'ysungan holda harakatda bo'lgan. Shu kabi jang jarayonida qo'shin qism va bo'linmalar ichidan saralangan askarlardan tuzilgan **7 ta qo'l** harbiy qismlar tashkil etilgan. Masalan, Markaziy o'rta qism, **javongar (yoki maysara)**-so'l qanot qismi; **maymana yoki barong'or (bulchung'or)**-o'ng kanot kismi, manglay (avangor) - qanot avangardi; old qismida boruvchilar, **kanobu** - qanotning yon tomonidagi qo'riqchi qism; **manglay**- asosiy zarbdor (avangard) kuch sanalib, hatto u bir necha tumanlardan iborat bo'lgan. Bunday paytda manglay bilan o'ng va so'l ko'shinlar va markaz oralig'ida qo'mondonning qarorgohi, uning yon tomonlari-da esa **zohira (rezerv)** qismlar joylashgan. Jang boshlanishida **kuyurchilar**-qo'shindan ancha oldida yuruvchi yo'l kuzatuvchilar (razvedkachilar )dan foydalanilgan. Ular bosh qo'mondon (Temur) tomonidan qismlarga maxsus taqsimlangan.

Umuman, ushbu **7ta qo'l** (qism) Amir Temur tomonidan tanlangan bo'lib, shundan **uchtasi (markaz, barong'or, javang'or) sharoitga qarab mustaqil harakat qilishi mumkin bo'lgan**. Ayniqsa markaz qismdan ko'ra qanotlar faol harakatda bo'lishi ko'zda tutiladi. Bundan tashqari **g'uluv** - chegara qo'riqchisi; **yazon** - tungi qo'riqchilar; **qorovul, yasovul**-ichki soqchilar, qorovullar; dushman ichiga yuboriladigan agent, josus; **qadargir**-o'q otuvchilar, to'pchilar guruhlari ham bo'lgan.

Umuman, Amir Temur o'zining harbiy qobiliyatini ishga solib, qo'shin tarkibini tuzib, tartib bilan o'rinlarini hamda vazifalarini belgilagan edi. Jumladan, o'sha davrning mashhur tarixnavisi Sharofuddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida yozishicha, qo'shin tarkibini yettita asosiy qismga bo'lish va ular o'rnini belgilab berish, tartib bilan joylashtirish Amir Temur tomonidan joriy etilgan.

Qo'shin turida **piyoda askarlar** va **otliq suvoriylar** bilan birlikda maxsus qurollarni ishga soladigan guruhlar ham bo'lgan. Masalan, **randandoz, naftandoz** - yondiruvchi o'totar qurollar; **sangandoz** - tosh otadigan qurollar; **manjaniq** – qal'a devorlarini buzuvchi qurollar va **o'ziotar qurollar** bilan qurollangan jangchilar guruhi ham<sup>1</sup> mavjud bo'lgan.

Buyuk sarkarda va mohir davlat boshlig'i Amir Temur o'z faoliyatining dastlabki yillarida o'ziga yaqin deb ishongan 40ta urug' qabilalar orasidan 313 nafarcha ishbilarmonligi bilan ishonch qozongan obro'-e'tiborli kishilarga yuqori darajali harbiy unvonlar berish bilan birgalikda, davlat muassasalarini boshqarish mansablarini ham bergan edi. Masalan, **birinchi darajali unvon va mansablardan** 1 nafar safdoshiga **amir-ul umaro**, 4 nafariga **beklarbegi**, 100 nafariga **mingboshi**, shunchasiga **yuzboshi** va **o'nboshi** kabi unvonlarini bergan. Shu kabi Amir Temur o'zi bilan xamisha birga yurgan safdoshlaridan yana 12 kishiga birinchi darajali amirlikdan to 12-darajali amirlik unvonlarini bergan. 12-darajali unvon **amir-ul umaroning** noibi sanaladi. Odatda harbiy qo'shinlarga mansabi va unvoniga qarab **bayroq, nog'ora, tug', chortug' va burg'u** (karnay) kabi anjomlar va ularni **boshqaradigan askariy bo'linmalar** ajratilib berilgan. Masalan har bir amirga 1 tadan bayroq va nog'ora, 10 minglik qo'shinga tug' va chortug', beklarboshining har biriga 1 tadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u berilgan. Shu kabi qo'shin boshlig'i amir-ul umaro va beklarbegi katta qizil bayrog'i, tuman og'asi ot yoli bog'langan uzun dastali nayza-tug'; yuzboshi zarhal yoki ipak kokillar (ikki tomoniga osilib turgan po'paklar) bilan bezatilgan 2 ta dul nog'orasi bilan o'zaro farqlanib turishgan.

Otliq qismlarda jang boshlanishi jarayonida suvoriylarni mahorabaga solish uchun maxsus **suvoriy dovulchilar** ajratilib, ularga ikkitadan dul nog'ora dovullari berilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, Amir Temur jang paytida yoki jang maydonida o'zini himoyalash uchun ham ba'zi bir tadbirlarni bajarishga ulgurgan. Masalan, urush paytida o'rdugoh jang maydonida yoki dushmanga yaqin joyda joylashganda tezlik bilan uning atrofi mudofaa chiziqlari, ya'ni chuqur qilib o'yilar (bular **xandak, chorpar, kochimarza** nomlari bilan atalgan) va turli tuman materiallar bilan to'r shaklida o'rab olingan. Jumladan, qo'shinning izofa qismi urush jarayonida zarur bo'lib qolganda jang

---

<sup>1</sup> Шарафуддин Али Яздий. “Зафарнома”асарида Темурнинг харбий бошқарув тизими хақида кўп фикрлар бор.

maydoniga o'tlanishi bilan birgalikda bosh qo'mondon o'rdagohini ham ko'riqlagan. Qo'shinning izofa qismlari hamisha hushyor va jangovar ruhda turgan eng tajribali va dovyurak, dushmani tahlikaga sola oladigan, g'alabani ta'minlaydigan saralangan askarlar hisoblanadi. Temurning eng kuchli jangovar gvardiyasini tashkil qildirdi.

Umuman, mohir sarkarda Amir Temur o'z askarlari tarkibiga alohida e'tibor berib, ularni zamonasining eng jangovar armiyasiga aylantirishga harakat qilgan va bunga erishgan ham. U har bir askardan, ayniqsa, boshliqlaridan harbiy uslublar (taktika)ni egallagan, zarur bo'lgan paytda g'alaba uchun mustaqil harakat qila oladigan, jang maydonida harbiy qasamyodga sodiq, navkarlik nizomiga qat'iy rioya eta oladigan, dushmanga ayovsiz, shuningdek, omonlik istagan raqiblarga yumshoq muomalada, adolatli, kechirimli bo'la oladigan xususiyatlarni talab etgan, dushman haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasdan turib jangga kirmaslik uchun maxsus **xabargir** (dushman orasida yuborilgan ayg'oqchi, kuzatuvchi, ya'ni rezdent, agent) hamda **yasovul** (qo'shinning oldingi kismlarida yuruvchi, dushmanning oldingi qismidan xabardor bo'lish uchun jo'natilgan razvedkachilar va dushman orasida yurgan ayg'oqchilar bilan aloqa bog'laydigan soqchilar) bo'limlaridan va ularning ishonchli ma'lumotlariga tayanishni talab qilgan.

Xullas, Amir Temur o'z davrida har tomonlama pishiq va rivojlangan harbiy uslubga ega bo'lgan qudratli qo'shinni tuza olgan mashhur harbiy qumondon sifatida jahonga tanilgan. Uning harbiy san'ati va davlatni boshqarish tartibi haqidagi fikrlari so'nggi asrlarda ham o'z qiymatiga ega bo'lgan. Shuning uchun ham uning harbiy mahoratiga jahonga mashhur bo'lgan ko'pgina qo'mondonlar, ayniqsa, Yevropa davlatlari yuksak baho berishgan.

Manbalarda yozishlaricha, Napoleon "Temur tuzuklari"ga katta e'tibor bergan va bu asar uning javonida alohida o'rin egallagan ekan. Ingliz qirolichasi "Temur haqida" gi sahna asari bilan mavsumiy sahna ko'riklarini boshlar ekan. Demak, buyuk bobomiz Amir Temur jahonda mashhur siymolardan biri bo'lgan. Uning "Temur tuzuklari" davlatni boshqarish tartiblari va harbiy sohadagi uslublari (taktikasi), harbiy san'at sirlari bayon etilgan noyob asar sanalgan.

## ***11. Jahongir sarkardaning harbiy yurishlari va qudratli markazlashgan turkiy-o'zbek davlatiga asos solishi***

Ma'lumki, mohir sarkarda Amir Temur Movarounnahrda bo'linib ketgan kichik-kichik bebosh davlatlarni birlashtirib, kudratli yagona markazlashgan davlatni tuzish va uning shon-shuhratini oshirish uchun dastavval zamonaviy harbiy va baquvvat iqtisodiy-ma'naviy barkamollikni yuzaga keltirish tadbirlarini ko'rdi. Bu yo'lda anchagina islohotlar qildi, davlat boshqaruvida harbiy sohaning tizimlarini ishlab chiqib, uni o'z tajribasida sinab ko'rdi. Harholda zamonasining ilg'or uslubidagi yaxshi qurollangan ko'p sonli muntazam qo'shin tuzdi. Shundan so'ng o'z maqsad va rejalarini asta-sekin amalga oshira bordi. Uning maqsad va rejalarining amalga oshuvini ikki bosqichga bo'lish mumkin.

**Birinchi bosqich.** Temurning Movarounnahrda markazlashgan davlatni vujudga keltirish uchun kurashlari bo'lib, bu 1360-1386 yillar tarixiy voqyealarini o'z ichiga oladi. Ushbu davrda nafaqat o'zbek xalqi, balki O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotida o'chmas tarixiy iz qoldirdi. Bu quyidagilar bilan belgilanadi: a) bir yarim asrlik mo'g'ullar hukmronligi tamoman yemirilib, yo'q qilindi; b) feodal tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlat tuzildi; v) mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti, ya'ni iqtisodiy turmushi, ma'naviy agrar xo'jalik va shaharsozlik qurilishi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo va ma'rifiy, ilm-fan sohalari asta-sekin izga tushib rivojlana boshladi.

**Ikkinchi bosqich.** a) Temurning say'-harakatlari mamlakat sarhadlarini mustahkamlash, kengaytirish, ya'ni chegara qismlarini markazdan yiroqlashtirish, dushman hujumini chegaradan tashqarida kutib olib, o'z mamlakati hududida qon to'kilishini, balki elining tinchligi-osoyishtaligini buzmaslik; b) jahongirlik maqsadlarini amalga oshirish; v) umuman, mamlakat shon-shuhratini yanada oshirishga qaratilgan edi. Bu davr 1386-1402 yillarni o'z ichiga olgan edi.

Ma'lumki, 1383 yilda Amir Temur Seyiston, Balujistonni zabt etib, Eronning janubiy va shimoliy-g'arbiy viloyatlariga tomon siljigan edi. Bu hududlar ikki hukmronlikda bo'lib, janubiy fors, ya'ni Isfahonda muzaffariylardan Shohshujo (1378-y.) hukmronlik qilardi. Iroq va Ozarboyjonda esa jaloyirlardan Sulton Mahmud hukmronlik qilar edi. Fors hukmdori Shohshujo o'z ixtiyori bilan urushsiz taslim bo'lib,

Temurning nabirasi Jahongir Mirzoning o'g'li Pirmuhammadga qizini berib, mustahkam sulh tuzishga moyassar bo'ldi.

Sulton Ahmad esa taslim bo'lmay, kurd va ozarboyjonlardan tuzilgan askarlari bilan Temurga qarshi chiqadi. Ammo temuriylarning kuchli sipohlariga teng kela olmay mag'lub bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur Kavkazga - Naxichevan, Shirvon, Gilon va Armaniston viloyatlarining yerlarini birin-ketin g'olibona zabt eta bordi. Bu davrdagi jang-jadallar tarixda sohibqironning **uch yillik yurishlari** (1386-1388 yy.) deb nomlandi.

Sohibqiron 1392 yildan boshlab Astrobod, Mozandaron so'ng Eronning tog'li hududidagi asosiy shaharlardan biri Omulinni, shu kabi Luriston va Xuziston kabi bir qancha yerlarni zabt etadi. 1397 yilda esa Ozarboyjon hududini batamom bosib olib, taslim bo'lmaganlarga qaqshatqich zarba berib, ularni butunlay yakson etadi. Jahongirning bu davrlardagi urushlari tarixda **besht yillik yurishlari** (1392-1397 yy.) deb nomlanadi.

Jahongir Temur 1398 yilning bahoridan boshlab 90 mingli qo'shin bilan Hindistonga yurish qildi. Dastavval Qobul va Mo'liton shaharlarini so'ng Dehlini zabt etadi. Dehli shahri uchun bo'lgan kurash eng og'ir va shiddatli janglardan hisoblangan. Chunki bu jangda Dehli hukmdori Sulton Mahmud dushmanga qarshi dahshatli, o'rgatilgan fillardan foydalangan edi. Ammo jang jarayonida tashabbuskorlik va tadbirkorlikni vujudga keltira oladigan temuriy lashkarlari katta-katta taxtalarga o'tkir mixlar qoqib fil oyog'i ostiga tashladi. Hamda ot-aravalarga qurigan o'tin, shox-butalar ortib, unga olov yoqib fillarga qarshi yo'lladilar va bu bilan dushman fillari va qo'shinlarini qo'rqitib, sarosimaga soldilar. Dushman fillariga qarshi maxsus askariy qismlar ham ishga solindi. Natijada, dushman safi buzildi, sarosimaga tushgan raqib askarlari va ularning fillaridan ko'pchiligi yo'q qilindi. Qolganlari ko'rquvdan ortiga qaytib, qochib ketayotganda o'z egalarini toptab, ularni oyoq ostiga olishdi. 1398 yil dekabrining boshida boshlagan bu jang 15 dekabrda asosan tugadi. Temurning 15 ming askari bilan Dehliga g'olibona kirib borishiga yo'l ochdi.

Mohir sarkarda Temur 1400 yildan boshlab G'arbiy Osiyoga-Suriyaga yurish qilib, Xalab (Aleppo), Bayrut va 1401 yilda Damashq viloyatlarini zabt etdi. Xuddi shu davrda Kichiq Osiyoda ikki jahongir manfaatlari bir-biriga to'qnash kelgan edi. Jumladan, o'z zamonasida xarbiy qudrati jihatidan eng yuksak darajada sanalgan jahongirlardan biri sohibqiron Amir Temur G'arbga tomon shiddat bilan bostirib

kelayotgan edi. Ikkinchisi esa harbiy kudrati ancha yuksak darajada bo'lgan, Bolqon yarim oroli davlatlari va butun Yevropaga tahdid solib, bu mintaqalar uchun havfli dushman sanalgan Usmonli turk davlatining hukmdori jahongir Yildirim Boyazid edi. Bu ikki jahongir harbiy qo'shinlari kuch-kudrati, son-sifati jihatidan ham, kurol-aslaha va ko'shin tarkibidagi tadbirkorlik, shijoatkorlik, shiddatli hujumkorlik taktikasi, strategiyasi nuqtai nazardan ham bir-biridan qolishmas edi. Hatto, o'sha davrlarda bir-biriga raqib sanalgan kichik-kichik kuchlar (davlatlar) va uning boshliqlari panoh izlab, ularning qo'l ostiga jamlanmoqda edilar.

Masalan, Amir Temurdan yengilib, Turkmaniston va Xorazm hududlaridan qochib kutulgan isyonkor Oqquyunli, Qorakuyunli guruhlarining boshliqlari kabi bir qancha sohibqironga dushman-qochoqlar Sulton Boyazid saroyidan panoh topgan edilar. Shu kabi Boyaziddan yengilgan kichik Osiyodagi mayda sultonliklarning hukmdorlari va Bolqon, Yevropa davlatlari vakillari o'zlariga panoh yoki najot istab Temurga murojaat bilan uning Qorabog'dagi o'rdasiga kelishgan edilar.

Bu ikki jahongirlar bir-biri bilan o'z maqsadlari yo'lida ochiqchasiga bir bitimga kelishuvga intilgan bo'lsalar-da, yashirin tarzda bir-birlariga raqib sifatida ish ko'rar edilar. Chunki, ular o'rtasida kelishishga halaqit beruvchi sabablar ancha ko'p edi. Sulton Boyazid Amir Temur tomonidan qo'yilgan bir qancha shartlarga rozi bo'lmagan edi. Xuddi ana shunday teng raqiblardan o'zlariga manfaatdor tomondan Bolqon va Yevropa mamlakat hukmdorlari foydalanishga harakat qilmoqda edilar. Jumladan, Vizantiya va Galatiyadagi Genuya hokimining noiblari, Fransiya qiroli va Sultoniya shahrining katolik missionerlari birinchi bo'lib Temurdan madad so'rab qolishdi. Ular urush paytida Temurga madad kuchi (masalan, Konstantinopol va Teraning Turkiya Sultoni Boyazidga to'lanadigan bojni) berishga bitim tuzishdi.

O'z davlati uchun foydali va qulay bo'lgan bunday takliflarga Temur rozi bo'ldi. Bunday foydali munosabatlar Angliya, Ispaniya kabi bir qancha Yevropa mamlakatlari bilan amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, 1396 yil 25 sentyabrida Nikolop ostonasida Yevropa mamlakatlarning birlashgan 40 minglik saralangan risarlaridan tuzilgan salibchilar yurishini tor-mor etib, ularning 10 mingga yaqinini asir olgan Sulton Boyazid, butun Yevropani vahimaga solib ko'yg'an edi. Shuning uchun ham ular Temur bilan ittifoq tuzishga intildilar. Bu ittifoq Temur

uchun ancha manfaatli ko'rindi. Sul-ton Boyazid o'z saroyidagi qochoq-dushmanlarni Temurga topshirishdan bo'yin tovlagach, bu ikki jahongir o'rtasida o'zaro urushlarning boshlanishi uchun muqarrar sabablardan biri bo'ldi.

Nihoyat 1402 yilning 28 iyulida Turkiyaning Anqara shahri yaqinida jang boshlandi. Bu jangga har ikkala tomondan 200 mingdan askar jalb etildi. Jami 400 minglik jangchi qatnashgan bu qonli to'knashuv tarixda **Anqara jangi** nomi bilan qoldi. Bu tarixiy jangda Temur g'olib keldi. Ushbu urushda Temurning haqiqiy jahongirlik, buyuk sarkardalik qobiliyati va harbiy mahorati har tomonlama to'liq namoyon bo'ldi. U butun Kichik Osiyo yarim orolini zabt etdi. Sul-ton Boyazid va uning xotini-serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiyalar asir olindi. Turkiyaning O'rta yer dengizi sohilidagi Izmir shahri, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollarida Genuya mulki, hatto, Misr hukmronligi ham so'zsiz (urushsiz) itoatkor bo'lishdi. Bu g'alaba tufayli Yevropa ulkan xavfdan qutildi.

Buyuk jahongir Temurdan endigina uyg'onayotgan Yevropa minnatdor bo'ldi. Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV, Vizantiya va boshqa davlatlardan buyuk g'alaba bilan qutlab Temur nomiga tabriknomalar keldi. Ushbu o'rinda shuni qayd etish lozimki, sohibqiron Temur Usmonli turklar davlatini butunlay yo'q qilib yuborish niyatida bo'lmagan. U bundan deyarli manfaat ham ko'rmagan. Balki, hukmdorning kaysarligi, xudbinligi va balandparvozliligini yo'qotish va yagona jahongirlikni istagan, xolos. Shuning uchun ham urushdan so'ng Boyazid tutqunlikda qolsa-da, uning davlatini merosxo'r-o'g'illari (Sulaymon va Iso Chalabiy)ga qaytardi. Ularga Boyazid mamlakatining toji va hukmdorligini taqdim etdi.

Temurning **1399-1404 yillar davomida** olib borgan urushlari tarixda **Yetti yillik yurishlar** nomi bilan ataldi. U o'zining *35 yillik hukmronlik davrida Hindiston, Xitoydan Qora dengiziga qadar, Orol dengizidan Fors qo'ltig'igacha, Osiyoning janubiy qismi, Kichiq Osiyo, Suriya, Misr, shimoliy-g'arbda Quyi Volga, Don sohillari, shimoliy-sharqda Balxash, quyi Il daryosi bo'ylari kabi 27 davlatni qamrab olgan g'oyat katta hududlardan iborat buyuk saltanatni vujudga keltirdi.* U hatto, hayotining oxirgi yilida ham saltanatni yanada kengaytirishga harakat qilgan edi. U ham bo'lsa buyuk Xitoy davlatiga yurishni boshlash, uni zabt etish niyatida bo'ldi.

Shu maqsadda ikki yuzlik qo'shin bilan Xitoy sari otlangan ham edi. Ammo bu shonli yurish qish fasliga to'g'ri kelgan edi. Bu esa o'zining



salbiy ta'sirini ko'rsatdi, ya'ni qahraton qishning izg'irin sovug'i bu maqsadni amalga oshuviga halaqit berdi. Xitoyga yetar-yetmas, yo'lda ko'shin tarkibidagi askarlarning aksariyati izg'irin sovuq ta'sirida kasallikka chalinishdi. Hatto, ularning ancha qismi sovuqdan to'ng'ib halok bo'lishdi. Uzoq yillar davomida jang-jadallarda bo'lib, holdan toygan va yoshi ulg'ayib borgan tajribali bosh qo'mondon ham bu qahraton qish sovug'idan o'zini asrashga ojizlik qildi. U ham ushbu mashaqqatli yo'lda qattiq shamollab qoldi. Uning salomatligi kundankun Xitoyga yaqinlashgan sari yomonlasha bordi, natijada O'tror shahriga kelgach, to'shakka yotib koldi. Sohibqironning salomatligi kun sayin yomonlashganligi, hatto, uni orqaga ona yurtiga qaytishiga ham imkon bermadi.

Xullas, buyuk sarkarda va davlat arbobi, jahongir Amir Temurning Xitoyni zabt etish maqsadi amalga oshmadi. U 1405 yilning 18 fevralida O'tror hokimi Berdibekning saroyida bu foniylar dunyodan voz kechdi. Uning 35 yillik unutilmas tarixiy voqyealarga boy hukmronligi oxirgi manziliga yetdi. Ammo **buyuk va markazlashgan qudratli turkiy o'zbek davlatiga asos soldi**. Bu davlat o'z mavqeyi va salohiyati bilan jahonga mashhur bo'ldi. Buyuk davlatning asoschisi vafot etgan bo'lsa-da, u yaratgan saltanat o'z mavqeyi va siyosatini uzoq davrlargacha saqlab qolish imkoniyatiga qodir bo'ldi.

Buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda Amir Temur o'z vorislariga harbiy san'atni va davlatni boshqarish tartiblarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan singdira olgan edi. Masalan, uning o'g'illari va nabiralarning har biri jahongir saltanatini tayanch qanotlari bo'la oladigan darajada ulg'aygan edi. Bu davrda saltanat vorislariga madad bera oladigan Jahongirning Sayfiddin barlos, Pirmuhammad barlos, Oqbug'a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Qamariy, Tilbon Bahodir, Urisbug'a, Hamza Sulduz, Amir Murizoda, Muhammad Qazg'on, Sariq Atka, Muzaffar Uchqora kabi taniqli va tajribali sarhanglar (generallar) ta'limini olgan shuhratli qo'shin tarkibi ham mavjud edi. Shu kabi saltanatni boshqarish qonun-qoidalarini majmuasi, yo'l-yo'riqlari, dasturi "Temur tuzuklari" nomi bilan atalgan nazariy asosi-muqaddas qo'llanma ham yaratilgan edi. Bu kabi imkoniyatdan to'g'ri foydalanish esa temuriylar sulolasining uzoq yillargacha davom etishini ta'minlardi. Shunday ham bo'ldi.

Sevimli yozuvchimiz Primqul Qodirov ta'kidlaganidek, Temurning Sirdaryo bo'yida O'trorda 1405 yilning 18 fevralida va o'z "tuzuklari"da "...agar mening vasiyatimga amal qilib, adlu ehson bilan olamni obod

qilsangiz, ko'p yillar davlat va mamlakat sizlarda qolg'usidir" kabi oxirgi nasihatiga amal qilgan Shohruh Mirzo Sohibqirondan qolgan merosiy saltanatni yana qirq yildan ortiq muvaffaqiyat bilan boshqardi. Garchi, Amir Temur asos solgan va "Temur tuzuklari"da yoritilgan buyuk kashfiyot tarzidagi tadbirlarga tayanilgan sulola Sohibqirondan so'ng qisman parchlangan holda bo'lsa-da, Turon, Xuroson va Afg'oniston mintaqalarida bir yarim asr hukmlik qildi.

Buyuk saltanat sohibi Amir Temur tomonidan vujudga keltirilgan davlat va uning faoliyati haqiqatdan ham yangi bir kashfiyot bo'lgan edi. Bunday davlat tuzumi undan oldin hech bir mamlakatda aynan shu tarzda faoliyat ko'rsatmagan. Yangi tipdagi bu davlat zolimlardan mazlumlarni himoya qilganligi, adolatga asolanganligi va bunyodkorlik hamda ilmu ma'rifatning rivojiga katta ahamiyat bilan qaralishi va boshqa sohalarga alohida o'rin berilganligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Xusayn Boyqaro, Boburshoh, Akbarshoh, Shohjahon kabi temuriyzodalar faoliyatida ham davom etgan. Xususan, Bobur Mirzo Hindiston mintaqasidagi siyosiy-ijtimoiy hayotni yangilash, o'zgarish qilishda, davlat ishlarini boshqarish tizimini ishlab chiqishda-rivojlantirishda Temurning "Tuzuklari" dan foydalangan, ayniqsa, o'zining harbiy yurishlarida bobokaloni qo'llagan harbiy taktika va strategiyani amalda tadbiiq etib, katta g'alabalarga erishgan.

Umuman, Bobur Mirzo bobokaloni Amir Tumurning barcha sohadagi ishlaridan ijodiy foydalanib, uni Hindiston zaminida amalga tadbiiq etgan va temuriylar sulolasini yangi tarixiy bosqichga ko'targan edi. Bu buyuk sulola boburiylar tomonidan hind zaminida Bahodirshoh II davrigacha 332 yil hukm surdi. Alqisa, Bahodirshoh II o'z kundaliklarida buni faxrlanib qayd etgan va o'z sulolasini temuriylar sulolasining davomi sifatida bobokaloni buyuk Jahongir Temur asos solgan sulolaning(har ikkala sulola-temuriylar va bobiriylar hukronligi davrini qo'shgan holda) tarix sahifasida besh yuz yil faoliyat ko'rsatayotganini ta'kidlagan. Jumladan, unga atab yaratilgan besh qismli hind videofilmida ham Amir Temur salkam besh yuz yil tarix sahnasida faoliyat ko'rsatgan sulolaning asoschisi sifatida iftixor bilan tilga olinadi.

## ***12. Markazlashgan turkiy o'zbek davlatining bo'linishi***

Buyuk turkiy o'zbek davlatining asoschisi, saltanat sohibi Amir Temur vafoti markazlashgan hukmronlik mavqayeiga salbiy ta'sir etdi. Vorislar o'rtasida ba'zi bir xudbin shaxsiyatli shahzodalarning toj-taxt uchun talashib, o'zaro kelishmovchiliklari natijasida bu hukmronlik kuch-qudratini yo'qotib, parchalanib ketishga sabab bo'ldi.

Ma'lumki. Jahongir Amir Temur hayotligida Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz, Sultoniya, umuman, sobiq mo'g'ul xonlaridan Hulokuxon hukmronligida bo'lgan viloyatlar o'rtanchi o'g'li Mironshoh boshqaruvida (ixtiyoriga suyurg'ol qilib bergan) edi. To'ng'ich o'g'li Muxammad Jahongirga Balx viloyatini suyurg'ol qilgan edi. Shu kabi Jahongir Mirzoning o'g'li Pirmuhammadga Qandahor (Afg'oniston) viloyatining hokimligi berilib, uni Sohibqiron Temur o'z saltanatining asosiy vorisi, ya'ni valiahdi hisoblagan. Jahongir Mirzo vafotidan so'ng u hukmronlik qilgan Hindiston, Qobul, G'azna, Qandahor, Balx hududlarini uning o'g'li Pirmuhammad ixtiyoriga berildi. Kenja o'g'li Shoxruhga esa Xuroson, Jurjon, Mozandoron va Seyiston yerlari suyurg'ol qilindi.

Demak, Sohibqiron tirikligidayoq hukmronlik uchun vorislarning o'ziga qarashli yerlarini aniq belgilab bergan edi, hatto, saltanatning valiahdini ham tayinlangan edi. Ammo Amir Temur vafotidan so'ng Markaziy saltanatga bo'ysungan bu davlatlar va bir qancha kichik hokimliklarning ayrimlari bir-birlari bilan qarama-qarshi bo'lib, valiahd o'rniga, ya'ni saltanat toj-taxtiga ega bo'lishga harakat qiladilar. Bu kurashni Amir Temurning nabirasi Xalil Sulton boshlab yuboradi.

Sohibqironning suyukli nabirasi, toj-taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad Samarqandga yetib kelgunga qadar, Amir Temur vafot etgan kuniyoq Mironshohning 22 yoshli xudbin o'g'li Xalil Sulton mansabparastlik qilib, markaziy hokimiyat poytaxti Samarkandni qo'lga oladi va bobosining xazina-boyliklari hisobida saroy amaldorlarining ba'zilarini o'z tomoniga og'diriadi. Natijada Xalil Sulton Movarounnahrning hukmdori deb e'lon qilinadi. Ammo maslahatsiz va o'zboshimchalik bilan amalga oshirilgan bu tadbir ko'pchilik temuriy shahzodalar va sohibqironga sadoqat bilan xizmat qilgan hamda uning vasiyatlarini amalga oshirishga harakat qilgan amirlarning noroziligiga sabab bo'ladi, ularning g'azabini qo'zg'atadi. Oxir oqibatda Markazlashgan davlatning parchalanishiga olib keldi. Chunonchi, xuddi shu vaziyatni kutib turgan tobe mamlakat hukmronlari va barcha viloyat

hokimlari, xususan, temuriy shahzodalar o'zlarini mustaqil hisoblab, Markaziy saltanatga bo'yin egmay, hukmronlik uchun o'zaro kurashga otlandilar. Ularning o'n yildan ortiq davom etgan o'zaro feodal urushlari, qonli to'qnashuvlari tinch aholining, umuman, mamlakatning iqtisodiy-siyosiy ahvoriga ta'sir etdi.

Temuriy shahzodalar va bebosh amirlarning befoyda harakatlari xotima berish va mamlakatga osoyishtalik, saltanat muvozanatini tiklash uchun Sohibqironning keja o'g'li Shohrux qat'iy kurashga otlandi. Shohruxga ishonch bildirib ko'pchilik aholi unga ergashdi. Natijada, u 1420 yil oralig'ida ota merosi-ning asosiy hududlarini qo'lga olishga erishdi. Shunday qilib, asosan Temur saltanatining Xuroson va Movarounnahr hududlari hisobida Markaziy davlat yana tiklandi. Shohrux hukmronligida bo'lgan bu davlat aslida ikki qismga bo'lingan edi. Bu davlatning poytaxti Samarqand hisoblansa-da, aslida Shohrux saroyi Xurosonda Hirot shahrida bo'lib, Movarounnahrdan tashqaridagi hududlarni boshqargan. Samarqanddagi xon saroyi esa uning o'g'li Mirzo Ulug'bek ixtiyorida bo'lib, u butun Movarounnahr va Turkiston kabi hududlarni boshqargan edi. Lekin Mirzo Ulug'bek asosiy masalalarni otasi Shohrux maslahati, yo'l-yo'rig'i asosida hal etgan va uning itoatida bo'lgan. Shohrux vafotidan so'ng bu davlatlar to'liq mustaqil holda bo'linib ketdi.

Xullas, Amir Temur davlati asta-sekin bo'linib keta boshladi. Temuriylar sulolasi va uning davlati Movarounnahrda Ulug'bek saltanatidan so'ng, Xurosonda esa Husayn Boyqarodan so'ng inqirozga uchradi. Bu saltanatning davomi, qayd etganimizdek Hindiston mintaqasiga ko'chib, Boburiylar sulolasida bilan davom etdi va har ikkala sulola qo'shib hisoblansa besh yuz yilcha yashadi.

### ***13. Chingizxon va Temur avlodlari hamda sulolasining o'zaro munosabati***

So'nggi asrlarda buyuk "mo'g'ullar saltanati va sulolasi" degan nom bilan juda ko'p tarixiy-badiiy asarda chingiziylar va temuriylar avlodi haqida har xil fikrlar aytilgan<sup>1</sup>. Ularning aksariyati rus-yevropa sharqshunosligida yozilgan bo'lib, ularda Chingizxon va Amir Temur avlodlari, sulolasi tarixi birlashtirilib, buyuk mo'g'ul sulolasi tarixi sifatida talqin qilinadi. Ularda turk-mo'g'ul qavmi-Chingizxon va Amir Temur avlodlari haqida ancha chalkash fikrlar bayon etilgan bo'lib, e'tirozli, munozarali o'rinlar ko'p. Biz bu haqda qisman o'z fikr mulohazalarimizni tarixiy-badiiy asarlar asosida bayon etishni lozim topdik. Hozirgi davrda ko'plab manbalar qaytadan chop etilganligi bois ularni bir-biri bilan qiyoslab o'rganish imkoniyati bor.

Endilikda ushbu mavzudagi e'tirozli, munozarali yoki chalkash fikrlarga aniqlik kiritish mumkin. Buning uchun "Mo'g'ullarning yashirin tarixi"(1228 y), ya'ni qadimiy turkiy-uyg'ur yozuvida bitilgan manbalar, shu kabi islom ma'naviy madaniyati tarixiga oid yozma manbalar, Rashid ad-Din Fayzulloh ibn Imod az-Davla Hamadoniyning "Jomi' at-tavorix" (1247-1318 y) asari, Nizomiddin Shomiy, Hofiz Abru, Sharofiddin Ali Yazdiy, Fosih Ahmad Havofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Mirzo Ulug'bek va boshqalarning asarlari ishonchli manba bo'la oladi. Ularning asarlaridagi Amir Temur va Chingizxon avlodlari (shajarasi) haqidagi ma'lumotlar bir-biridan deyarli farqlanmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Bu ma'lumotlardan yagona xulosaga kelish qiyin emas. Masalan, diniy rivoyatlar asosidagi manbalarda Turk qavmlari hukmronligi (Turkxon-Abu Turk avlodlari)bu ikki sulola (Chigiziy va Temuriy sulolalari) dan avval mavjud bo'lgan. Ana shu Turkxon qavmining keyingi shajaralarida mo'g'ullar (chingiziylar) va temuriylar hukmronligi yuzaga kelgan. Demak, bu ikki sulola keyinchalik turk-mo'g'ul qavmlari sifatida davom etgan. Bu rivoyat haqida keyinroq yana o'z o'rni bilan to'xtalamiz.

---

\*. "Хун" манбаларда "хунн" шаклда ҳам ёзилган.

<sup>1</sup> . Абуший Х.А. Туркий қавмлар тарихи. –Т.: Чўлпон, 1993, 62-68-бб.;Гумилев Н. Хунну.-М.: 1960.; Насимхон Раҳмон. Турк ҳоконлиги.-Т.: Абдулла Қодирий, 1993,12-14-бб.; Маҳмудов Қ. Туркий ҳоконликлар.-Т.:“Тўрон тарихи”, тўплам, 1992. 30-б.; Ҳидояттов. Г.А. Менинг жонажон тарихим.–Т.: Ўқитувчи, 1992.12-14-бб.; Хўжаев А. Қадимги Хитой манбаларидаги туркий халқларга оид айрим этнонимлар.“Ўзбекистон ўрта асрларда:тарих ва маданият”.-Т.: 2003;Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. 1-киътоб. –Т.: Ўқитувчи, 1997.,118-124-бб.;Асқаров А. Ўзбек халқининг эногенези ва этник тарихи.-Т.:Университет, 2007, 198-205-бб.ва бошқалар.

Bu ikki qavm shajarasi haqida so'nggi davr olimlarining ilmiy-nazariy talqinlari ham mavjud. Shu munosabat bilan turk va mo'g'ul qavmlarining o'tmish davrlardagi tarixi haqida ham qisqacha fikr yuritishni lozim ko'rdik.

Turk-mo'g'ul qavmining miloddan avvalgi davrlarida Oltoy-Xun davrlari bo'lganligi haqida zamonamiz olimlarining ilmiy ishlarida ham har xil fikrlar bor. Masalan, Oltoy-Xun tillari bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan taniqli tilshunos olim N.A.Baskakovning ancha qiziqarli fikr-mulohazalari mavjud. Uning "Oltoy tillari oilasi va uning o'rganilishi" nomli kitobida bu sohada amalga oshirilgan ko'plab olimlarning fikrlari asosida bu oilasidagi o'tmishdagi tillarning taraqqiyotini 6 davrga bo'lib ko'rsatgan. Birinchisi-miloddan avvalgi oltoy davri, ya'ni turk, mo'g'ul, tungus-manjur va boshqa tillar guruhlari; ikkinchisi-Xun davri (milodiy V asrgacha); uchinchisi-qadimgi turk davri (VI-IX asrlar); to'rtinchisi-o'rta turk davri IX- XV asrlar); beshinchisi-yangi davr (XVI-XIX asrlar); oltinchisi-eng yangi davr (XX asr)<sup>1</sup>. Ushbu kitobning kirish qismida Oltoy tillar oilasi haqida aytilgan fikrlarga obzor berilib, bu tillar oilasi avval uch tarmoqqa bo'lib ko'rsatilgan: 1).Turk-mo'g'ul tarmog'i; 2).Tungus-manjur tarmog'i; 3).Yapon-koreys tarmog'i kabi. So'ng bu tarmoqlar yana guruhlarga ajratilgan. Masalan, turk-mo'g'ul tillari avval mustaqil **ikki til guruhga** ajralgan : a) **turk tillari** va **mo'g'ul tillariga** bo'lingan. Keyin **turk tillarining o'zi ikki qismga** bo'lingan: a).**G'arbiy xun**; b).**Sharqiy xun** kabi. **Mo'g'ul tilli** ham o'z navbatida **4 qismga bo'lingan**<sup>2</sup>. Ana shu bo'lingan tarmoqqa asoslanib xulosalasalak, bu davrlardan boshlab, aniqrog'i milodiy V asrdan turkiy va mo'g'ul tillari mustaqil alohida tillarga (elatlarga) ajralib ketgan. Bu davrlarda ham turkiy qavmlar saltanati ustun tarzda davom etgan, mo'g'ullar esa ular tarkibida (tobeligidagi) bo'lgan. Demak, bu ikki qavmning birlashgan ittifoqi bo'linib, mustaqil tarzda ajralishgan. Xuddi ana shu davrdan so'ng turklar va mo'g'ullar alohida qavm sifatida saltanat uchun kurashib kelishgan. Bu kurashda ma'lum davrlarga kelib, aniqrog'i 1204-1205 yillarda Chingizxon boshchiligida hokimiyat uchun qavm va qabilalar o'rtasidagi kurashlarda mo'g'ullar ustun kelishgan. Keyinroq esa Temur boshchiligidagi turkiy qavmlar ustun bo'lishgan....

Xo'sh, **Chingizxonning nasl-nasabi kim? va voyaga yetgan o'rni qayer bo'lgan?** Shu haqida ham qisqacha ma'lumot berish o'rinli bo'lsa

<sup>1</sup> .Баскаков Н.А.Алтайская семья языковиее изучение.-М.: Наука 1981.,стр. 109.

<sup>2</sup> .Баскаков Н.А. Кўрсатилган асар, 15-б.

kerak. Bu haqda Sh.Karimov, R. Shamsutdinovlar tomonidan berilgan quyidagi ma'lumotlar xarakterlidir<sup>1</sup>. Chunonchi, Chingizxon 1161 yilda Toli, Kerulen va Onon daryolari vohalarida ko'chmanchi turk-mo'g'ul chorvadorlari oilasida dunyoga kelgan. Unga Temuchin deb nom qo'yishgan. Uning ota-bobolari chorvador mo'g'ul qabilalarining boshliqlaridan biri bo'lgan. U ota-bobolaridan 13 yoshidayoq ajralgan. Tobe bo'lgan qabilalar Yosh Temuchinga itoat etmay tarqalib ketishgan. Faqat katta bobosidan qolgan oilalargina Temuchinga sodiqlik bilan xizmatda qolishgan. U shularga tayangan holda o'z mavqeyini tiklashga va otasiga tobe bo'lgan qabilalarni yana birlashtirib, saltanat sari intilgan. Dastlab, qabilalararo janglarda 13000 kishilik lashkari bo'lgan va g'alabalar jarayonida uning lashkarlari orta borgan. 1206-1208 yillarda birin-ketin katta mavqeyiga ega bo'lgan turk-mo'g'ul qabilalaridan **naymanlar, keroitlar, totorlar, o'ngg'utlar, uyg'urlar** hamda Enasoy havzasi, Yettisuv viloyatining shimoliy qismidagi qabilalar va boshqalarni ham tobe bo'lishga majbur qilgan. 1215 yilda Shimoliy xitoyning markazi Chjundu (Pekin)ni egallab, Szin sulolasini taxtdan ag'daradi. Shu tarzda uning istilochilik istiqboli rivojlana bordi.

Qisqasi, Temuchin 1205 yildan boshlab butun Mo'g'uliston hududlarining yagona hukmdoriga aylangan. 1206 yilda u o'zining davlati va hukmronligini qonunlashtirish maqsadida Onon daryosining yuqori qismida quriltoy chaqiradi. Qurultoyda unga Chingizxon laqabi beriladi.(Manbalarda ching-mo'g'ulcha "ching"-toza, mustahkam, quvvatli, qudratli, kuchli hoqon ma'nosini anglatganligi va "-iz" qismi esa -lar ma'nosidagi ko'plik qo'shimchasi deb izohlanadi.) Shu tariqa Temuchin kichik bir xonadondan Xitoy-Manjuriyadan Irtishgacha, Boykal (Baykal)dan Tong'utgacha bo'lgan hududlarga cho'zilgan dashti-sahrolarda ko'chib yuruvchi ko'p sonli jangari qabilalar saltanatining kuchli hukmdoriga aylangan. Bu saltanat kuch va qudrati bilan qo'shni davlatlarga qo'rquv va dahshatga sola boshlagan.

Saltanatni boshqarish, ijtimoiy va diniy, umuman barcha sohadagi foliyatlar 1206 yilgi quriltoyda qabul etilgan qattiq qo'llik va huquqiy jihatdan asoslangan "Yaso"qonuniga amal qilingan. Chingizxon saltanatining poytaxti Qoraqurum sanalgan. U davlat ishlaridagi yozma hujjatlarni olib borishda uyg'ur yozuvidan foydalanishni joriy etgan. Yozuv va o'qishdan bexabar bo'lgan xon bu borada uyg'urlar va musulmon savdogarlari xizmatidan keng foydalangan. Elchilikda ham asosan turkiy elat vakillaridan foydalangan. (Masalan, Mahmud

---

<sup>1</sup> . Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи биринчи китоб).-Т.: Ўқитувчи, 1997, 300-346-бб.

Yalavoch-al Xorazimiy, Aliakbar Xoja al-Buxoriy, Yusuf Kenja al-O'troriy va boshqalar Chingizxonning ishonchli elchilari bo'lishgan). Shu bois Chingizxonning davlat idora ishlarida va boshqa sohalarda uyg'ur va turkiy musulmonlarga ma'suliyatli ishlarni ishonib topshirgan. Jumladan, "Yaso"qonunida ham islom dini boshliqlari, qalandarlar, qorilar, darveshlar, so'filar kabilarni soliq to'lash, og'ir ishlardan va jamoat ishlaridan ozod qilinganishi qayd etilgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, Chingizxon avlodlari turk-mo'g'ul qavmlari tomiri bilan aralashib ketgandir. Chunonchi, Chingizxonning eng hurmatli va bosh xotinlaridan Qo'ng'iro't podshosining qizi Bo'rta Ko'chin, Nayman podshosining qizi Go'dari Suzun kabilar bo'lgan. Eng ma'suliyatli paytlarda elchilar sifatida ham turkiy qavmlardan foydalanilgan. Hatto, jang harakatlarida ham turkiy qavmlar Chingizxon lashkarlari safida qo'shib mustaqil harakatda bo'lishgan. Masalan, uyg'ur xoni Ediqut, Olmaliq hukmdori Sig'noqtakin va boshqalar shular jumlasidandir...

Chingizxon Xitoyni zabt etgach, Yapon, Sariq dengizlaridan Irtish daryosigacha, Sibir yerlaridan Xitoygacha hududlarni o'z saltanatiga bo'ysindiradi. Xuddi shu davrlarda mo'g'ullarning g'arbiy chegaralaridagi qo'shnisi ham Alovuddin Muhammad boshchiligida yangi-yangi hududlarni bosib olib, o'z chegaralari maydonini tobora kengaytirib bormoqda edi. Jahongirlik yo'lida ana shu ikki hukmdor niyati to'qnash kelib qoladi. Bunda Chingizxon tomonidan Xitoyni bosib olinishi, xuddi shu maqsadni anchadan niyat qilib yurgan Xorazmshohning rejasini puchga chiqaradi. U tezlik bilan bu xabarni aniq bilish uchun o'z elchisini Chingizxon huzuriga jo'natadi. Ana shu davrdan e'tiboran har ikkala hukmdorlar o'rtasida muloqot boshlanib, elchilik (aslida ayg'oqchilik maqsadlari ko'zlangan) munosabatlar o'rnatiladi....

Bu o'zaro kelishuv asaosida tinch-totuvlik, do'stona munosabatlarning yo'lga qo'yilishi uzoqqa bormaydi. Chunki ular bir-birini mag'lub etish uchun fursat va urush boshlashga payt-sabab kutardi. Afsuski, bu borada Chingizxon g'olib keldi. Chunonchi, Chingizxonning Xorazmga jo'natilgan katta savdo karvonini O'tror shahrining hokimi, Xorazmshohning bo'las G'oyirxon laqabli Inalxon tomonidan talon-taroj etilib, sadogarlarni qatl ettirilishi va Chingizxon borgan ("xun haqi" jazosini talab etib, o'z elchisi orqali yo'llagan maktubiga bosiqlik va o'ylovlik bilan javob qaytarish o'rniga) elchining Xorazmshoh tomonidan qatl etilishi, ular o'rtasidagi tinchlik shartnomasining buzilishiga sabab bo'ldi. Hatto, Xorazmshoh



Muhammad birinchi bo'lib Qoraxitoy yerlarini zabt etib qaytayotgan Jo'ji boshliq mo'g'ul lashkarlariga qarshi jang harakatlarini shoshma-shosharlik bilan birinchi bo'lib boshlab yuboradi. Chingizxon esa 1218 yilda Harazmshoh bilan bo'ladigavn urush harakatiga tayyorgarlik bo'yicha quriltoy chaqiradi va puxta tayyorgarlikdan so'ng 1219 yilning oxirlarida haqiqiy urush harakatini boshladi...

Xullas, Xorazmshoh Muhammad o'zining uzoqni ko'ra bilmas kaltabin siyosati tufayli ikki o'rtada boshlangan urushning aybdori sifatida tarixga kirdi. Oqibatda O'rta Osiyo elatlari, jumladan o'zbek elati uzoq davrlar chingiziylar hukmdorlari asorati ostiga qolishiga sabab bo'ldi, chingiziylar sulolasining mashhur bo'lishiga olib keldi...

Chingizxon avlodlari bilan Amir Temur avlodlari haqida tarixiy manbalarda ko'plab rivoyatlar bilan bog'langan ma'lumotlar mavjudligini qayd etgan edik. Jumladan, turkshunos olim Xasan Ato Abushiy (XIX asr) barcha qavmlarni (jumladan, turk va mo'g'ullar qavmini ham) Hazrat Odam alahissalom nasllaridan boshlaydi. U badiiy-tarixiy asarlarga asoslanib, No'h alayhissalomning Xom, Som, Yofas nomli uch o'g'lining nasllaridan zamonamizdagi barcha xalqlar yuzaga kelgan deydi. Xom naslidan Afrika, Hind, Amerika, Muhit, Jaziraliklar tarqagan bo'lib, qora tanli ("nig'r"-negir)lardir. Ular ko'proq Sharq va G'arbga tarqalishgan deydi. Mirsiylar, osuriylar, kadoniylar, finikilar, ibroniy(yahudiy)lar, arablar, armaniylar Som naslidan bo'lib, ular shimol, sharqdan g'arbga va janub tomonlariga tarqaganligini hamda rus tarixchilari va etnograflari bu qamlarni "oq tusli(белый rasa) va sariq tusli(желтый rasa) kabi ikkiga ajratganliklarini izohlaydi.

Yofas avlodi ikki ulug' firqaga ayrilishini, ularning birinchisi-"Qavmi oriya" yoki "Oriyana", "Oriyoniya", ikkinchisi-"Turoniyya", "Mo'ng'uliya" deb nomlanishini, Oriylar Somiy urug'larining shimoli, janubiy sharqi va shimoliy-g'arbiy tomonlariga tarqalishganligini aytgan. Bulardan birinchisi oq tanlilar, ikkinchisi sariq tanlilar hisoblangan. Umuman, hozirgi dunyoda majud bo'lgan barcha xalqlarning avlodlarini shu tarzda ta'riflaydi<sup>1</sup>. Bu qadimdan davom etib kelgan Odam alahissalom bo'yicha aytilib kelingan rivoyatlardan so'ng keyingi qavmlar tarixini boshlaydi...

Abushiyning yozishicha, mo'g'ul qavmlari o'tmish jihatdan turk qavmlari bilan, xususan, tatarlar bilan qardosh bo'lgan, mo'g'ulning asl tarqalish o'rni Xitoyning g'arbiy-shimolida "Shomu" va "G'uiy"( ya'ni Jung'ariya va Mang'uliya) sahrolarida bo'lgan. Shu kabi bu yerlarda

---

<sup>1</sup> . Хасан Ато Абуший. Кўрсатилган асар, 15-16-бб.

turkiy qavmlardan xun, noyman, keroyit, uyg'ur, tukyu(tukyu) kabi bir qancha qavmlar ham yashashgan. Keyinchalik ular ham mo'g'ullar tarkibi hisoblanib ketilgan<sup>1</sup>...

Olim xunn qavmi bo'yicha ancha keng ma'lumot bergan. Uning yozishicha, Oltoy, Mo'g'uliston, O'rxun-Enasoy vohasida turkiy qavmlarining miloddan avvalgi davrlarida Xunn (Xitoy manbalarida esa "Xyun-yu, Xyun-nu, keyinchalik Xen, Xun) nomi bilan yuritilgan yirik birlashmalari bo'lgan. Olimning fikricha, Xeyun yoki Xun so'zining etimologik jihati "katta suv (nahr)" ma'nosidan kelib chiqqan. Chunonchi, O'rxun sohillarida yashagan turkiy qabilalar o'zlarini shu daryoning haybatli suvi-xuniy nomi bilan ataganlar. Bu qavmlar kuchayib ko'p yerlarni zabt etishgan. Ular ilk miloddan avvalgi davrlarda Oltoy tog'laridan boshlab Tibet, Chin hududlarining shimoliy g'arb sahrolarigacha hamda Torim nahri va Lubnur ko'llarigacha, hozirgi Mo'g'uliston sahrolaridan Turkistonu, Buxoro va Qirg'iziston sahrolari-yu, O'rol tog'lariga qadar keng yaylovlarga tarqalishgan. Zamonlar o'tishi bilan ular 3 toifaga bo'linib, "janub xunlari yoki oq xunlar", "g'arb xunlar", "shimol xunlar" deb yuritildilar va ular tub joy qabilalar bilan aralashib boshqa nomlar bilan ham atalganlar<sup>2</sup>. Xyun-nu (xun)lar haqida Xitoy manbalarida qarib 3 ming yil avvalgi davrlardan ma'lumotlar uchraydi. Birinchidan, bu ikki qavm miloddan avval (Oltoy-Xun asrlarida) ham, milodiy davrlarning I-VII asrlarda (Xunn davlatining so'nggi davrlarida) ham bir ittifoqda bo'lishgan.

Turkshunos olim Nasimxon Rahmon ma'lumotiga ko'ra, Sak-iskit turklaridan so'ng Markaziy va O'rta Osiyo mintaqasida Xunlar hukmronlik qilishgan. Bu birlashma yoki davlat tarixda Buyuk Osiyo-Xun imperiyasi nomi bilan miloddan avvalgi VII asrdan milodiy 48-yilgacha mavjud bo'lgan. Bu saltanatning asoschisi Motun hoqon bo'lgan. Bu imperiya keyinchalik ikkiga, ya'ni Shimoliy va Janubiy Xun tarmoqlariga bo'lingan. Shimoliy tarmog'i tarkibiga O'rxun, Talas vohalari va Turkiston hududlari kiritilib, bu hududlarda xunlar miloddan avvalgi 482 yildan 156 yilgacha hukmronlik qilishgan. Ular Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi bo'ylari hamda Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Yevropa yerlarigacha cho'zilgan hududlarda yashaganlar. Ular ba'zi manbalarda miloddan avvalgi 207 yildan milodiy 216 yilgacha (423 yil) hukmronlik qilishgan (Q.Mahmudov, Sh.Karimov, R. Shamsutdinovlar). Keyingi davrlarda ular Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'lingan holda

<sup>1</sup> . Хасан Ато Абуший. Туркий қавмлар тарихи.-Т.: Чўлпон , 1993., 62-66-б.

<sup>2</sup> . Хасан Ато Абуший. Кўрсатилган асар, 177-б

siyosat yurgizganlar. Bu birlashmalar tarkibida juda qo'p va turli nomlar bilan atalgan qabilalar kirgan. Yozma manbalarda Sharqiy va G'arbiy hoqonlik tarkibida bo'lgan quyidagi turkiy urug' va qabilalar nomlari tilga olingan: **Ashin, Arg'u, Az, Qirq az, Basmil, Duba(tuba), Dulu Nushub, Izzil, Kurdanta, Kiton, Sir, Tatabi (tung'uzlar), Tolis, Tordush, Turk, Turgan, Tupuri, To'qri (toharlar), Uyg'ur, O'n uyg'ur, To'qqiz o'g'uz, Uch o'g'uz, O'g'uz, O'tuz tatar, Qarluq, Qimchoq, Qurigan**<sup>1</sup> kabilar shular jumlasidandir.

Chunonchi, G'arbiy-Ulug' Xun saltanati (374-469 milodiygacha) asoschisi Badamir (374-400 yy.) bo'lib, keyinroq bu tarixda Attila (434-453 yy.) hunlari nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu saltanat doirasiga Sharqiy Rus, Ruminiya, sobiq Yugaslaviyaning shimoli, Mojariston (Vengriya), Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va O'rta Germaniya kabi mamlakat hududlari tortilgan. Ikkinchisi, Sharqiy-Oq Xun (keyinchalik Eftalit) saltanati nomi bilan atalib, asoschisi Kunxon bo'lgan. Xunlarning ushbu tarmoqlari 386-557 yillarda hukm surgan va shu kabi tarixda Tavg'ach nomi bilan iz qoldirgan qabilalar birlashmasi (davlati) ham bo'lgan. Tavg'ach davlatning asoschisining Shamoxon deb atalgan.

L.N.Gumilevning asarlaridagi ma'lumotlarga ko'ra ham xunlar miloddan avvalgi III asrda 24 qardosh qabila birligidan tashkil topgan buyuk davlatni yuzaga keltirishgan. U "xunu" etnosi haqida ham fikr bildirib, xunlarning yuzaga kelishi Mug'ulistonning janubidagi, aniqrog'i, janubiy va shimoliy Gob hududlaridagi aborigen (tub aholisi) Xyanyun va Xunyuy qabilalarning aralashuvi bilan bog'liq deb qaragan<sup>2</sup>. Tarixiy manbalarda Xitoy imperiyasi bilan Xun davlati o'rtasidagi siyosiy munosabatlar har xil tarzda bo'lganligi qayd etiladi. Asosan, Xitoy imperiyasi Xunlarning kuchayib ketishi tarafdori emas edi. Ular bilan imkoniyat darajasida ma'lum davrlarda siyosiy-madaniy aloqalar o'rnatgan, ammo hamisha raqobatda bo'lishgan. L.N.Gumilevning yozishicha, miloddan avvalgi 200-yilda Modexon boshchiligidagi Xunlar Lyu Ban boshliq xitoyliklarni yengib, ulardan har yili o'lpon olib turishgan<sup>3</sup>. Shuning uchun ham Xitoy imperiyasi Osiyo-xunlari davrida ham, undan so'nggi davrlarda ham turkiyzabon qabilalar bilan aloqa-munosabatlarini olib borishda o'z foydasini ko'zlashgan. Ayniqsa, xunlarning kuchayib ketishidan hayiqib, turkiy qabilalar o'rtasida o'zaro ziddiyatlar keltirib chiqarishga harakat

<sup>1</sup>. Махмудов Қ. Туркий ҳоқонликлар. //Тўрон тарихи -Т.: 1992.32-6.

<sup>2</sup>. Гумилев Н.Л. Тысячелетие вокруг каспия.-Баку.: 1991, стр.16, 73-74

<sup>3</sup>. Гумилев Н.Л.Курсатилган асар, 75-6.

qilishgan. Shu yo'l bilan ularni Xitoy imperiyasiga tobe yoki ittifoqdosh bo'lishga uringanlar.

Umuman, Xitoy imperiyasi xunlar va ularga qardosh bo'lgan boshqa turkiylarni harbiy jihatdan zaiflashtirish va birlashgan qabilalarning qudratli davlatini parchalab yuborib, ular o'lkasidagi moddiy-iqtisodiy boylikdan manfaatdor bo'lishga harakat qilib kelishgan. Jumladan, Xan sulolasi davrida Xitoy imperiyasi bilan xunlar o'rtasida munosabatlar yomonlashadi. Shunda Xan hukmdori Udi (milloddan avval 140-87 y.y.) xunlarga qarshi harbiy ittifoqchi qidirib, Orol bo'ylaridan Sharqiy Turkiston (massaget qabilalari) tomoniga borgan, ammo o'z maqsadiga erisha olmagan<sup>1</sup>. Xuddi shunday holat miloddan avvalgi I asr o'rtalarida to'ng'ich Xan sulolasiga mansub Xitoy imperatorlari Buyuk ipak yo'lini o'z nazoratiga olish maqsadida bir-biri bilan ittifoq bo'lgan Xun, Usun, Qang'ar kabi qudratli kuchga ega bo'lgan turk qabilalarini o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Shu kezlarda xunlar bilan usunlar va qang'arlar o'rtasidagi do'stlik ittifoqida o'zaro kelishmovchilik yuzaga kelgan edi. Chunonchi, xunlarning parfiyaliklar bilan do'stlik ittifoqini tuzishi qang'arlarga ma'qul kelmagan edi. Chunki o'sha davrlarda qang'arlar bilan parfiyaliklar o'rtasida adovat bor edi. Natijada qang'arlar bilan xunlarning do'stlik aloqasi bo'zilgan. Xitoyliklar fursatdan foydalanib qang'arlar bilan do'stlik ittifoqini tuzishga kirishdi<sup>2</sup>. Oqibatda xitoy qo'shinlari miloddan avvalgi 59 yili Tyan-shan orqali o'tgan shimoliy savdo yo'lining Yorkentgacha bo'lgan qismini egallaydi. Xitoy usunlarni ham o'ziga ittifoq qilib oladi. Xunlarga qarshi ana shunday tazyiqlar natijasida qudratli Xun davlati inqirozga uchrab, ular birlashmalaridagi qabilalar asta-sekin turli hududlarga ko'chib keta boshlagan. Lekin ular migrasiya (ko'chish) natijasida borgan yerlarida aborigen (tub joy) qabilalari bilan yana yangi-yangi qudratli, jangovar birlashmalarini (davlatlarini) tuza olganlar. Ular tuzgan yangi davlatlar yuqorida qayd etilganidek, manbalarda turli nomlar bilan atalgan. Xitoy va boshqa manbalarda bu kabi juda ko'p ma'lumotlar uchraydi.

Jumladan, taniqli o'zbekshunos olim akademik A. Asqarovning qator asarlarida, xususan, "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" kitobida turkiy xalqlarning qadimgi tarixi bo'yicha xitoy manbalaridagi ma'lumotlar, shu kabi, N. Gumilev, S. V. Kiselov, A. Xo'jayev va boshqa olimlarning fikr va mulohazalarida ham xunlar o'tmishi ishonchli talqin etilgan. Xunlar va ularning nomi haqidagi muhim fikr-mulohazalar

<sup>1</sup>. Аскарлов А. Кўрсатилган асар, 63-64-66.

<sup>2</sup>. Аскарлов А. Кўрсатилган асар, 169-181-66.

asosli dalillar bilan yoritilgan. Bu ma'lumotlardan muhimlarini alohida qayd etish mumkin.

Xuddi shunday ma'lumot Si Yuanning "So'zlar etimologiyasi" lug'atida ham mavjud. Xan sulolasi tarixi "Xunlar tazgirasi"- ning ikkinchi qismida "janubda buyuk Xan , uning shimolida esa kuchli"xu" mavjud deb xunlarga ishora qilingan. Sharqiy Xan tarixchisi Chjeng Shyuan "xu" hozirgi "syunnu", ya'ni hunn, deb yozgan<sup>1</sup>(ta'kidlash lozimki, hozirgi manbalarda "xun"so'zi "xunn" shaklda, ikkita "n" harfi bilan ham yozilgan). Xitoyshunos olim A.Xo'jayevning yozishicha, manbalarda qo'llangan "xu" va "xulu" turkiycha "hur" atamasining xitoycha talaffuzidir. Xitoy tilida "r"undoshi talaffuz etilmasligi sababli iyeroglif bilan ifodalashda"hur" atamasi "hu"shaklda yozilgan<sup>2</sup>.

Ushbu aytilganlardan kelib chiqib, akademik A. Asqarov quyidagicha xulosaga kelgan: "Shunday qilib, yuqorida nomlari keltirilgan qadimgi xitoy yozma manbalariga ko'ra, shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy chegaralarida mil.avv.III-II ming yilliklar davomi da "xu", "dingling(tingling)", "tele(chele/chile)", "di", "hunn" nomlari ostida chorvador qabilalar jamoalari yashashgan. Bular aslida "hu"avlodlaridir (A.Xo'jayev).Milodiy III-IV asrlarda ular "turo" nomi bilan yuritilgan. "Tele" va "turo" aslida bitta nom emas, balki turkiy tilli qabilalarning turli urug'idir. "Di"lar xitoy yozma manbalarida "dingling", "guyfang"lar, keyinchalik bu qabilalar Lyuy Simyanning yozishicha, "chile, tele" nomi bilan atalsa, g'arb mamlakatlarida ularni turk deb atashgan, aslida turk va uyg'ur dinglinglar tarkibidadir..Chilelarni xitoylar "Gavche"(qangli) deb ham atashgan. Bu qabilalar turlicha atalsa-da, ularning kelib chiqishi birdir. Manbalarning guvohlik berishicha, dastlab turkiy qabilalarning siyosiy uyushmasiga "Hu"lar, keyin "Di"lar, so'ng esa "Xunn"lar nomi bilan yuritilgan turklar yetakchilik qilishgan. Manbalarda yozilishicha, Hunlar hokimiyati inqirozidan keyin, Atilla (Atilla) bilan G'arbg'a ketmay, o'z joylarida qolib ketgan turkiy qabilalarga "Turo"qabilasi bosh bo'lib, o'z tarkibiga 44 ta qabilani birlashtirgan.Ularning nomi shimoliy sulolalar tarixida keltirilgan. Ular Xitoy iyerogliflarida davrga qarab, turlicha talaffuz etilgan bo'lsa-da, ularning turkiy etnosga tegishli ekanligi ma'lum

<sup>1</sup>. Асқаров А. Кўрсатилган асар, 202-б.(Хитой тили катта иероглифлар луғати.3-жилд, 2057 бет.; Си Юан. Сўзлар этимологияси. 1218 бет. )

<sup>2</sup>.Хўжаев А. Кўрсатилган асар, 178-184-бб.

bo'ldi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari aynan mana shu hududlarda bronza davrida Andronov madaniyati sohiblari yashaganligini tasdiqlaydi. Andronov madaniyati yodgorliklari Janubiy Sibirning g'arbidan O'rol tog' tizmalari- ning janubiy-sharqiy mintaqalarigacha yoyilgan.

S.V. Kiselyov mil.avv. XVIII asrda Minusinsk past-tekisligi va Yeniseygacha yoyilgan Andronov madaniyati yodgorliklari quyi Volga, Don va Dones cho'llarining Srub madaniyati bilan ko'p jihatdan yaqinligini alohida ta'kidlab o'tadi. Demak, qadimgi xitoy yozma manbalarida tilga olingan "xu", "di", "guyfang", "tufang", "rung", "hunn" va boshqa azim sahro sohiblari qadimgi turkiyda so'zlashuvchi Andronov madaniyati egalariga xos bo'lishgan<sup>1</sup>.

Umuman, ana shunday ko'hna tarixga ega bo'lgan Xunlar turkiyzabon qabilalardan hisoblanadi. Ular o'zlarining ilk, ya'ni miloddan avvalgi davrlardagi tarixiy jarayonlarda qudratli va jangovar davlatlariga ega bo'lgan bo'lsalar, keyingi davrlarda, milodiy davrlarda ham bu xususiyat ularda saqlanib qolgan. Ularning avlodlari tomonidan milodiy davrlarda ma'lum mintaqalarda yana qudratli turkiy davlatlarni tuzganlar. Lekin ta'kidlaganimizdek, ular turli qabila nomlari bilan atalganlar.

Xunlarning va boshqa qardosh turkiy qabilar ittifoqlarini, xususan, ahilligini, jangovarlik kuch-qudratini sindirib, o'ziga tobe etish yo'lida Xitoy imperatorlari turli yo'llardan foydalanganlaridek, milodiy davrlarda ham bunday tazyiqlar ularning avlodlari tuzgan yangi davlatlarga nisbatan ham davom etgan. Masalan, manbalarda Oq Xunlar yoki Eftalitlar davlati nomi bilan atalgan qudratli saltanatni Eron davlati zaiflashishiga va inqirozga uchrashiga sabab bo'lgan. Eron o'sha davrlarda O'rxun-Enasoy vohasida shakllangan qudratli Turk hoqonligi bilan kelishib, Eftalitlar davlatiga zarba berishni rejalashtirgan. Chunki, Eron ahmoniylari bu davlatning kuchayib ketishidan hadiksiragan.

Qayd etilgan tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, Xunlar ma'lum davrlarda ancha yuqori mavqeyga ega bo'lgan qudratli Buyuk Xunn (Xyunnu) imperiyasini tuzganlar. Buyuk imperiya inqirozidan so'ng bu ittifoq tarkibidagi ba'zi qabilalar o'z nomlari bilan yangi siyosiy uyushmalar-hokimlik tipidagi davlatlarini tuzganlar. Yuqorida qayd etganimizdek, Oq Xun yoki Eftalitlar va Tavg'ach, Davan, Qang' (qang'ar), Mo'g'ul kabi davlatlar shular jumlasidandir. Bu davlatlarning

---

<sup>1</sup> . Аскарлов А. Кўрсатилган асар, 202-б.

nomlari asosan **birlashmaga asos solgan qabilalar** nomi bilan atalgan. Ular dastlab bir necha yirik urug'lar va kichik qabilalar birlashuvidan hokimlik tipidagi mustaqil siyosiy uyushmalar tarzida yuzaga kelib, keyinchalik davlat tipidagi yirik qabilalar birlashmalariga aylanganlar va ancha keng hududlarni o'z ta'sirlariga qaratganlar. Bu holat Xunlarning migrasiyasi tufayli ham ancha oldingi davrlardan boshlangan. Ushbu ma'lumotlarni keltirishdan maqsad turkiy qabilalarning siyosiy maydondagi tarixi va mavqeyi mo'g'ullardan oldin boshlangan yuqori turganligini ta'kidlashdir.

Demak, qayd etilgan dalillardan ma'lumki, jamiyatning ma'lum taraqqiyoti davrlarida turkiy qabilalar ijtimoiy-siyosiy maydonda mo'g'ullardan avval kelishgan va ulardan ustun bo'lganlar. Shunday ekan, turk-barlos, aniqrog'i Amir Temur qavmlarini mo'g'ul-avlodidan emas, balki qadimiy turkiylarga borib taqaladi va aksincha mo'g'ul-Chingizxon qavmlarining etnik jihatini Turkxon yoki turklar naslidan kelib chiqqan deb qarash mumkin. Shuning uchun ham tarixiy manbalarda bu ikki qavm haqida so'z yuritilsa, "mo'g'ul-turk" shaklda emas, asosan "turk-mo'g'ul" tarzidagi atama qo'llaniladi. Chunki, turklarning mavqeyi va son jihatdan ham ustunligi hamisha saqlangan. Biz yuqorida eslatib o'tgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlardan Oltoy va Xunn davrlarida ham, Mo'g'ulistondagi Sharqiy Xun hukmronligi-Tukyu davlati hukmronligi ham turk-mo'g'ul qavmlari qo'l ostida bo'lganligini anglash qiyin emas. Shu kabi XIII asrdan jumladan, temuriylar davrida ham mo'g'ullarning ijtimoiy-siyosiy maydonga kuchaygan davri sanalsa-da, aslida mo'g'ullar imperiyasi yoki mo'g'ul sulolasi nomi bilan atalgan chingiziylar davrini ham turk-mo'g'ul hukmronligi sifatida qaralsa to'g'ri bo'ladi. Zero, bu imperiyaning ham asl tayanchi turkiy qabilalar bo'lishgan. Bu haqda keyinroq fikr bildiriladi.

Xususan, Amir Temur sulolosi na uning davomi Boburiylar hukmronligi esa mo'g'ullarga hech bir aloqasi yo'q. Chunki, bu davr hukmronligida mo'g'ul qavmlari inqirozga uchrab, ular nomi bilan atalgan sulola-hukmronligi tamoman tugatilgan edi. Aksincha, bu davrlardagi saltanat faqat turkiy qavmlar sulolasi, aniqrog'i temuriylar sulolasining davomi sanalgan. Shuning uchun temuriylar sulolasi hukmronligini mo'g'ul hukmronligi yoki imperiyasi davri deb aytish xatodir. Chunki yuqorida nomlari tilga olingan Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyo olimlarining asarlaridagi bir xillikka ega bo'lgan dalillar bu fikrni to'liq tasdiqlaydi.

To'g'ri, tarixiy manbalarda mo'g'ullarning Markaziy Osiyodagi qarama-qarshiliklar, turli zidiyatlar tarzida o'tgan qariyib 150 yillik hukmronlik davri qayd etilgan. Ammo u tarixda salbiy iz qoldirganligi bilan mashhur bo'lgan. Mo'g'ullar davriga xos qoloqlik va tarqoqlikni tugatib, uning o'rniga turkiy qavmlarining anchagina madaniylashgan va markazlashgan mustaqil davlati tuzilgan edi. Bu turkiy qavm avlodidan buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan yuzaga keltirildi. Uning buyukligini butun jahon ahli tan olgan. U turkiy xalqning davlat arbobi sifatida olamga dongi ketgan hazrati Sohibqiron, Jahongiri Sulton nomi bilan zamonasining mashhur alloma-tarixchilari qalamini o'ziga jalb etib, tarix zarvaraqlarida munosib o'rin olgan vatandoshimiz sanaladi. Uning hayotiy faoliyati, shajarasi haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Bulardan biri Samarqand shahridagi Amir Temur maqbarasidagi Sohibqironning qabr toshida o'yib yozilgan bitiklardir. Bu tosh bitik Amir Temur avlodlari haqida ma'lumot beruvchi qog'ozdagi yozma asarlarga mos kelsa-da, shajaraning oxirgi qismidagi Ali haqidagi rivoyat bilan farq qiladi.

Olimlar bu rivoyatni keyingi davrda qo'shimcha tarzda kiritilgan deb qarashadi. Chunki Ali rivoyati boshqa yozma manbalarda yo'q. Ayni paytda Amir Temur va Chingizxon shajarasi haqidagi ma'lumot O'z.FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridagi "Muqaddima" qismi asosida "Amir Temur ajdodlari" risolasi 1991 yilda Toshkentda nashr etildi. Ushbu risolada turkiy qavm va uning hukmronligi oldin boshlanib mo'g'ul qavmi esa turkiy qavmning bir kichik tarmog'ining davomi sifatida qayd etiladi...

Demak, tarixiy manbalarda, jumladan, "Zafarnoma" asaridagi shajarada dastlabki bir kancha turkiy podshohlar, ya'ni Abu Turk (Yofasnint o'g'li yoki Yofas o'g'lon), Almajnaxon, Debodqo'yxon, Ko'kxon, Alinjaxon kabi xonlar hakida ma'lumotlar berilgandan so'ng turkiy podshohlardan beshinchisi Alinjaxonning ikki egizak o'g'li Totor va Mo'g'ul hukmronligi to'g'risida so'z yuritiladi. Bu haqda "Amir Temur ajdodlari" risolasida quyidagicha ma'lumot berilgan: *"...El kengash qurdilar va Yofas o'g'li Turkni o'zlariga boshliq qilib sayladilar. Turkular uni Yofas o'g'lon der edilar. U Yofas farzandlarining eng to'ng'ichi bo'lib, juda oqil, odobli va hunarmand edi... otasining yurtini boshdan oyoq kezib, bir yaxshi joy topdi, uni Solangoy ataydilar, u yerda suvi iliq bir kichik daryo bor, tog' va chuchuk suvli buloq ko'p... o'sha joyda yashay boshladi. O'tov qurish*



*uning ixtirolaridan, turklar orasida mavjud laqablar uning tomonidan (berilgan)... Naql qilurlarkim Yofas o'g'lon (Turk) Kayumars bilan hamasr ekan. U turk podshohlarining, Kayumars esa ajam podshohlarining avvalgisi bo'lgan...<sup>1</sup>*". Xuddi shunday rivotga xos fikrlar Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida ham bayon etiladi<sup>2</sup>.

Shundan so'ng yuqorida qayd etilgan Turkiston viloyatlarining to'rtta Almajnaxon, Debodqo'yxon, Ko'kxon, Alinjaxon kabi Turk podshohlari hukmronligi davri haqida fikr bildiriladi. Alinjaxondan so'ng uning ikki egizak o'g'li Totor va Mo'g'ul podshohligi haqida ma'lumot berilgan. Masalan, "u (Alinjaxon)dan egizak o'g'li bo'ldi va ularning biriga Totor, ikkinchisiga esa Mo'g'ul deb ot qo'ydi... Ota vafotidan so'ng o'g'il-lari ahillikda el-yurt so'rdilar. Ular totor va mo'g'uldan iborat ikki tarmoq edilar". Shajarada muallif totor tarmog'i haqida deyarli to'xtalmagan, chunki totor qavmlari turli toifalar tobe'ligida bo'lib, tarqoq holga tusha boshlagan, o'z mustaqil hukmronligini deyarli yo'qotgan bo'lgan. Shu sababli bo'lsa kerak, totor qavmlari haqida yo'l-yo'lakay fikr bildirilgan. Balki, mo'g'ul va totor qavmlari o'rtasida o'zaro toj-taxt masalasida kelishmovchilik yuzaga kelgan va mo'g'ullar ustun bo'lib, tatarlar tarqoq holga tushishgan.

Ayniqsa, Mo'g'ulxonning nabirasi O'g'uzxonning diniy e'tiqodi, turkiy qavmlariga mansub hukmron sifatida mo'g'ul qavmlariga zid yo'l tutishi haqidagi ma'lumotlar ancha qiziqarli. Masalan: "O'g'uzxon shon-shavkatli va oliyhimmat podshoh edi. U butun sipoh, saroy ahlini va o'z tarafdorlarini islom diniga kiritdi. Yetmish uch yil davomida amaki va tog'alari hamda ularning tobelari bilan jang qildi.

Nihoyat, ularni el-yurtdan quvg'in qildi, hammasini tirqiratib yubordi. Ular ul yerlardan mashriq tomonga qochdilar. Totor podshosi ularni qo'llab quvvatladi va O'g'uzxon ustiga qo'shin tortdilar, biroq O'g'uzxon shon-shavkatidan ularning ko'ngliga vahima va qo'rquv tushdi va kochib ketdilar. O'g'uzxon ular ortidin quvlib to Chin o'lkasigacha bordi va u iqlimni ham egalladi. Natijada, totor va mo'g'ul ulusi O'g'uzxonga el bo'ldilar, u esa barchasig'a hokim bo'ldi. Talash shahri va Sayramdan to Buxoro chagarasigacha bo'lgan yerlarni o'z ko'l ostiga oldi, u yerdagi barcha kofirlarni islomga kiritdi...

Islom dini va turkiy xalqlar turish-turmushi rivojiga sababchi bir qancha qonunlar yaratdi. Jamshid ajam podshohlari orasida qanday

<sup>1</sup>. Амир Темур аждодлари.-Т.1991.

<sup>2</sup>. Қаранг: Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи, 36-38-бб.

bo'lsa, O'g'uzxon ham turk podshohlari orasida shunday edi". "Amir Temur ajdodlari" haqidagi risolasida, "Zafarnoma" asarining muqaddimasida qayd etilgan ushbu satrlardan anglashilib turibdiki, O'g'uzxon musulmon dinidagi turk podshohlaridan biri hisoblangan. Asarda o'z qavmi sifatida elatlarga (urug'-qabilalariga) maxsus nom qo'yilganligi qayd etilgan. Masalan, "*O'g'uzxon turk elatlariga laqablar qo'ydi va ular hozirgacha o'sha laqablar bilan ataladilar. Chunonchi uyg'ur, qangli, qipchoq, halaj va hokazo*".

Demak, ushbu manbalarda O'g'uzxon turk qavmlariga (urug'-qabilalariga) alohida nom berganligi va ularni o'z himoyasiga olganligi qayd etilgan. Xuddi shu kabi ma'lumotlar Mirzo Ulug'bekning – "To'rt ulus tarixi" asarida ham ancha keng bayon etilgan. (Bu haqda keyinroq fikr bildiriladi). Tarixiy manbalardagi bu kabi e'tiborli malumotlardan yana biri Buzanjar podshohligi haqida berilgan fikrlardir. Buzanjar podshohligi haqida berilgan ma'lumotlarda mo'g'ul xonlarining barcha nasli turk sultonlaridan kelib chiqqanligi aytiladi. Masalan, "u (Alanquva) ko'zi yorib uch o'g'il ko'rdi... uchinchisiga Buzanjar nom berdi, kaysikim, eng kenjasi edi va butun turk sultonlari undan kelib chiqqan. Jami mo'g'ul xonlari ham uning naslidin". "To'rt ulus tarixi" asarida ta'kidlanishicha, Buzanjar hukmronligi mo'g'ul qabilalari va turk qavmlari orasida ham hurmat qozona olgan. Hatto, u sohibqiron podsho sifatida qayd etilgan. Ushbu rivoyatlardagi ma'lumotlardan ham turk-mo'g'ul avlodlarining birligi o'sha davrlarda Oltoy, Xunn davridagi kabi umumiy birlikka egaligi eramizning o'rta asrlarigacha davom etib kelganligidan guvohlik beradi.

Xullas, endi Chingizxon va Amir Temur sulolasi haqida yuqorida aytilgan fikrlarimizni yana davom ettirib, "Buyuk mo'g'ul sulolasi", shu kabi "Temuriylar sulolasi" kabi atamalarga qisqacha izoh berishni lozim topamiz.

Ma'lumki, yuqorida qayd etganimizdek, "Buyuk mo'g'ul sulolasini" turk-mo'g'ul qavmi hukmronligi davri desak to'g'riroq bo'ladi. Chunki Chingizxon qo'l ostidagi davlatning yuzaga kelishida va uni boshqarishda turkiy elatlarning roli nihoyatda katta bo'lgan. Chingizxon harbiy qo'shinlari safida turkiy urug' qabila-elatlari ko'pchilikni tashkil etgan. Bu haqda "Temurnoma" va "To'rt ulus tarixi" kabi asarlarda ham ishonchli ma'lumotlar berilgan. Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"sida "Emdi keldik dostoni Amir Sohibqironga, ya'ni Amir Temur Ko'ragon Iskandari soniyga" nomli bobda ham Amir Temur shajarasi berilgan. Lekin Amir Temur bilan Chingizxon shajarasining

ajralib ketish qismida Temurning Kojuvli (Qochuvli) bahodirdan oldingi sakkizinchi bobosining nomi Tumanaxon emas. balki, Torbonxon, Chingizxonning Qabuldan oldiigi bobosi esa Tumgaxon nomi bilan qayd etilgan.

Boshqa tarixiy manbalarda esa yuqorida qayd etganimizdek Temur va Chingizxon avlodlari Tumanaxondan so'ng ajralib ketadi deb qayd etiladi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida turk xonlarining tarixi ancha sermazmun bayon etilgan. Turk avlodi boshqa tarixiy manbalardagi (Turk ibn Yofas davridan boshlangan boshqa elatlar) kabi qadimiy ekanligi, ayniqsa, Turk-fors mamlakatining mashhur sultoni Kayumars bilan zamondosh bo'lib, mashriq diyorining, To'ron zaminining birinchi sultoni hisoblangan. Turk sultonlarining avlodlari, jumladan, turkiy ellatlarga qadimdan qardosh tarzida mo'g'ul xoqonlarining tarixi ham o'tmish manbalarda anchagina yoritilib berilgan. Mirzo Ulug'bek asarda ham qayd etilishicha, Turkxondan so'ng turk-mo'g'ul xonlari orasida Qoraxonning o'g'li O'g'uzxon ancha mashhur bo'lgan: *"O'g'uzxon... Chinu Mochin mamlakatlari sarhadidin to Rus dengizigacha, Oltoy va Konkoydan Jayxun daryosi bo'yigacha bo'lgan yerlarni o'z hukmronligi doirasiga va tasarrufiga olgach, barchani xudoparastlik (islom) diniga kiritishga harakat qilgan. Bu diyorlar o'rtasida islom rivojiga va turklar holining barqarorligi va ular turmushi sharoitining qoyimligiga sabab bo'lgan bir necha qonunlar ishlab chiqkan... O'g'uzxon turk mamlakatlari orasida misli Jamshed edi. Ajam maliklari orasida ham"*<sup>1</sup>.

Ko'rinib turibdiki, "Zafarnoma", "Temurnoma" va boshqa tarixiy asarlardagi kabi Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida ham mo'g'ul (Chingizxon) avlodining qadimiy davri turk qavmlariga borib taqaladi. "Temurnoma"da Chingizxon avlodi quyidagicha tasvirlanadi: "Chingizxon ibn Biynukaxon ibn Xonfil ibn Boysunqurxon ibn Numiy'axon ibn Qayduxon, nasli mo'g'ul-totor avlodi Yofas nuh alayhis salomg'a borur"<sup>2</sup>. Chunki O'g'uzxonning bobosi Mo'g'ulxon nomi bilan atalib kelingan bo'lsa-da, turk qavmi va sultonlari avlodidan ekanligi shajara tarixi haqidagi barcha manbalarda yaqqol ko'rsatilgan. Shu sababli tarixiy manbalarning aksariyatida Mo'g'ulxondan so'ng ham hukmdorlar turk sultoni yoki turk-mo'g'ul hoqonlari tarzida tilga olinishi tabiiydir. Jumladan, turk va mo'g'ul qavmlarining yoki Amir Temur va Chingizxon qavmlarining ikki alohida-alohida tarmoqqa

<sup>1</sup>. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи, 50-б.

<sup>2</sup>. Темурнома, 35-б.

ajralib ketishidan so'ng ham tarixiy manbalarda bu ikki qavmlarining aralashtirilib yuborish holati davom etgan. Bu ikki qavmni etnik jihatdan qadimgi rivoyatlar va so'nggi davr olimlarimizning Oltoy-Xun til oilalari nazariyasiga ko'ra ham bog'liq deb qaralsa-da, ular o'rtasidagi ba'zi tomonlar (ayniqsa, til jihatdan bog'liqligi) tamoman mos kelmaydi. Asrlar davomidagi mustaqil shakllanib kelgan bu ikki elatni ba'zi jihatdan bir deb bo'lmaydi. Aslida ular qachonlardir bir ittifoqda (oilada) bo'lgan bo'lsa-da, o'sha davrlarda ham o'ziga xos tili, dini, ma'naviy-madaniy xususiyatlari bilan farqlangan. To'g'ri, boshqa elatlar (tojiklar) kabi turk qavmlari bilan mo'g'ul qavmlari bir-biri bilan quda-anda tutinganlar. Chingiziylar sulolasi davrida ham turk qavmlaridan hokimlar soni ko'pchilikni tashkil etgan va ular mavqeyi esa yuqori turgan, lekin bu bilan ularning avlodi tamoman bir deb qarab bo'lmaydi.

Darhaqiqat, ular hukmronligi davrida ham ba'zi tomondan turkiy qavmlarning ustunligi saqlangan bo'lgan. Jumladan, tarixiy manbalarda, xususan, Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asaridagi ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, turkiy tilning mavqeyi keng hududlarda hamisha ustun bo'lgan, butun mo'g'ullar davlati hududlarida turkiy yozuv keng joriy etilgan. Hatto, Chingizxon kelib chiqishi turklardan ekanligi, turk xoni sifatida qayd etilgan. Shuning uchun Movarounnahr eliga, musulmonchilikka dastlabki davrlarda alohida e'tibor bilan qaraganligi ham aytiladi. Masalan, "...*barcha turk saodatlari boshlig'i Temuchin (Chingizxon) qurultoyga chorlagan bir vaqtda.... (100-b), Turk avlodi hukmdorlarining boshlig'i buyuk podshoh qoondir*"(106-b.). "*Tangri taolo Chingizxonga dinu dunyoviy tadbirlarda shunday aqlu farosat bergan ediki, turk sulolasining biror sultoniga nasib etmagan edi. Shu jihatdan u yaso bunyod etdi. Bir necha qoidaga asos soldi. O'z ra'idan kelib chiqib, har tadbirga qonun, har bir gunohga jazo muayyan qildi. Shu jumladan, musulmonni **qatl etganni qasosiga** (qatl etgan kishidan qasos olish uchun-U.S.) qirq bolish zar tayin qildi, bu yo'ldagi xatolikka esa bir qiyon. Mo'g'ul qavmlarining xati bo'lmagani uchun ularning farzandlari uyg'urlardan xat o'rganishsin, dedi. Bu yaso va qonunlarni daftarlarga sabt etdi.... Uni xazinaga topshirdi....*"<sup>1</sup>.

Ushbu o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, turkiy-uyg'ur yozuvi turk xoqonlari orasida (O'rxun-Enasoy yozuvi qatori<sup>2</sup>) qadimdan qo'llanilgan. Jumladan, Tumanaxon davrida ham davlat idora ishlarida

<sup>1</sup> . Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи, 100, 106, 112-66.

<sup>2</sup> .Қайд этиш лозимки, уйғурларнинг икки хил ёзуви бўлган. Бири қадимий бўлиб, Ўрхун-Энасой ёзувидир ёки унга ўхшашдир. Махмуд Кошғарий (XI аср) бу ёзувни фақат уйғурларгина ўқий олади дейди.

asosiy yozuv sifatida qo'llanilgan. Masalan, "...*Quyulu va Qochuvli otalari huzurida har ikkisi bir-biriga qasamyod qilishdi va ahd boylashdiki, xonlik taxti Quyuluniki bo'lsin. Qochuvlining shamshir sohibi bo'lganidan shunga qaror qilishdiki, Kuyulu taxtga podshoh bo'lg'usi, Qochuvli poytaxt pahlavoni bo'lur. Bu vasiyat qilingan qonun bo'ladi. Avlodlarga va nasllarga, ular avloddan-avlodga har kishiki, tug'ilgay shu yo'riqqa rioyat qilmog'i lozim. Shu mazmunda bir faslni uyg'ur xati bilan u borada raqam qildilar... Uni Tumanaxon sulolasi bilan muashshoh etilib, xazinachiga topshirdilar*"<sup>1</sup>.

Chingizxon o'zidan oldin o'tgan turk hukmdorlarining bu kabi udumlarini davom ettirgan hamda davlatni va harbiy ishlarni boshqarish tadbirlaridan ulardan mohirona foydalanib, uni yanada rivojlantira olgan. U mo'g'ul qavmi kichik, ayniqsa, Movarounnahr da kam sonli bo'lganligi sababli, turkiy qavmlarga suyangan. Ularga ishonib, ayniqsa, hukmronlikning ilk davrlarida o'z sipohlari safidan turkiy qavlarga nufuzli o'rinlar ajratgan. Shuning uchun ham turkiy qavmlarining Chingizxonga ittifoq, el bo'lishga moyilligi oshgan va tarixiy asarlarda ham ularga nisbatan iliq fikrlar aytilib, turklarga qardosh qavm sifatida qayd etilgan. "To'rt ulus tarixi"da turkiy qabilalarning birin-ketin Chingizxonga kelib qo'shilishi haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

*"Nayman xalqidan (o'sha davrdagi nufuzli turk qabilalardan-U.S.)bo'lgan Makrit elining bir guruhi Chingizxonga el bo'ldi. Shu iqqolli fathdan butun turk qavmlari avlodi larzaga keldi. Har tarafdan el-el bo'lib kela boshladilar. Ulus va qabilalar seldek oqib dengizga ko'shila boshladilar... Turk avlodining azimushsha'n hoqonlaridan qorlug' qavmi podshohi Arslonxon o'z qavmu qabilasi, sonsiz lashkari bilan el bo'lib, Sohibqironi a'zam Chingizxonu muazzam huzuriga keldi. Keyin dilgut va dayfur uluslari keldi va Chingizxon huzurida poybuslik qildi. Qolgan qabilalar ham ul shohga moyil bo'ldilar. Sanoqsiz ulus sardorlari ajdaho va ilondek saroy tomon sovrunlar bilan kela boshladilar. Toki xoqonga manzur bo'lib, uning panohida xayf-xatarsiz panoh topgaylar. Idiqt birinchi bo'lib xon xizmatiga bel bog'ladi... Uyg'ur qavmining podshohi Idiqt edi ... Uyrot, Makrit, Jomuko, Soljuyut, Chuyut, Orlot, Barlos, Toychuit, Do'rmon, Bahrin, Qo'ng'irot, Totor, Qung'on, Jojirot, Daryotu, Qopqin, Yurgin, Jaloyir, Qo'ng'urgin podshohlari o'z sipohlari bilan Sohibqironga kelib qo'shildilar"*<sup>2</sup>

<sup>1</sup> . Мирзо Улуғбек.Тўрт улус тарихи, 76-б.

<sup>2</sup> . Мирзо Улуғбек.Кўрсатилган асар, 103-104-бб.

Asarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ba'zi turk podshohlari Mo'g'ul hukmronligi ittifoqiga qo'shilishdan oldin ham Chingizxonga dushman bo'lgan elatlarga (yoki unga qarshi kurashishga bel bog'lagan kavmlar va ular boshliqlariga) qarshi kurashganlar. Chingizxon foydasiga ish tutganlar. Bunday turk qavmlariga Chingizxon alohida marhamatlar ko'rsatgan. Masalan, uyg'ur kavmlari podshosi Idiqut Qoraxitoy podshosi Gurxonga qarshi ko'rashib, uning dorug'asi Shovugumni o'ldirgan.

Bu kabi xabarlar Chingizxonga yetib kelgan. Shu zahotiy oq, ancha katta mavqyega ega bo'lgan uyg'ur elatiga Chingizxon ishonch bildirib, podshoh Idiqutga do'stlikni taklif etadi va uyg'ur yurtiga elchi orqali noma jo'natadi: "Uyg'ur yurtiga bir kishini in'omu ehsonlar bilan elchi qilib jo'natdi. U bilan shunday xabar yo'lladi. "Ey saodatli, seni baxtli ko'rish niyatim. Biz tomonga do'st sifatida qadam ranjida qilgin. Seni ko'rish ishtiyoqidaman". ... Elchi Idiqutga nomani bergach...ochib o'qidi. Suyurg'ol berilgani xabarini bilib, hamdu sano o'qidi. Shohning yo'qlaganidan Idiqut shod bo'ldi"<sup>1</sup>. Ko'rinib turibdiki, bu do'stlik har ikki tomonga ham manzur bo'lgan. Chunki, Chingizxon nufuzli elat (dushmanni) o'ziga do'st el qilib olganidan xursand edi. Idiqut esa o'z mustaqilligini saqlab qoldi, ya'ni o'z yurti o'ziga suyurgol (in'om) etildi. Shu sababli u Chingizxon taklifini darhol qabul etib, tezda xon huzuriga otlandi. Chingizxon Idiqutni o'ziga juda yaqin tutib, kuyov qilib oldi.

Xullas, shuhratli turk qavmlaridan uyg'ur podshohi Chingizxonga ko'ragon bo'lib, katta hurmat-ehtiromga muyassar bo'ldi. Lekin, Chingizxon o'ziga qo'shilmagan va dushman bo'lgan turk qavmlarining qarshiligini ayovsiz bostirgan, ayniqsa, hukmronlik mavqyeini ko'tarib olgach, mustaqil turk qavmlariga qarshi bosqinchilik hujumlari uyushtirishga kirishdi va ularning el-yurtini vayron eta boshladi.

To'g'ri, ba'zan vayronaga aylantirilgan o'lkaga o'sha yerli tipk qavmidan hokim tayinlashga majbur bo'lgan. Lekin, u "qo'g'irchoq hokim" bo'lgan. Masalan, mo'g'ullar Jand qal'asini egallab, bip hafta davomida ul yerning xalqini g'orat qildilar. Shaharlarini yer bilan barobar etdilar. Buxoroning G'ijduvonidan bo'lgan Alijonni uning hokimi etib qo'yidilar"<sup>2</sup>. Qayd etish lozimki, bu kabi vayronagarchilikda ba'zi turk qavmlari ham mo'g'ullar bilan ishtirok etganligi aytiladi. Masalan, "Barchin shahrini olish uchun bir amirni bir tuman turkiy

---

<sup>1</sup> . Мирзо Улуғбек.Тўрт улус тарихи, 105-б.

<sup>2</sup> . Мирзо Улуғбек.Кўрсатилган асар, 144-б.

lashkar bilan jo'natdi. Shahar- ni musaxxar qilib, ularga dorug'a qoldirdi"(144-b.). Jumladan, Chingizxon Eron mulki sari yurishida turkiy qavmlardan, qorlug' qavmi hokimi Arslonxon, uyg'ur elatining hokimi Idiqt, qangli qavmining' boshlig'i Shaykunok Tegin va boshqalar o'z qabila-elatlari, sipohlari bilan Chingizxon qo'shini tarkibida ishtirok etishgan. (138-b.)

Chingizxonning jahongirlikida turkiy qavmlarning ko'rinarli darajada ishtiroki bo'lgan. Jumladan, bu haqda Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asaridagi quyidagi ma'lumotlar xarakterlidir: "Odam Ato zamonidan bugungi kungacha biron podshohning sipohi turklarnikidan mufassal bo'lmagan. Faqat turklarning bir o'zidan tuzilgan katta-katta harbiy qismlar Chingizxonning Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlar ustiga qilgan yurishlarida faol ishtirok etganlar. Asarda "*(Chingizxon) Jo'jixonni Barchin (Barchinlig'kent) shahrini olish uchun tuman turkiy lashkar bilan jo'natdi*"; "*Koshin yurti (Xitoyning shimoliy-g'arbiy hududida joylashgan mustaqil Tangut ulusi)ning tangutlarini turk otlarining oyog'i ostiga tashladilar*"<sup>1</sup> kabi bir qancha berilgan ma'lumotlar muhimdir.

Ayniqsa, Chingizxon o'z qardoshi (Amir Temurning to'rtinchi bobosi) Qorachor nuyonni juda hurmat qilgan, unga ishongan va suyangan. Shu sababli u Movarounnahr va unga yondosh bo'lgan viloyatlarni ishonchli va suyuqli o'g'li Chig'atoyga ulashganda unga rahnamo, maslahatchi va sodiq yordamchi sifatida qadrdon do'sti Qorachor nuyonni tanladi. Chig'atoyxon bilan Qorachor nuyon o'rtasida ota-bolalik ahdnomasini tuzgan. Masalan, "*...Chig'atoyxonni Qorachor nuyonga topshirib, "...Mening tiriklik paytimda mamlakat va lashkar ishida qanday maqomga ega bo'lsang, mendan keyin Chig'atoyxon uchun ham shu yo'lni tutasan!*",- dedi. Ularning orasiga ota-bolalik ahдини soldi va ikki tomon bu ahdnomaga imzo chekdilar". (200-b.)

Ma'lumki, tarixiy manbalarga ko'ra Chingizxon zabt etgan yerlarning ba'zilari turkiy qavmlarning poyi-qadami tekkan yoki (mo'g'ullar qarshiligiga uchrab) yengilgan turkiy qochoqlar va hukmronligini qayta tiklash uchun madad so'rab borganlardan iborat bo'lgan. Bu haqda Ulug'bekning asarida ham quyidagi satrlarni o'qish mumkin: "*Mutabar tarix manbalarida zikr qilinishicha, Xorazm fath qilinganidan so'ng Sohibqiron a'zam Chingizxonni muazzamning amriga muvofiq Jo'jixonga Xorazm viloyati va Dashti Qipchoqni to Qiyoliq*

<sup>1</sup> . Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар.-Т.: Ўқитувчи, 1994., 322-323-бб.

*sarhadidan Soksin, Jarar, Bulg'or, Alon, Boshqird, Urus, Cherkasgacha va qayergaki totor otlarining tuyog'i yetsa, o'sha yergacha berilgan edi"* (221-b.) Ayniqsa, bu kabi ma'lumotlarni Muhammad Xorazmshohga qarshi yurishlari haqidagi fikrlardan yanada yaqqol anglash mumkin. Chingizxon Muhammad Xorazmshoh va uning o'g'li Jaloliddinni ta'qib qildi. Eron, Xuroson, Kavkaz, Arabiston va boshqa o'lkalarni zabt etishda gunohsiz aholini qon qaqshatgan, qirg'in barot qilgan, el-yurtini xonavayron qilgan. Asardagi bu kabi ma'lumotlar yuqoridagi fikrimizni yanada quvvatlaydi. Shu sababli ko'pincha tarixiy asarlarda Chingizxon istilosining barcha davrlari salbiy holda tilga olinadi.

Lekin ba'zi tarixiy manbalarda Chingizxon va uning hukmronligi bo'yicha salbiy tasvirlar bilan birga ijobiy tasvirlar ham beriladi. Bu haqda yuqorida ba'zi fikrlar qayd etilgan bo'lsa-da, yana anchagina fikrlarni keltirish mumkin. Bu borada fikr yuritishdan avval Chingizxonning nasl-nasabi, tug'ulgan joyi va siyosiy maydonga chiqishi hamda saltanatga ega bo'lish davrlari haqida qisqacha fikr yuritish o'rinli deb bildik.

Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida Chingizxon va uning sulolasi haqida ikki xil tasvirdagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ayniqsa, Chingizxonning dastlabki faoliyati, hokimiyat uchun kurashlarida ancha ijobiy fikrlar aytilgan. Asarda Chingizxon turkmo'g'ul qavmi tarzida o'z o'tmish qavmlari va turkiy davlatlarning yerlarini birlashtirish, o'zaro inoqlikni yuzaga keltirish bir-biriga qarama-karshilikni yo'qotishni istovchi hukmron sifatida qaraladi. Lekin shu maqsad o'ta dahshatli urushlar bilan amalga oshirilishi ham fosh etilgan. Chingizxonga qo'shilmagan va o'z mustaqilligini saqlab qolish uchun qarshilik qilgan qavmlardan qattiq, xatto o'ta dahshatli o'ch olganligi ham ochiq oydin bayon etilgan. Masalan, Jand, Xo'jand, O'tror, Hisor, Buxoro kabi ko'p joylardagi voqyealar ham juda dahshatli bayon etilgan. Bu voqyealarning aksariyati Muhammad Xorazmshoh va uning o'g'li qasosi uchun yuz bergandek tuyulsa-da, aslida asardagi bayon qilingan asosiy voqyealar bosqinchilik, talon-tarojlik shaklidagi urushdan darak beradi.

Shu kabi Chingizxon va uning ba'zi o'g'illarining el-yurt obodonchiligi va mehr-shafqat, dinu imonlar yo'lidagi ijobiy ishlari ham qisman qayd etilgan. Bular haqida bir misol keltirish bilan kifoyalanamiz. "*Ma'lum bo'lishicha, Halokuxon ibn Tulixon doimo uylarini va oliy qasrlarini ta'mirlashga, himmatini sarf etar va ilmu*



*hikmat ahlining suhbatiga benihoyat rag'bat ko'rsatar edi. Chunonchi, Nasiriddin Tusiy uning farmoni bilan Tabrizdagi Marog'ada qurgan rasadxona Halokuxon- dan qolgan yodgorlikdir. Bu imoratning ajoyib-g'aroyib sharxlari tarix kitoblarida bayon va ayon etilgan". Shu kabi Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida ham Chingizxonning ba'zi avlodlari haqida quyidagi ijobiy fikrlarni o'qiymiz: "Chingizxondin to'qquz o'g'ul bo'ldi, birini oti Tuloyxondur, aning o'g'li Huloguxondur, aning o'g'li G'azon Mahmudxondur, islomga musharraf bo'lib, podshohi islom erdi. Makkaga va Madinai munavvaraga hayrati ko'b voqye' bo'lmish. Firot dengizidin bir arig' chiqarib, otini Nahri Mavsum qo'ydi"*<sup>1</sup>.

Demak, Chingizxon va uning sulolasi haqida ham Yevropa va rus olimlarining shu paytgacha aytgan fikrlarini turk-mo'g'ul o'tmishi haqidagi o'zimizning Sharq, aniqrog'i O'rta Osiyo olimlari, tarixchilarining asarlari asosida qayta o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Chunki, akademik B.Ahmedov aytganidek, mamlakatimizning "Chingizxon istilosidan to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelganiga qadar kechgan tarixi biz uchun qorong'u. "Tarixi arba' ulus" ("Go'rt ulus tarixi") da keltirilgan ma'lumotlar Sharafiddin Ali Yazdiyning "Muqaddimayi zafarnoma" va Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" iga hamda arxeologiya fanida qo'lga kiritgan ma'lumotlarga qo'shib o'rganilsa" bu tarixga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Ayni davrda bunday ishni amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratib berilgan...

Harholda, rivoyatlarga ko'ra, Chingizxon qadimdan davom etib kelayotgan Turkxon Yofas o'g'li turk-mo'g'ul qavmlari avlodidan biri sifatida talqin etilsa-da, u turk-mo'g'ul qavmining eng so'nggi avlodi, to'g'rirog'i turk-mo'g'ul qavmining mustaqil ikki qavmiga ajralgandan keyingi vakili, degan xulosa chiqishi mumkin. Shu kabi hozirgi mustaqil mo'g'ul xalqining shakllanishida yangi taraqqiyot davrini boshlab bergan hukmronlardan biri sanaladi.

Turk-mo'g'ul sulolasi tarixining zarvaraqlaridan keng o'rin olgan jahoniy saltanat va ma'naviyat sohibi mashhur jahongir sarkarda, sohibqironi a'zam Amir Temur ajdodlari haqida o'tmish manbalarida va hozir ham asarlarda ko'p fikrlar aytilib kelingan va kelinmoqda. Yuqorida qayd etilgan manbalardagi fikrlar bo'yicha Amir Temur sulolasi haqida ham ba'zi bir xulosalarimizni kelish mumkin.

---

<sup>1</sup> .Салоҳиддин Тошкандий. Кўрсатилган асар, 35-б.

Qayd etganimizdek, Amir Temur Ko'ragon ham Turkxon Yefas o'g'li avlodidan, ya'ni turk-mo'g'ul qavmi avlodidan sanalsa-da, u Tumanaxondan keyin turk va mo'g'ul qavmlari mustaqil elat tarzida tashkil topgan, ya'ni shakllanib bo'lgan davrlarda dunyoga kelgan. U mo'g'ul qavmidan farqli holda qadimgi turk qavmining eng so'nggi vakili bo'lib, shakllangan turkiy o'zbek davlati va xalqining yangi taraqqiyot bosqichini yo'l ochgan hamda hozirgi o'zbek xalqi va davlatining yuzaga kelgan poydevorni yuqori ko'targan mo'tabar siymolardandir.

Demak, tarixiy manbalarda jumladan, Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sida, Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asarida ham Tumanaxon turk-mo'g'ul qavmi sulolasining so'nggi hukmroni bo'lgan. Tumanaxondan so'ng bu qavm ikkiga-mustaqil turk va mo'g'ul qavmlariga bo'linib ketgan. Tumanaxonning Qabul (Quyuli) nomli o'g'lidan mustaqil mo'g'ul (Chingizxon) qavmi sulolasi boshlanganidek, Qochuli (Qochuvli) bahodir nomli o'g'lidan esa mustaqil turkiy qavmning sulolasi boshlangan. Aniqrog'i turkiy qavmning sulolasi Qochulidan so'ng Erdamli barlos, Sugu chechan, Qorachor nuyon, Iyjil nuyon, Ilangiz bahodir, Amir Burkil, Amir Tarag'ay va nihoyat Amir Temur hukmronligigacha davom etgan.

Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" asari Chingizxon va Amir Temur davrlaridagi tarixiy voqyealar o'ziga xos tarzda aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. Asardagi tarixiy ma'lumotlar akademik B. Ahmedov tomonidan talqin etilib, ajoyib fikr-mulohazalar bildirilgan. Biz ushbu o'rinda olimning fikr-mulohazalarining ayrim o'rinlarini alohida (aynan o'z holicha) qayd etishni lozim ko'rdik. Bu ma'lumotlar Chingizxon sulolasi bilan Amir Temur sulolasining aloqasi, nasl-nasab jihatidan munosabatlarini yoritishda muhim sanaladi. Zero, olim ushbu asarning tarixiy mohiyatini "Tarixi arba' ulus" asari haqidagi kirish so'zida va "Tarixdan saboqlar" kitobida<sup>1</sup> e'tiborli baholagan. Olim tomonidan aytilgan e'tiborli fikrlar quyidagilar: "...mazkur asarni to'rt ulus tarixini o'z ichiga olganligidan kelib chiqqan holda to'rt qismdan iborat deb aytgan edik. Asarni sinchiklab o'rganish va tarjima qilish jarayonida uning mundariyasi haqidagi fikrlarimiz o'zgardi. Uni taxminan muqadima va yetti bobga bo'lish to'g'riroq, degan fikrga keldik.

---

<sup>1</sup> .Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (Аҳмедов Б. "Тарих-и арбаъ улус" асари ҳақида).-Т.: Чўлпон, 1994, 3-14-бб.; Шу муаллиф- Тарихдан сабоқлар (Улуғбек ва унинг "Тарихи арбаъ улус" асари).- Т.:Ўқитувчи, 1994, 316-329-бб.

**Muqadimada** o'rta asr tarix ilmida hukm surgan an'anaga ko'ra, tangri taolo va uning elchisi payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vassalom va avlodlari sha'niga aytilgan hamdlar (maqto'vlar), Odam Atoning yaratilishi va islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar (Shis, Qaynon, Mahloyil va h.k.), Nuh allayhissalom va uning farzandlari tarixi qisqacha tarzda bayon etiladi.

**Birinchi bobda** Turkxon ibn Yofas va uning Turkiston zaminida podsholik qilgan avlodi (Abuljahon, Dibokuyxon, Kuyukxon va b.), tatar-mo'g'ul va turk qavmlari va ularning podshohlari (Mo'g'ulxon, Qoraxon, O'g'uzxon va h.) tarixi bayon etilgan. Ko'p narsalar boshqa asarlarda ham ma'lum, lekin bu yerda ayrim muhim ma'lumotlarni ham uchratamiz. O'g'uzxon davrida (muallifning so'zlariga qaraganda, O'g'uzxon va avlodi qadimgi Eronda hukmronlik qilgan peshdodiyalar bilan zamondosh bo'lganlar) amalda bo'lgan saroy qabul marosimlari tartibi, turk qo'shinlarining tuzilishi, ulus tizimi qo'llanilgan ("O'g'uzxon har shahzodani bir o'lkaga tayin qildi va ularga laqab va tamg'alar belgiladi"; usmonli turk sultonlarining shajarasi ham shular jumlasidandir). Mazkur bobda keltirilgan turklar va mo'g'ul qavmlari haqidagi ma'lumotlardan ko'rinishicha, turk va mo'g'ul qavmlari bir-biriga shu qadar yaqin va aralashib istiqomat qilganlarki, hatto ularning shajarasi ham aralash-quralash bo'lib ketgan. Bu holni biz Rashididinning asari (birinchi jildi) da va nemis sharqshunosi Gerxard Dorferning "Yangi fors adabiyotida turk-mo'g'ul elementlari" degan to'rt jildlik lug'atida ham yaqqol ko'ramiz.

**Ikkinchi bob** turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alankuva va undan tarqalgan avlod, ya'ni podshohlar (Buzunjor qoon, Buqoxon, Dutimenxon, Qobulxon, Boyg'urxon, Borton bahodir, Yasugay bahodir) tarixi bayonini o'z ichiga olgan. Bu bobda ham turk-mo'g'ul qavmlarining birgalikda, aralash-quralash bo'lib yashab kelganligi, ularning Turk diyori va uning boshqa qavmlari orasida tutgan mavqeyi, oddiy xalqning yeriga (yayloviga), aniqrog'i, o'z hukmdoriga birlashtirilganligi, ya'ni krepostnoy huquq, jaloyir qavmi boshliqlarining VIII asrga kelib kuchayib ketishi haqidagi ilm-fan uchun muhim ma'lumotlar uchraydi.

**Uchinchi bobida** buyuk jahongir Chingizxon tarixi bayon etilgan. Bu bobda keltirilgan ma'lumotlar ichida e'tiborga, moliklaridan mo'g'ul qo'shinlarining tuzilishi, Chingizxonning oq rangdagi to'qqiz poyali tug'i, quriltoy va boshqa qabul marosimlarida amalda bo'lgan tartib-qoidalar, turk eli, ya'ni naymanlar, qorluqlar, uyg'urlar, yoso va yusun

haqidagi ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ham aytish kerakki, Chingizxon zamonida turk-mo'g'ul qavmlari daha (o'nlik), sada (yuzlik), hazora (minglik) va tuman (o'n minglik)larga bo'lib qo'yilgan. "Tarixi arba' ulus" da yozilishicha, Chingizxon zamonida "hyech kim o'z dahasi, sadasi va hazorasidan boshqa joyga keta olmagay va boshqaning panohiga o'ta olmagay... Bunga xilof ish tutganlarni xalq oldiga qatl etadilarki, boshqalarga ibrat bo'lsin" mazmunida navkarlar uchun tartib-intizom bo'lgan.

Asarning **to'rtinchi bobida** aks ettirilgan voqyealar (masalan, yer-suv, ov qilinadigan qo'riqxonalar va undagi jonivorlar ham feodallarga birkutilishi kabilar) turk-mo'g'ul jamiyatida mavjud bo'lgan feodal munosabatlar haqidagi tasavvurimizni bir qadar kengaytirishga yordam beradi... Xususan, Chingizxonning shu qadar tez vaqt ichida ko'p mamlakatlar ustidan, xususan o'sha zamonaning eng qudratli davlatlaridan biri hisoblangan Xorazm imperiyasi ustidan g'alabasini ta'minlagan siyosatini tavsiflovchi mana bu misol ham diqqatga sazovordir: "Sohibqironi a'zam Chingizxonu muazzam biron dinu millatga yon bosmagan. Bir millatning ikkinchi bir millat ustidan taassubidan o'zini nari tutardi, musulmonlar toifasining ulamo va zohidlarini e'zoz ko'rardi", deyilgan ushbu asarda. Yana bir muhim misol: "Odam Ato zamonidan bugungi kungacha biron podshohning sipohi turklarnikidan mufassal bo'lmagan". Faqat turklarning bir o'zidan tuzilgan katta-katta harbiy qismlar Chingizxonning Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston, Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar ustiga qilgan yurishlarida faol ishtirok etganligi" ushbu bobda qayd etilgan.

Akademik B.Ahmedov tomonidan talqin etilgan ushbu ma'lumotlar tarixini Chingizxon shaxsiyatini va tarixiy davrni o'rganishda muhimdir. III-IV boblar haqida olim yana juda ko'p muhim ma'lumotlarni qayd etgan. Chunonchi, "Emil daryosi bo'yida bunyod etilgan shahar va unga tevarak-atrofdan ko'chirib keltiril 40 ming xonadon turklar, Ila daryosi bo'yida bo'lib o'tgan katta urushning tafsiloti, Balx shahrining qamal qilinishi va mo'g'ul armiyasi tarkibida Chingizxonning boshqa mamlakatlarning bosib olishida ishtirok etgan turk qo'shinlari va ularning sardorlari" kabilar shular jumlasidandir.

Akademik B.Ahmedov "Tarixi arba' ulus" asarining **keyingi uch bobi** bo'yicha ham muhim ma'lumotlarni qayd etgan. Ayniqsa, **beshinchi bobda** Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixon naslidan bo'lgan 33 xon zamonida Dashti qipchoqning tarixiga doir diqqatga sazovor ma'lumotlar qayd etilgan. Olim Dashti qipchoqda islom

dinining tarqalishi masalasida to'xtalib, "Tarixi arba' ulus" asarida hozirga qadar bu muhim ijtimoiy-siyosiy voqeya XIV asr boshida, ya'ni O'zbekxon davrida boshlangan degan fikrni inkor etuvchi ma'lumotlar borligini, ya'ni bu jarayon Botuxon va Barakxon (Berkaxon) podsholigi davrida boshlanganligini qayd etadi ("Tarixi arba' ulus" asarida Barakxon musulmon ayolni emib ulg'ayganligi, yaxshi musulmon kishi ekanligi, Buxoroda XII asrda yashagan mudarris Sayfiddin Boxarziydan ta'lim olganligi haqida ma'lumot berilgan). Xususan, qoraxoniylar tasarrufida bo'lgan yerlarda, chunonchi Oltoy, Ila vodiysi, Yettisuv va Koshg'arda istiqomat qiluvchi elatlar orasida islom dini X asrdayoq tarqala boshlaganligi va Chingizxon Movarounnahrni zabt etgach, Mo'g'ulistonda islom asosini mustahkamlash uchun Buxorodan bir guruh yirik musulmon ruhoniylarni ko'chirib olib ketganligi aytiladi. Chingizxon va uning avlodlari, to O'zbekxongacha yazdonparast bo'lganlari holda, musulmon aholiga ham, musulmon ruhoniylariga nisbatan ham yaxshi munosabatda bo'lib kelib, ularni ta'qib ostiga olmaganligi ta'kidlanadi. Demak, "Tarixi arba' ulus" asarida ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qavmlari musulmolik sharafiga ancha oldingi davrlarda muyassar bo'lganligi haqida muhim ma'lumotlar ham mavjud.

Mazkur bobda "o'zbek" etnonimining kelib chiqishiga oid o'ta muhim ma'lumotlar ham borligi qayd etiladi. Olim "Tarixi arba' ulus" asarida "o'zbek" etnonimining kelib chiqishiga oid keltirilgan ma'lumotlarni quyidagicha xulosalaydi: 1) Dashti qipchoqning sharqiy qismi va G'arbiy Sibir O'zbekxon Oltin O'rda taxtiga o'tirmasdan **birmuncha ilgari** ham "O'zbek ulusi" deb atalgan. Demak, **shu katta makonda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qavmlari umumiy nom- "o'zbek" nomi bilan atalgan;** 2). Shu paytgacha fanda "o'zbek" nomi xalq nomi sifatida XV asr oxiri-XVI asrning boshida Dashti qipchoqdan ko'chib o'tgan degan fikr hukmron edi. **"Tarixi arba' ulus" asarida berilgan ma'lumotdan esa "o'zbek" nomi, xalq nomi sifatida, Mavoraunnahrga ancha oldingi davrlardan boshlangan.**<sup>1</sup> (Bular haqida yanada kengroq ma'lumot olishga intiluvchi muxlislarga olimning "Tarixdan saboqlar" kitobini, xususan Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarini o'qishga tavsiya etamiz).

Amir Temur ana shu qadimiy turkiy-mo'g'ul qavm sulolasida turkiy o'zbek elatining to'ng'ich hukmroni bo'lgan. Bu haqda tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar bor, albatta. Masalan, "Temurnoma" asarida quyidagi satrlarni o'qish mumkin: "...o'zbeklardin Sohibqiron

---

<sup>1</sup>. Ахмедов Б.Тарихдан сабоқлар.-Т.:Ўқитувчи, 1994, 320-329-бб.

vujudga kelur, oti Amir Temur bo'lur.... Aning avlodi saltanat surgaylar.”(88-b.). “... hikmat kitoblarida ko'rib erdimki, axir zamonda o'zbeklar ichra Iskandari Soniy (Amir Temur-U.S.) tug'ulur, oni bir o'g'li kelib bu qulflarni ochqay.... Aydi, men Amir Temur o'g'li, Amir Turag'ay(Tarag'ay) naberasi, ul Qorachor nuyon naslidin deb, asvili kayvonlig'in, julusi ayvonlig'in bildurdi<sup>1</sup> (Mironshoh haqida-U.S.)”kabi.

Darhaqiqat, Amir Temur dastavval barcha turkiy qabila va elatlarni birlashtirib, ular o'rtasida mustahkam birlik, hamkorlikni vujudga keltirishga kirishgan. Bu birlik orqali mo'g'ullar sulolasini, ya'ni Chingizxon avlodlari hukmronligini yemirish va turkiy-o'zbek hukmronligini vujudga keltirishni maqsad qilib olgan. Chunki mo'g'ullar hukmronligi davrida deyarli barcha turkiy urug'-qabilalar, elatlar boshliqlari chingiziylar qo'l ostida xizmatda bo'lib, asosan ularning buyrug'iga ko'ra ish qilganlar. Turkiy elatlarning xuddi shu qaramligini bo'shashti-rish yoki tamoman yo'qotish, o'z haq-xuquqini tiklash uchun birinchi galda jabirdiyda xalq noroziligi kuchayayotgan edi va ular mo'g'ul hukmronligiga birinchi zarba berishga tayyor edilar.

Ikkinchidan, Amir Temurning siyosat maydoniga kelgan davr Chingixon avlodlarining o'zaro kelishmovchiligi, toj-taxt uchun kurashlari kuchaygan bir davr edi. Bu davrda ular o'rtasidagi o'zaro to'qnashuvlar, o'zboshimchalik, zo'rvonliklar, talon-tarochlik va bosqinchilik hurujlari haddan oshgan edi. Natijada, ana shu o'zboshimchaliklarning qurbonlari asosan mehnatkashlar, mahalliy xalqlar bo'lgan. Nohaq xo'rlangan va zo'rlangan xalq toqati toq bo'lib, ularga qarshi qo'zg'alishga majbur bo'layotgan edilar. Ba'zi turkiy o'zbek qavmining boshliqlari o'z mustaqilligi uchun kurashishga tayyorlanib, qulay vaziyatni, paytni kutmoqda edilar. Ular o'zni bilai xalq g'alayonlaridan foydalanishni rejalashtira boshladilar.

Demak, Amir Temur xuddi shu shart-sharoitdan foydalanib, chingiziylar hukmronligiga barham berish mumkinligiga ishongan, birinchi bo'lib kurash maydoniga otlangan dovyurak, tadbirkor, mohir lashkarboshi bo'ldi. Undagi boshqa qabila-elat boshliqlarini umuman, butun xalqni o'z so'ziga, maqsadiga ishontirib, o'z orqasidan zrgashtira oladigan xalq yo'lboshchisiga xos kobiliyat, xususiyatlar yoshlik davridanoq ma'lum bo'la boshlagan edi. Bu haqda Amir Temur va uning sulolasi tarixiga bag'ishlangan yozma manbalarning barchasida to'liq bayon etib berilgan. Hatto, ularda Amir Temur hayoti faoliyati

---

<sup>1</sup> . Салоҳиддин Тошкандий. Кўрсатилган асар, 88,171-66.

ilohiy kuch-qudratga ega bo'lgan afsonalar orqali izohlanadi. Ammo Amir Temur hayoti, shaxsiyati haqidagi tarix ham turli qarama-qarshilikka ega. Bu haqda ham ishonchli tarixiy manbalar asosida alohida fikr bildirish lozim bo'ladi. Bu kabi mavzular endilikda keng miqyosda o'rganilmoqda.

Umuman, yuqorida aytilgan fikrlar va xulosalardan bizningcha, shu narsa aniq bo'ladiki, turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti uch bosqichni o'z boshidan kechirgan:

Birinchi bosqich–ilk turk davr: Turkxon Yofas o'g'li, Almajnaxon, Debodkuyxon, Ko'kxon, Alinjaxon kabi turk qavmlari podshohlari davri.

Ikkinchi bosqich - o'rta turk davri: Alinjaxonning egizak o'g'li Mo'g'ul va Totor hukmronligi va asosan Mo'g'ulxon avlodlarining hukmronligi davri, ya'ni turk-mo'g'ul davri.

Uchinchi bosqich - mustaqil turk va mustaqil mo'g'ul qavmlari sulolasi davri, jumladan, shakllangan turkiy uzbek halqining va mo'g'ul xalqining yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi davri kabi.

Ushbu tarixiy fikrlar shuni tasdiqlaydiki, turkiy xonlar sulolasi mo'g'ullardan oldin boshlangan. Mo'g'ulxon hukmronligi davrida ham turk xonlari bilan mo'g'ul xonlari o'rin almashib turgan. Qayd etganimizdek, aslida mo'g'ullarning o'zi ham turkiy qavmlardan kelib chiqqan bir tarmoqdir. Masalan, manbalarda yozilishicha, Mo'g'ul va Qoraxon turk-mo'g'ul xonlari bo'lsa, O'g'uzxon va Buzanjarlar esa turk xonlari hisoblangan kabi. Bu davrlar o'rta turk, ya'ni turk-mo'g'ul xonliklari hukmronligi dari bo'lib, to Amir Temur davrigacha davom etgan. Aslida Chingizxon sulolasini ham o'sha qadimiy turk hukmronligining davomi deb qaralishi lozim bo'ladi. Tarixiy asarlarda "mo'g'ullar sulolasi" yoki "mo'g'ullar imperiyasi" deb atalib kelingan ibora aslida noto'g'ri qo'llanilgan. Zero, bu hukmronlikning tub ildizi, asosiy boshqaruv kuch kimlar bo'lganligini tushunmaslikdan kelib chiqqan. Chunki, yuqoridagi sahifalarda qayd etilganidek, birinchidan, Chingizxon hukmronligini shakllanishi va mustahkamlanishida turk qavmlari muhim va asosiy kuch sanalgan. Chingizxon boshchiligidagi oz sonli mo'g'ullar turkiy qavmlar mavqeyini to'liq sindra olmaganlar, aksincha ular turkiy qabilalar bilan hisoblashganlar, turkiy qavmlarga suyanganlar. Hatto, Chingizxon davrida ham turk qavmlarining ba'zi boshliqlari hukmronlikda mustaqil harakat qila olganlar. Masalan, Arslonxon, Idiqut kabi podshohlar shular jumlasidandir. Umuman, bu hukronlik turk-mo'g'ul qavmlari birligi bo'lgan. Shuning uchun tarixda

bu davr hukronligini faqat mo'g'ullar nomi bilan bog'lamay "turk-mo'g'ul hukronligini, "turk-mo'g'ul sulolasi", "turk-mo'g'ul imperiyasi" nomi bilan atalsa haqiqatga mos keladi.

O'rta turk, ya'ni turk-mo'g'ul qavmlari asosida yuzaga kelgan chingiziylar hukmronligining oxirgi davrida Amir Temur sulolasi yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu hukmronlik O'g'uzxon va Buzanjar kabi turk xonlari davridek, mustaqil turkiy qavmining sulolasi deb qaralishi lozimdir. Chuniki Amir Temur hukmronligida O'g'uzg'on va Buzanjir davridagidek mo'g'ul qavmi hukmronligiga qat'iy zarba berildi va turkiy hukmronligi yuzaga keldi. Chingizxon avlodlari hukmronligi tamoman yo'q qilindi.

Xullas, mashhur sarkarda, jahongir bobokalonimiz Amir Temur asos solgan buyuk saltanat turkiy-o'zbek hukmronligi sifatida temuriylar sulolasi nomi bilan jahon tarixining sahifasidan o'rin oldi. Bu saltanat hukmronligi Movaraunnahr, Xuroson va Hindiston o'lkalarida temuriyzodalar-Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Muhammad Bobur va ularning avlodlari tomonidan uzoq davr davom ettirildi. Temuriylar sullolasi Hindiston hududida temuriyzoda Bobur va uning avlodlari tomonidan davom ettirildi. Demak, temuriylar sulolasi besh yuz yil davomida siyosiy maydonda hukmronlik qildi. Afsuski, bu buyuk turkiy saltanatning tarixiy mohiyatini to'g'ri anglamaslik natijasida keyingi asrlar (sobiq sovetlar davri)da uni mo'g'ullar sulolasi bilan aralashtirib, buyuk mo'g'ullar sulolasi deb g'ayri ilmiy talqin qilingan. Aslida bunday qarashga hych qanday asos yo'q. Bu tarzdagi g'ayri ilmiy qarashlarni yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarimiz tamoman rad etadi.

#### ***14. Qadimgi yodgorliklardagi yozuvlar va ularga temuriylarning munosaballari***

Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davri ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar turkiy xalqlar, ayniqsa, o'zbek xalqining tarixida o'chmas iz qoldirgan. Uning hukmronligi davridagi mamlakatlarda, xususan, Movarounnahr o'lkasida ilm-ma'rifat, me'moriy qurilishlar, barcha xildagi ma'naviy qadriyatlar izga tushib, o'tmish merosiga ulanib, yanada taraqqiy etgan edi. Temuriylar davrida rivojlangan islom ma'naviyati bilan turkiy halqlarning o'ziga xos o'tmish ma'naviyati ham uyg'unlashib ketadi.



Temuriylar davrining muqaddas yozuvi sanalgan arab yozuvi va yodgorliklari bilan birgalikda turkiy va boshqa xalqlarning o'tmish yozuvlari va bitiklari ham o'rganilgan. Chunonchi, Sohibqiron Amir Temur saltanatida bobokalonlar udumiga ko'ra ba'zi muhim tarixiy hujjatlar va qadimiy yodgorliklar (nodir badiiy asarlar ham) o'tmish yozuvlarida (qadimgi turkiy-uyg'ur yozuvida) bitilgan yoki nusxalashtirilgan. Ba'zan esa o'tmish yozma manbalaridagi bitiklarni o'qib tushunish zarurati tug'ilgan. Bu sohada maxsus ta'limga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash zarurati yuzaga kelgan. Chunonchi, tarixiy yozma asarlarda temuriylar va ularning zamondoshlari ba'zi bir qadimiy bitiklarni o'qib, izohlab berishlari ushbu fikrni kuvvatlaydi. Bu fikrning tasdig'i sifatida Tumanaxon davrida kadimgi turkiy-uyg'ur yozuvida bitilgan Qobulxon (Quyuli) va Qochuvli bahodirxon ahdnomasining so'nggi satrlariga e'tibor beraylik: "Shu haqdagi qarorni uyg'ur yozuvida bitib qo'yidilar, har ikkovlari unga imzo chekdilar..." Xuddi ana shu ahdnomani To'g'lik Temurxon Amir Temurga ko'rsatganda Sohibqiron uni o'qib tushungan edi. "Temur tuzuklari" asarida ham Sohibqiron ushbu ahdnoma haqida fikr bildirgan<sup>1</sup> (qarang:20-b.).

Ushbu o'rinda aytish joizki, Amir Temurning o'qimishli, bilimliliigi haqida ham so'nggi davrlarda, ayniqsa, bizning asrimizda haqiqatdan yirok fikrlar aytib kelingan. Ammo tarixiy manbalardagi dalillar va sohibqiron zamondoshlari tomonidan keltirilgan ishonchli ma'lumotlar tahlili bu kabi asossiz aytilgan fikrlarga aniqlik kiritdi. Chunonchi, o'z davrining taniqli tarixnavisi sanalgan olimlardan Ibn Arabshoh, hatto, Amir Temurga nisbatan hamisha adovatda bo'lganligiga qaramay o'zining ("Ajoyib-ul maqdur fi-navoyibi Taymur") asarida bu borada sohibqiron haqida haqiqatni yozishga majbur bo'lgan. U o'z asarida yozishicha, mashhur arab donishmandi Ibn Xoldun Amir Temur bilan bevosita yaqindan suhbatda bo'lib, Sohibqiron "buyuk aql-zakovot(bilim) egasi" deb e'tirof etgan ekan.

Tarixnavis Hofizi Abruning "Zubdat-ut-tavorixi" va Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlaiy-as-sa'dayn va majmai bahrayn" kabi qator asarlarda ham Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining ilg'or bilimdoni, ijodkor, ilm-fan ahlining homiysi sifatida qayd etiladi. Ayniqsa, Amir Temur o'zining tuzuklarida shaxsiy yozishmalar- maktub (xat) larini o'z qo'li bilan bitganligini aniq qilib aytgan. Masalan, "...Tug'luq Tomurxonning oldiga borish-bormasligimni bilmay ikkilanib

---

<sup>1</sup> .Темур тузуклар, 20-б.

qoldim. Shu hol asnosida pirim (Toybodyiy) dan maslahat so'rab hat yozgan edim, ushbu mazmunda javob yozib yuboribdilar..."<sup>1</sup>. Hofiz Abruning yozishicha, Amir Temur kitob o'qishni yoqtirgan, bo'sh vaqtida hamisha kitob mutolaa qilgan Yoki har bir zaruriy ishda "Qur'on"ni varaqlab, fol ochishi, oyatlarni o'qib berishi uning yuksak savodxonligining yorqin dalilidir. U Qur'oni Karim oyatlarini barchasini yoddan ayta olgan<sup>2</sup>..

Manbalarda yozilishicha, Ku'oni Karimni turli ohangda o'qish bo'yicha hofizlar o'rtasida munozara va bahs olib borilganda Sohibqiron yig'ilgan jamoa ahlining talabi bilan Qur'oni Karimning "Baqara" surasini oxiridan boshiga qarab, oyatma-oyat yoddan aytayotganda, yettinchi oyatga yetganda ahli anjuman hayratdan unga tahsinlar aytishgan<sup>3</sup>. "Temurnoma"da yozilishicha, hatto, u o'tmish bilimlaridan xabardor bo'lgan, turkiy-mo'g'ul tillari bilan birgalikda arab, fors kabi bir necha tillarni va yozuvlarni ham bilgan. Va o'z farzandlari hamda zamondoshlarini ham bu sohaga jalb etgan. "Temurnoma" asarida yozilishicha, Sohibqiron Amir Temurga Sheroz o'lkasidan shoh Shujo' o'z nomasini elchi Hoja Abdurahmon orqali yo'llagan. Hoja Abdurahmon bu nomani shaxsan sohibqironning qo'liga topshirgan va shu onda Amir Temur xatni o'qib chiqkan. Masalan, "Anda Hoja Abdurahmon nomani chiqarib Amir Sohibqironga berdilar. O'qub ko'rsalar yozibdur... Amir Sohibqiron muni anglab, aytdilar, koshki shoir bo'lsam erdi, bularga she'riy javob aytur erdim". Ushbu satrlarni yana izohlash joyizdurki, bu nomaning bir qismi she'r (qit'a) bilan bitilganligi sababli Amir Temur ham o'z xatini she'r (qit'a) bilan yozishni istaganligi ta'kidlanadi.

Tarixiy-badiiy asarlarda temuriy shahzodalarning jang-jadallar davridagi sarguzashtlarida ba'zi o'lkalarda bo'lganida o'tmish yozuvlarida bitilgan ba'zi yodgorliklarga duch kelib, ularni o'qiy olganligi borasida hikoya qilinadi. Ular duch kelgan bitiklar qadimiy yunon-baktar yoki ibriy, turkiy-uyg'ur, yoyinki, qadimiy arab (rayhoniyy) kabi alifbolarda yozilganligi aytilgan. Bu haqdagi ma'lumotlar temuriylar davrida va so'nggi davrlarda yozilgan manbalarda ham uchraydi.

Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Sharofiddin Ali Yazd|iyning "Zafarnoma", Ahmad bin Muhammad ibn Arabshohning

---

<sup>1</sup> .Темур тузуклари,17-б.

<sup>2</sup> .Шомий.Зафарнома, 2-жилд, 162-б.

<sup>3</sup> . Шомий. Зафарнома, 1-жилд, 84, 104-105-бб.

“Ajoyib-ul maqdur fi-navoyibi Taymur”, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”si kabi qator tarixiy-badiiy asarlarda keltirilgan hikoyalarda qayd etilgan. Asarning ba’zi bir sahifalarida Amir Temur va shahzodalar qadimiy arab, fors va boshqa tillarga xos yozuvlarga duch kelganligi ketma-ket hikoya qilinadi.

Chunonchi, “Temurnoma”da Aristotel zamonasida bitilgan xat (bitik)lar haqida ma’lumotlar beriladi: “Hukamon Rum lavhani o’qidilar.... By yozilg’on Aristotilis degan hakimni xatidir”<sup>1</sup>. Ushbu ma’lumotlardan anglashiladiki yunon baqtar yozuvida yoki o’tmish yozuvlari asosida bitilgan yozma yodgorliklarni Amir Temur hukamolari orasida o’qiy oladigan maxsus kishilar bo’lgan. Hikoyatlar Amir Temur va temuriylar har bir yodgorlikning tarixi va siru-asrorini bilish bilan qiziqishgan. Ayniqsa, Sohibqironning o’g’illari qadimiy yozuv bitiklarini o’qib, ma’nosini tushuntirib berishlari borasidagi fikrlar xarakterlidir. Masalan, Mirzo Mironshoh Tus shahridagi bog’da bo’ladi. Unda bir nechta binolar bilan tanishib chiqadi. U binolarning darvoza-eshiklarida ilingan qulflardagi va bino ichidagi ba’zi qadimiy bitiklarni o’qishga muyassar bo’ladi.

“Temurnoma”dagi hikoyalardan yana birida Mirzo Umarshayxning qadimgi yozuvlaridagi ibriy xatini o’qiganligi aytiladi: “Sohibqiron hukamolar bila ... bir uy ichra kirdilar. Anda bir taxti toj yig’ochdin. Taxt uzra bir kishi uxlagan kabi yotur... boshi uzra fuloddin lavh, anda nachand satr yozilg’on, hyech kishi ul xatni o’qimoqg’a quvvati yetmadi.... bu xatti ibriydur.... Mirzo Umarshayx o’qib billi. Bu xatni yozuvchi Iskandar Zulqarnayn bo’lur”<sup>2</sup>.

Asardagi ushbu ma’lumotlar badiiy to’qima, bo’rttirish orqali hikoya shaklida yozilgan, albatta. Ammo biror bir shaxs yoki biror bir tarixiy voqyea badiiy qalamda (rivoyat tarzida) yozilar ekan, albatta uning dastlabki ildizi bor bo’lganligi ham aniqdir. Chunki, har bir hikoya, latifa yoki rivoyatlarning yuzaga kelishida biror bir narsa-predmet, hodisa asos yoki sabab bo’ladi. Zero, har bir rivoyat zamirida ma’lum darajada haqiqat yotgan bo’ladi. Chunonchi, Amir Temur kabi Jahongir, Umarshayx, Mironshoh va boshqa shaxzodalar o’z davrining yetuk bilim egalari ham bo’lishgan. Ular hukmronlik qilgan hududlardagi alifbo yozuvlari o’ziga xosligi bilan farqlangan. Shahzodalar bu yozuvlar bilan tanish bo’lib, hatto ularni o’qishni ham yoshlikdan egallashgandir.

---

<sup>1</sup> .Темурнома, 50, 184-66.

<sup>2</sup> .Темурнома, 183-6.

Demak, yuqoridagi hikoyatlar zamirida ma'lum darajada haqiqat ham yo'q emas. Chunki qayd etganimizdek, temuriylar o'zlari zabt etgan o'lkalarda yoki o'lja qilib olgan yodgorliklar orasida turli xildagi o'tmish yozuvlarida bitilgan satrlarga duch kelganlari aniq. Chunonchi, qulflardagi turli xil bitiklar, ibriy tilida yozilgan quti buyumdagi bitik, qabr toshlaridagi, lahvdagi tavhid satrlari hamda qadimgi uyg'ur va arab yozuvlaridagi ahdnoma-yodnoma, vasiyatnomalar shular jumlasidandir. Bu kabi yozuvlarni sohibqironga, goh temuriy shahzodalar, goh olimu hukamolar tomonidan o'qib tushuntirilganligi ham haqiqatdan yiroq emas. Chunki Amir Temur, umuman, temuriylarning barchalari savodli, yuksak saviyali, keng bilim sohibi bo'lishgan.

O'tmish yodgorliklarini o'z ko'zi bilan ko'rish va ulardan ma'naviy oziqlanish, ta'sirlanish natijasida temuriylar ham o'z mamlakatlari, el-yurtlaridagi mo'tabar ziyoratgoh joylarga alohida e'tibor borishgan. Ko'hna ilm-fan ziyolaridan bahramand bo'lish uchun esa ma'rifat o'chog'larini barpo etishgan. O'nlab xonaqohlar, madrasa-yu masjidlar qurdirganlar. Alloma-yu anbiyolar, o'tmish bobokalonlar qabrlarini obod qilib, sag'ana va ziyoratgoh binolar bunyod etganlar. Umuman, o'tmish udumlarini davom ettirganlar.

Temuriylar sulolasi tarixida ularning ajdodlari Nuh alayxis salomdan boshlanishi qayd etilganidek, barcha yozma manbalarda turkiy xalqlar avlodlari ham shu tarzda bayon qilinadi. Lekin ayrim manbalarda bu tarix ma'lum davrlar asosida to'ldirilib borilgan. Chunonchi, Oltoy, Xunn, Hoqoniya (Tukyu) va boshqa nomlar bilan yuritilib kelingan hukmronlik davrlari haqida yozma manbalarda ma'lumotlar ham bor. Xuddi shu nomlarga yaqin bir so'z, ya'ni "Xunkor" atamasi Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida uchraydiki, bizningcha, u o'tmishdagi Xunn nomi bilan atalgan turklar sulolasining davomi-avlodlari bo'lsa kerak. "Mochindan bir o'g'il tug'ildi. Uni bir qavm makri bilan xon atadilar. U Navmisxonki, Usmon ibn Atg'aral ibn Sulaymonxonning eng obruli bobolaridan edi. Hozir u Rum mamolikida Xunkorol Usmon nomi bilan shuhrat topgan"<sup>1</sup> (38-b.). Bugungi kunda Rum va Zang mamlakatlarida Xunkor nomi bilan shuhrat topgan Oliy Usmon sultonlarining ajdodlari bayoni zikridaki, O'g'uzxon naslidan hisoblaydilar"<sup>2</sup>. Ushbu asarning so'nggi sahifalarida Usmon sultonlari ham asli Movarounnahr sultonlari ajdodidan ekanligi yanada aniq qilib yozilgan: "Abo va ajdodi Usmon sultonlarining sultoni bo'lib kelgan

---

<sup>1</sup> .Мирзо Улуғбек. Кўрсатилган асар, 38-б.

<sup>2</sup> .Кўрсатилган асар, 58-б.

Movarounnahr sultonlari...” yoki “Samarqand voliysi, Sulton Usmon bo’lib, uni sultonlar sultoni deyishardi.U Bug’rixon va Ilikxon naslidan edi. Ular esa Movarounnahrning xonlaridan edilar”.(118-b.) Keltirilgan dalillar orqali yuqoridagi fikrni quvvatlasak Mirzo Ulug’bek turkiy xalqlarining Oltoy-Xunn davrlari yo’nalishidagi tarixidan ham xabardor bo’lgan deyish mumkindir. Ushbu fikr “Temurnoma” da ham qayd etiladi: “Rum saltanati Usmon G’oziy naslidindur.Rum beklari Turon beklariga nasabda yaqin bo’lur...”.

Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi” asarida o’tmish ma’naviy qadriyatlar, jumladan, yozuvlar haqida ham ma’lumot berilgan. Masalan, Chingizxon davrida qadimiy turkiy-uyg’ur yozuvidan keng qo’llanilganligi quyidagi dalillar orqali yoritib beriladi. Chingizxon “Mo’g’ul qavmlarining xati bo’lmagani uchun ularning farzandlari uyg’urlardan xat o’rganishsin”, dedi, daftarga sabt etdi” kabi <sup>1</sup>.

Ushbu o’rinda qayd etish lozimki, turkiy ajdodlarning qadimdan turkiy-uyg’ur yozuvidan foydalanib kelganligi “To’rt ulus tarixi” asaridagi ma’lumotlarda tasdiqlangan (qarang:76-b.).Ushbu asarining yana bir sahifasida bir farmon esa rayhon xatida yozilganligi ta’kidlangan: “O’zingiz to’g’ri deb topgan yoqimli farmonga hyech bir borada qarshilik qilmang. U rayhon xatida yozilganki, jonga sherik va yaqin bo’lsin deb”<sup>2</sup>. Shu kabi asarda Kayxatu ibn Abaqoyxon davri qog’oz puldagi xitoy xati haqida ham ma’lumotlar berilgan. Demak, temuriylar bu kabi yozuvlardan ma’lum darajada xabardor bo’lishgan. Ular xati-savod, ilmu fanning ilg’or bilimdoni bo’lishga intilishgan.

Sohibqiron Amir Temur o’z davrining mshhur davlat va harbiy arbobi hamda zukko bilimdoni bo’la olgan. Uning ilmu ijod ahliga qilgan rahnamoligi, homiyligi va turkiy tilda bitilgan “Manzumai turk” asarining bevosita sohibqiron tahriri ostida yozilishi ushbu fikrni to’liq tasdiqlaydi. Amir Temurning tuzuklarini o’qigan har bir kishi, uning yuksak bilim sohibi ekanligiga shubha qilmaydi, albatta. Amir Temur saltanatidil uch til (arab, fors, turk tillari), asosan ikki til turkiy va forsiy tillar keng qo’llanilgan. Shuning uchun ham saroydagi devonxonada: sharxlovchilar, kotib va hattotlar, badiiy so’z ustalari va tarixnavislar ham turkiy o’zbek, ham forsiy tilda ish yuritishgan. Diniy-ta’limiy sohalarda arab tili ham qo’llanilgan. Temuriylar sulolasi davrida bu uch tildan turkiy o’zbek tili nisbatan ko’proq qo’llanilib, o’z mavqyeini tiklay boshlagan, rivojlangan arab, fors tillari qatoridan joy ola borgan.

---

<sup>1</sup> Мирзо Улуғбек. Кўрсатилган асар, 112-б.

<sup>2</sup> .Мирзо Улуғбек.Кўрсатилган асар, 200-б.

Chunonchi, o'z davrining taniqli tarixnavisi Sharofuddin Ali Yazdiy va tarjimon Abu Tolib Husayn kabi olimlarning o'z asarlarida "Temur tuzuklari" dastavval turkiy o'zbek tilida yozilganligi haqida bergan ishonchli ma'lumotlari, ayniqsa, Amir Temurning Amir Husaynga turkiy tilda bitilgan maktubidagi she'riy satrlari va hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Amir Temur bin Muhammad Tarag'ay Bahodir muhri bosilgan turkiy o'zbek tilida (1391) yozilgan farmoni yuqoridagi fikrimizni to'liq tasdiqlaydi. O'sha davrlarda Amir Temurning tashabbusi bilan ulug'langan turkiy-o'zbek tilida ko'plab asarlar yozila boshlagan. Turkiy-o'zbek tilining turli sohalarda qo'llanilishiga keng yo'l ochilgan edi. U davlat tili mavqeyiga ega bo'la borgan. Turkiy o'zbek tili davlat tili sifatida so'zlashuv va ish yuritish ishlari, hujjatchilikda keng joriy etilgan. Bunga yuqoridagidek manbalar ishonchli dalil bo'la oladi.

Temuriylar saroyidagi devonxonada arab yozuvi bilan birgalikda iste'moldan chiqib qolgan turkiy-uyg'ur yozuvi ham ochiq-oydin qo'llanilib kelinganligi haqida ishonchli ma'lumotlar va dalillar bizgacha yetib kelgan. Chunonchi: hozirgi Qozog'iston respublikasidagi Ulug'tov degan manzildan topilgan toshdagi bitik sohibqiron Amir Temur buyrug'i bilan yozilganidir. Bu yozuvning uch qatori arab alifbosida, arab tilida, qolgan 8 qatori turkiy tilda, turkiy-uyg'ur xatida bitilganidir. Shu kabi juda ko'p tarixiy-badiiy manbalar ham guvohlik beradiki, temuriylar davridagi devonxonada ba'zan muqaddas va noyob kitoblar hattotlar tomonidan turkiy-uyg'ur yozuvida ham yozilgan. Bu kabi kitoblarning aksariyati didaktik yoki diniy harakterda yozilgan bo'lgan. Masalan, "Qutadg'u bilig", "Sirojul kulub", "Mirojnoma", "Tazkira-i-avliyo", "Baxtiyornoma", "Yusuf haqida qissa" ("Qissai Yusuf" yoki "Yusuf va Zulayxo") kabi asarlar va bir qancha yorliqlar, hujjatlar hamda yodgorlik toshlardagi maxsus yozuvlar shular jumlasidandir.

Qadimiy yozuvlarni qo'llashdan maqsad ona tili va yozuvlarning o'tmishi (tarixi)ni yo'q bo'lib ketmasligiga yoki qayta tiklanishiga alohida ahamiyat berishdir. Ammo bu kabi yozuvlardan keng foydalanib bo'lmagan, chunki ular islom dinining muqaddas arab alifbosi oldida ojizlik qilishgan. Ularni keng qo'llash uchun imkoniyat yaratishga botina olmaganlar. Chunki, birinchidan u davrlarda islom dini va uning muqaddas yozuvi mutloq hokim edi. Ikkinchidan, Amir Temurning o'zi esa islom dinining mashhur bayroqdori edi. Shuning uchun islom va uning muqaddas "Qur'on" yozuviga nisbatan zid ish qilolmasdi. Xuddi

shu holat temuriylarning so'nggi avlodlari hukmronligigacha davom etdi.

To'g'ri, ularning ba'zilar ona tillarining har tomonlama rivojida katta imkoniyatlar yarata oldilar, lekin yozuvi masalasida ojizlik qildilar. Ular ona tilining alifbosi masalasida o'z fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bayon etdilar. Lekin fikr-mulohazalar o'z yakuniga yetmadi, hayotga tadbiiq etilmadi.

Jumladan, Xusayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Bobur o'z zamonasida turkiy o'zbek tilining mavqeyini ko'tarish yo'lida jiddiy yondoshdilar. Ayniqsa, Sulton Xusayn Boyqaro mohir so'z san'atkori, ona tilining mavqeyini ko'tarish yo'lidagi tolmas kurashchi Alisher Navoiy ta'sirida turkiy o'zbek tilini davlat tili sifatida mamlakat miqyosida joriy qildi. Bu borada farmon ham chiqardi.

Ma'lumki, turkiy elatlar orasida temuriylardan ancha oldin ham bu borada intilishlar bo'lgan. Masalan, o'tmish bobokalonlarimizdan XI asrning tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariy ham turkiy tilga xos bo'lgan alifboni yaratish zaruratni aytgan edi. U arab alifbosidagi yozuv turkiy tilning nutq tovushlarini to'liq aks eta olmasligini birinchi bo'lib ta'kidlab, bu masalaga jiddiy yondoshish lozimligini yqtirgan edi. Xuddi ana shu o'tmish bobokalonlarimiz izmidan borgan temuriy Zahiriddin Muhammad Bobur ham arab yozuvining turkiy tili nutq tovushlarining to'liq ifodalashda, hatto, bu yozuvni o'zlashtirishda ham qiyinchiliklap mavjudligini sezgan. Arab yozuviga nisbatan soddaroq, osonroq alifboni tuzish yoki arab yozuvini isloh etish masalasini temuriylardan birinchi bo'lib ko'tarib chiqdi. U ushbu masalaga qat'iy yondoshib, arab yozuvi asosida o'zining alifbosi-turkiy o'zbek alifbosini yaratdi. Lekin uni mamlakat miqyosida tadbiiq etishga jurat qila olmadi. Chunki arab alifbosi muqaddas "Kur'on" yozuvi deb ham qaralgan. Shu bois Bobur hukmron, davlat boshlig'i bo'lishiga qaramay, zamona murosasozligiga qarab, o'z hukmini ijro etishga botina olmagan.

Natijada, tarixda "Xatti Boburiy" nomi bilan atalib qolgan alifbo mamlakatda joriy etilmay qolgan edi. Shunga qaramay, bu kabi intilishlar turkiy-o'zbek yozuvining yanada takomillashuvi sari bir qadam olg'a borish hisoblanadi. Chunonchi, temuriylarning ona tili va uning alifbosi borasidagi har qanday mo'tabar ishlari o'z milliy ma'naviy qadriyatlarining ulug'lashidan va yanada taraqqiy etishga imkoniyat yarata borganliklaridan dalolat beradi. Darhaqiqat, o'sha davrlarda ularning sa'yi harakatlari tufayli milliy udumlar, an'analarning rivojiga keng yo'l ochilgan edi. Natijada, mamlakatda ma'naviy

buyuklik, mustaqillikka erishilib, adolat va tartibga asoslangan qonunlar yaratildi.

To'g'ri, Temur va shahzodalar faoliyatidagi bu kabi ijobiy xususiyatlarga zid holda anchagina salbiy ishlar ham mavjud bo'lgan, albatta. Bu haqda tarixiy manbalardagi ma'lumotlar ham guvohlik beradi. Ayniqsa, "Zafarnoma" kabi asarlar bu boradagi asosiy manbalardan sanaladi. Xususan, Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si ishonchli va tarixiy ma'lumotlarga boy manbaligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Chunki, uning muallifi Ali Yazdiy Amir Temurning bosh devonida solnomachi bo'lgan. Shu kabi Sohibqironning jahongirlik harbiy yurishlarida bevosita ishtirok etgan.

Jahongir vafotidan so'ng ham temuriylar saroyida, jumladan, Shohrux Mirzo uning o'g'li Sulton Ibrohim Mirzolar saroyida xizmat qilgan va Ibrohim Mirzo taklifi bilan hijriy 840 (milodiy 1437) yili "Zafarnoma" nomli tarixiy-ma'muar asarini yozishga kirishgan va 1425 yilda ushbu asarni yozib tugatgan<sup>1</sup>. Shuning uchun ham Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari temuriylarga bag'ishlangan manbalar orasida alohida o'rni bor va unda keltirilgan ma'lumotlarda ancha aniq haqiqat mavjud. Jumladan, asarda temuriylar uzok yillar davomida olib borgan urushlari natijasida, umuman, harbiy yurishlar davridagi salbiy oqibatlar to'liq o'z aksini topgan. Shu kabi asarda temuriylar faoliyatidagi ijobiy ishlarga ham ancha to'g'ri yondoshilgan.

Taniqli tarixnavis olim Ibrohim Mo'minov "Zafarnoma" asarining tarixiy qiymati haqida fikr yuritib, asarda ayrim ma'lumotlar, voqyealar tarixiy dalillarga asoslangan bo'lsa-da, ular badiiy tarzda ham yoritilganligi qayd etadi. Shunga qaramay, Zafarnoma'ni Temur va uning davlatchilik tarixini o'rganishda eng qimmatli tarixiy manba deb qaraydi. Bu haqda Yazdiyning "Zafarnoma" sidagi quyidagi fikrlarni yanada mo'tabarligini uqtiradi: "bu tarixiy asar ("Zafarnoma) boshqa shu xildagi asarlardan farq qilib, turk tilidagi va Temurning o'zi aytgan so'zlari asosida yozilgan kitoblarga suyangan. Kitobdagi fikrlarga o'quvchida gumon hosil bo'lmasligi uchun asarning ushbu tomonini ataylab qayd etamiz". Ali Yazdiyning bu fikrlaridan asar haqiqatdan ham ancha ishonchli ma'lumotlar asosida yaratilgan. Bu fikr muallifning quyidagi fikrlarida yana o'z tasdiqini topadi:

"Uning (Ali Yazdiyning - U.S.) aytishicha, Temur bosh devonida "Manzumi turk" asari turkiy tilda tuzilgan. Ushbu asar yozilayotganda uning parchalarini Temur necha martalab o'qib chiqqan, ba'zi joylarini

---

<sup>1</sup> . Шарафуддин Али Яздий. "Зафарнома". –Т.: 1972.



tuzatgan, tahrir etgan, qo'shimcha dalillar zarur bo'lib qolganda o'sha voqeya sodir bo'lgan yerlarga maxsus odamlar yuborib aniqlatirgan, voqyealarning doimo to'g'ri, xronologik tartibda hamda tarixiy haqiqatga mos ravishda yoritilishini talab qilgan"<sup>1</sup>. Xullas, Amir Temur uyg'onish davrining mashhur va tadbirkor hukmdori, salobatli va mard sarkardasi, buyuk davlat arbobi bo'lishi bilan birlikda yuksak madaniy-ma'naviy bilimlar sohibi ham bo'lgan. U o'z davridagi yuksak san'at va adabiyot namunalari qadrlagan, sevgan, ulardan hayot nafosati sifatida lazzatlana olgan. Shuning uchun ham uning davrida mamlakatda buyuk o'zgarishlar yuz berdi, fan, madaniyat ravnaqi uchun shart-sharoitlar vujudga keldi. Millatni va uning yozma adabiyoti, tarixi va boshqa ma'naviy qadriyatlari rivoj topdi, kamolotga erishdi.

### ***15. Temuriylar ilmiy markazi-akademiyasi va uning asoschisi***

Temuriylar davrining adolatparvar hukmdorlaridan sanalgan va ezgulik hamda ilm-ma'rifat homiysi, benazir inson Mirzo Ulug'bek o'zining noyob iste'dodi, olamshumul ilmiy kashfiyotlari - tadqiqotlari bilan asrlar osha qadrlanib, e'zozlanib kelinmoqda. Mustaqil O'zbekistonda an'anaviy tarzda uning tavallud kunini zo'r ehtirom bilan tilga olib, keng jamoatchilik tomonidan nishonlanib kelinayotganligi bu fikrning dalilidir. Olimning yurtimizda-hamisha (Samarqand shahri azimda o'tqazib ketgan ilm-ma'rifat "daraxti" va ezgulik mash'ali necha asrlar osha gurkirab yashnab kelmoqda. Samarqanddagi O'zbekiston Fanlari Akademiyasi bo'limining ish faoliyati fikrimiz dalili bo'la oladi. Ulug'bek asos solgan Samarqanddagi ilmiy markaz hozirgi kunda ham o'z salobatiga egadir.

Ma'lumki, Mireo Ulug'bek faoliyatida ikki yo'nalish mavjud. Birinchi faoliyati davlat hukmdori sifatida qaraladi. Ikkinchi qismida u xalqparvar, adolatparvar davlat arbobi, ayniqsa, ezgulik, ilm-ma'rifat homiysi, buyuk istedodli ijodkor, noyob bilim egasi sifatida namoyon bo'ladi. Unda bu ikki faoliyat ilk davridayoq uyg'unlashib borgan. Chunonchi, u o'z hukmronligining dastlabki davrlardayoq yurtdoshlarini ilm-ma'rifatli, ona vatanini esa obod va ko'rkam qilishga harakat qilgan. Shuning uchun ham dastavval o'z tasarrufidagi viloyatlarda ilm dargohlarini, masjid, madrasalar, rasadxona va kutubxonalar, madaniy me'moriy qurilishlar, yangi-yangi rastalar, bog'u-rog'lar, karvonsaroylarni barpo etishga kirishgan.

---

<sup>1</sup> . Kўрсатилган асар, 90-91-66.

Qayd etilgan ushbu ishlarda, ayniqsa, ilm maskani hisoblangan rasadxona qurilishida va u yerda amalga oshirilgan ishlarda o'z davrining mashhur va ise'dodli olimu me'morlaridan Qozizoda Rumiyy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi, Abdulali Birjandiy kabi siymolar jalb etilgan edi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, G'ijduvon va boshqa shaharlarda qurdirgan o'ziga xos me'moriy harakterga ega bo'lgan ajoyib madrasalar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Umuman, bu kabi bilim dargohlari juda ko'p yerlarda qurdirilgan edi. Ularning barchasida ham talabalarga chuqur ta'lim-tarbiya bera oladigan mudarislari tayinlangan, ayniqsa dunyoviy fanlardan chuqur saboq berishga qodir mavlono Muhammad Xavofiy kabi bilimdonlar, ya'ni barcha bilimlardan xabardor bo'lgan mudarrislar tayinlangan edi.

Ma'rifatparvar sifatida Mirzo Ulug'bek o'z xalqining ilm-ma'rifatli bo'lishini istagan. Shu bois, o'zi qurdirgan madrasalarning ko'zga ko'rinadigan joylarida "Har bir musulmon erkak va ayol uchun ilm istash (olish) farzdir" deb yozdirgan. Xullas, Mirzo Ulug'bekning bu sohadagi faoliyati ancha kengdir. Olimning asosiy faoliyati ilm sohasidagi ishlari hisoblanadi.

Qayd etganimizdek, Mirzo Ulug'bek aniq fanlar bo'yicha ilmiy kashfiyot-tadqiqotlar sohasida mashhuri olam bo'la olgan olimdir. U matematika, geometriya, algebra, trigonometriya, astronomiya, tibbiyot kabi murakkab fanlar va tarix, geografiya, adabiyot, san'at-musiqqa kabi ijtimoiy ilmlarning ham yetuk bilimdoni sanalgan. Ayniqsa, aniq fanlardan barchasini qamrab olgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning astronomik jadvali-1437 y.) asari ko'p yillik ilmiy izlanishlar mahsulidir. Unda Mirrix (Mars), Mushtariy (Yupiter), Utorud (Merkuriy), Zuhal (Saturn), Zuhra (Venera) kabi jami 1018ta yulduzning yog'dusi, o'rni va holati, yillik harakati hamda yulduz yilining uzunligi aniqlanib jadvalga tushirilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, asardagi har bir astronomik, umuman, hisob-kitob raqamlari hozirgi olimlarimiz hisobiga juda yaqin, hozirgi o'lchovdan deyarli farqlanmaydi. Jumladan, yulduzlar hozirgi hisobdan 1 minutu 2 sekundga farq qiladi. Asardagi asosiy kashfiyot uchinchi darajali algebraik tenglamaga olib kelingan bir gradusga teng sinus yoyining aniqlanishidir. Bu kashfiyot butun dunyoda tan olingan. Shuning uchun ham XVII asrning taniqli astronomi Yan Geveliy "Astronomiya darakchisi" nomli asarida jahonshumul olimlar-astronomlar Gipparx, Timaxaris, Ptolemey, Al Battoniy, Kopernik, Regiomontan, Volter, Gass, Tixo Brage, Jan Baptist Richchiolilar qatori Mirzo Ulug'bek nomini faxr bilan tilga oladi va

uning siymosini fan darg'alari qatoriga qo'yyadi. Chunonchi, Yan Geveliyning "Astronomiya darakchisi" asarida tushirilgan rasmlardan ham Mirzo Ulug'bekning dunyoviy bilim sohasidagi mavqeyi, o'zni qanchalik yuqori turganligini anglash qiyin emas. Masalan, rasmlarning birida buyuk allomalar davrasida Mirzo Ulug'bek munajjimlar xudosi Uraniyaning o'ng tomonida, birinchi o'rinda, ikkinchi rasmida esa to'qqiz nafar munajjimlar davrasida yana Uraniyaning o'ng tomonida, uchinchi o'rindan joy olgan. Umuman, Mirzo Ulug'bekning bu sohadagi bilimining naqadar ulug' ekanligi o'tmish va hozirgi allomalarimiz tomonidan qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu o'rinda Mirzo Ulug'bekning ijtimoiy fanlar sohasida ham ajoyib asarlari borligini qayd etish joizdir. Dastavval bu haqdagi fikrlarni ham "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asaridan boshlasak xato qilmagan bo'lamiz. Asarda yulduzlarning og'ish burchagini aniqlash munosabati bilan aholi yashaydigan 683 ta geografik joylar nomma-nom qayd etib o'tiladi. Bu tarixiy joy nomlari nafaqat geografiya balki, tarix, tilshunoslik-toponimiya fanlari uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, asarning muqaddima qismidagi birinchi bobda yulduz yili haqida gan yuritilganda Sharq xalqlari yil hisobining tarixi hamda u bilan bogliq bo'lgan urf-odatlar, e'tiqod-an'analar, milliy bayramlar va ularning kelib chiqish manbalari haqida qiziqarli fikrlar bayon qilinadiki, bu muallifning iste'dodli tarixnavis ekanidan ham darak beradi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bekning turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlangan "Tarixi arba' ulus" kitobi tarixshunoslik fani uchun muhim manba sanaladi.

Tarixnavislik an'anasiga ko'ra, Mirzo Ulug'bek "Tarixi arba' ulus" ning kirish qismida insonning kelib chiqishi, jumladan turkiy xalqlarning dastlabki afsonaviy kelib chiqish va tarqalish tarixi, payg'ambar va ambiyolar haqida va nihoyat turk-mo'g'ul qabila-elatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Asarning asosiy qismida Chingizxon va uning farzandlari, avlodlari boshqarayotgan mamlakatdagi XIII va XIV asrning birinchi yarmida yuz bergan ijtimoiy siyosiy voqyealar bayon qilinadi. Unda Chingizxonga tobe bo'lgan, lekin uning vafotidan so'ng alohida mustaqil davlatlarga aylangan to'rt ulus tarixi haqida badiiy-tarixiy ma'lumotlar berilgan. Asardagi tarixiy materiallar va ma'lumotlar O'rta Osiyo, jumladan, tarixini o'rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Ba'zi bir yozma manbalarda, masalan, Mir Alisher Navoiyning ta'kidlashicha, Mirzo Ulug'bek ajoyib badiiy ijodkor sifatida, unda

shoirlik xususiyati ham bo'lgan. "Tuhfatu surur" asari esa uning iste'dodli musiqashunosligidan guvohlik beradi. Shu kabi Mirzo Ulug'bek "Bilujiy", "Shodiyona", "Aqloqiy", "Tabriziy", "Usuli ravon", "Usuli bahriy" kabi qator ilmiy-badiiy asarlarning ham muallifi hisoblanadi.

Xullas, Mirzo Ulug'bsk ko'p qirrali va barakali ijod sohibidir. Bunday nufuzli ijodi bilan u nafaqat o'zining nomini, balki vatani, xalqi va sevimli diyori, ona shahri Samarkandning ham dovrug'ini olamga yoydi. O'zi kabi ular nomini ham jahonga tanitdi. Shuning uchun ham uning vatandoshlari u bilan faxrlanib, olimning ijodiga yuksak baho berib kelmoqdalar. Masalan, she'riyat mulking sultoni Alisher Navoiy ham buyuk allomaga yuksak baho berib, uning nomini faxr bilan tilga olgan:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,  
Ki olam ko'rmadi sulton oningdek.  
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,  
Ki davr ahli biridin aylamas yod.  
Va lek ul ilm sori topti chun dast,  
Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.  
Rasadkim bog'lamish - zebi jahondur,  
Jahon ichra yana bir osmondur.  
Bilib bu nav' ilmi osmoniy,  
Ki andin yozdi "Ziji Ko'ragoniy".  
Qiyomatga dekincha ahli ayyom,  
Yozuvlar oning ahkomidin ahkom.

### ***16. Temuriylar ezozlagan nodir yodgorlik***

*Bobolar tarixi, ular qoldirgan meros Quyoshga o'xshaydi.  
Ularga peshvoz yursing peshonang yorug', yo'ling porloq,  
umring ibratli, ko'zlariig nurli bo'ladi. Agar ulardan orqa  
o'girsang, faqat qora soyangni ko'rasan, xolos.*

*(Xurshid Davron)*

Qadim zamonlardan beri har bir qabila va elatlarning, umuman insonlarning o'ziga xos sig'inib kelgan diniy qarashlari, iymon-e'tiqodi, pand-nasihati va purmazmun hikmatlari, orzu-umidlariyu, oliy xotiralari bo'lgan. Ma'lum bir davrlarda insonlarning ana shu nodir hissiyotlarini mujasamlashtirib kelgan muqaddas kitoblari yuzaga kelgan. Ilk

davrlarda yaratilgan bunday asarlar juda nodir yodgorlik sanaladi. Jumladan, tarixiy manbalarda yozilishicha, diniy e'tiqodlarini majmuasini o'zida aks ettirgan muqaddas kitoblarning soni juda ham ko'p bo'lgan. Ammo bular orasida to'rttasi mashhur bo'lib, keng tarqalgan va nihoyatda muqaddas kitoblar sanaladi. Bular quyidagilardir: 1.Tavrot-bu zikr etilishicha, payg'ambar hazrati **Muso** Alayhis-salomga; 2.Zabur-bunda zikr etilishicha, payg'ambar hazryati **Dovud** alayhis-salomga; 3.Injil-bunda zikr etilishicha, payg'ambar hazrati **Iso** alayhis-salomga; Bu uchala muqaddas kitob islomiyatgacha yuzaga kelgandir.

4.Qur'oni Karim-bu kitob payg'ambari oxir, hazrati **Muhammad** alayhis-salomga nasib etgan vohiylar (islom diniga xos ko'rsatmalar, nasihatlar) to'plami bo'lib, "samoviy" kitoblardan eng so'nggisidir.

Ushbu kitoblar diniy ta'limotning asosi, muqaddaye dasturi bo'lishi bilan birga ularda milliy insoniy qadriyatlar, urf-odatlar, tarbiyaviy o'gitlar, ma'naviy madaniyatni aks etuvchi qimmatli manba hamdir. Diniy manbalarda yozilishicha, kitoblarning bir qismi "sahifalar"dan iborat. Bu sahifalar "Suhuf" deb nomlangan.Bir qismi yuqorida nomlari keltirilgan katta hajmdagi kitoblardir. Yuqorida qayd etilgan kitoblar ilk bor eng nufuzli va mashhur to'rt payg'ambarlarga nasib etgan bo'lsa, "Suhuf"lar ham qismlarga bo'linib, quyidagi payg'ambarlarga nasib etgan: 1). O'n suhuf Odam alayhis-salomga; 2). Ellik suhuf Shis alayhis-salomga;3). O'ttiz suhuf Idris alayhis-salomga; 4). O'n suhuf Ibrohim alayhis-salomga nasib etilgan"samoviy ko'rsatmalar"dir Ular Alloh tomonidan vahiy yo'li bilan yuborilgan ko'rsatmalar, ya'ni baxt saodatga erishish uchun kerakli yo'l-yo'riklar, bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlardir.

Xullas, insoniyatning hozirgi avlodlaridan asosiy qismi ana shu manbalar asosida, o'z diniy e'tiqodlarini amalga oshirib kelishmoqda. Qayd etilgan kitoblar diniy ta'lumotning asosi, muqaddas dasturi bo'lishi bilan birga ularda milliy insoniy qadriyatlar, urf-odatlar, tarbiyaviy o'gitlar, ma'naviy madaniyatni aks ettiruvchi qimmatli manba hamdir. Masalan, islomiy manbalarda nafaqat diniy e'tiqodlar g'oyasi olg'a surilgan, balki ularda haqoniyat, rostgo'ylik, insoniylik, poklik, xushxulqlik, sharmi-hayo, insof, mehr-oqubat, vatanprvarlik kabi oliy fazilatlar mujassamlashgandir. Chunonchi, bizning islom dinimizda va muqaddas "Qur'oni Karim" kitobimizda ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar chuqur o'rin olgan. Bunda oqko'ngil, har jihatdan toza va vijdonli, haqiqiy komil insonni tarbiyalab yetishtirishda asosiy vosita sifatida ikki

xususiyat uyg'unlashtiriladi: 1. Allohga va uning yo'lidagi diniy amallarga ibodat; 2. Ilm va insoniy tarbiyaga asoslangan e'tiqod.

Aslida barcha diniy qarashlar, toat-ibodatlar ham ilm va insoniy tarbiya asosida singdiriladi. Demak, bu yo'lda din va uning muqaddas kitoblarining mazmunini to'g'ri tushuna bilish va foydalanish zarurdir. Diniy manbalar va muqaddas kitoblardagi ana shu xususiyatlarni to'g'ri tushunib ulug'lagan buyuk ma'naviyat sohibi Amir Temur bobomiz ulardan o'z hayotida, farzandlari ta'lim-tarbiyasida keng foydalana olgan. Shuning uchun ham temuriylar nodir yodgorlik sifatida Qur'on kitobining dastlabki (asl) nusxasini nihoyatda ardoqlab, kelgusi avlodlarga yetkazishni o'zlarining muqaddas burchlari deb bilganlar.

Mana asrlar osha ushbu nodir yodgorlik bizgacha yetib keldi. Bu kitoblarni o'rganish esa hozirgi murakkab davrimizda qadriyatlarimizni qayta tiklashda, milliy axloqiy xususiyatlarni yoshlarimizga singdirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hatto shu asosda oliy o'quv yurtlarida "Dinshunoslik" fani o'qitilmoqda.

Ma'lumki, bizning madaniy tariximiz islom dini va shu din ta'sirida yaratilgan ko'hna ma'naviy madaniyat ildizi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan. Jumladan, Al-Xorazmiy, Farobiy, Imom-al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshgariy, Narshaxiy, Beruniy, Zamahshariy, Abu Tohirxo'ja, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur asarlarini islom madaniy ma'naviyatidan ajratish qiyin, albatta. Umuman, har bir yozma yodgorligimiz diniy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo'lgan ma'rifat, ma'naviyat yog'dusidir. Demak, ma'rifat yog'dusi uzoq o'tmishdan to bugungacha bo'lgan ma'naviy boyliklarimiz sanaladi. Shunday ekan, "Kur'oni Karim" ham ma'naviyatimiz boyligidir. "Qur'on Karim"ning (o'zbek tilidagi tarjimasi) 114 ta suradai iborat Har bir sura juda ko'p oyatlardan tashkil topgan. Ular moddiy borlikdagi eng kichik jonivor va hodisalardan tortib nihoyatda murakkab narsa va hodisalar haqidagi masalalar yechimidan iboratdir.

Qayd etilganidek, Qur'onda islom dinining ko'rsatmalari, qonunlari bilan birlikda juda ko'p pand-nasihat va o'gitlar mavjud. Masalan, Qur'ondagi "Baqara" surasining 26-27 oyatlarida asalari, chumoli kabi kichik jonivorlar haqidagi masal to'g'risida fikr bildiriladi. Bu masalning muqaddas diniy kitobda nima sababdan keltirilganligi qisqa va aniq bayon etiladi. Ushbu qisqa izohdan shu narsani anglash mumkinki. bu masal orqali borliqdagi barcha jonzod xoh u kichik bo'lsin, xoh u katta bo'lsin, xoh u foydali bo'lsin, xoh u zararkunanda

bo'lsin har birining o'zni, o'z rizqi-ro'zi bor. Ular teng muvozanatda yashashlari zarur. Agar shu muvozanat buzilsa, ya'ni ularning birortasining risqi-ro'ziga zarba berilsa, xiyonat etilsa uning oqibati yomon bo'lishi mumkin, jamiyatdagi (jumladan, tabiatdagi) tenglik yo'qoladi, ya'ni ekologik muvozanatning buzilishi yuzaga keladi. Umuman, Qur'on oyatlarining ko'pchiligi jamiyat va tabiatning sofliigi, buzilmasligi uchun zarur bo'lgan qimmatli pand-nasihatlar, ma'naviy tarbiyaviy o'gitlardan tashkil topganki, ularni ilmiy nazariy jihatdan sharxlab o'rganilsa hozirgi ma'naviyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu muqaddas kitob asrlar davomida o'z o'rnini yo'qotmay kelmoqda.

Yozuvchi Xurshid Davron aytganidek, qadimiy yodgorliklarga bo'lgan qiziqish ko'xna o'tmishga nisbatan shunchaki havas yoki ermak emas, balki, kishidagi insoniy tuyg'udir. Chunki ular, ayniqsa, yozma yodgorliklar inson ma'naviyatining eng yaxshi xususiyatlarini ochib beruvchi tarixiy shahodatnomadir. Ana shunday shahodatnomalarning aslini, asl nusxasini bizgacha yetib kelishi esa quvonchli holdir. Jumladan, "Qur'oni Karim"ning asl nusxasi haqidagi ma'lumot ham ko'pchilikni qiziqtiradi, albatta...

Tarixiy yozma manbalar bu haqda (xalq og'zida qadimdan aytilib kelinayotgan rivoyatlar asosida) turli xil ma'lumotlar beradi. Bulardan ba'zilarida haqiqat bor, albatta. S.Xasanov tomonidan tuzilgan "Islom dinining asoslari" nomli risolada Qur'on payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomga olloh tomonidan yuborilganligi qayd etiladi. Demak, Qur'onning asl nusxasi dastavval hazrati Muhammad alayhis-salom qo'lga "samoviy vahiy" tarzida kelib tushgan. Ushbu muqaddas "samoviy vahiy" Muhammad alayhis-salom tufayli to'plam (kitob) holida yuzaga kelgan. Ammo u dastlab, mukammal kitob holida tartib berilmagan bo'lsa kerak, chunki payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom vafotlaridan so'ng bu kitobning asl nusxasi aniq bir kishining qo'lida qolmagan. Taniqli yozuvchi Xurshid Davron o'zining "Samarqand xayoli" nomli kitobida tarixiy manbalarga asoslanib yozishicha, hazrati Muhammad alayhis-salom vafotlaridan so'ng tarqoq holatda bo'lgan Qur'on qismlari to'planib, xalifa Usmon tashabbusi bilan muqaddas kitobning to'liq matni yaratildi va islom tarixida bu yagona nusxa uning nomi bilan qoldi. Aslida Hazrati Usmon rahnamoligida Qur'onning yagona nusxasi kotib Muhammad Zayd ibn Sobit ko'magida va payg'ambarimiz hazrati Muhammad alayhis-salomning ba'zi hayot bo'lgan safdoshlari guvohligida tuzilib, kitobot

qilingan edi. So'ng ushbu Qur'onidan yana beshta nusxalashtirib Makka, Madina, Damashq, Kufa va Basra shaharlari ixtiyoriga jo'natilgan. Kitobot qilingan birinchi nusxasi esa, hazrati Usmon qo'lida qolgan. Hazrati "Usmon ibn al-Affon (644-656 yy.) uchunchi xalifa bo'lgan. Mashoyixlar payg'ambarimizning ikki qiziga-dastlab Ruqiyaga, uning vafotidan so'ng esa Umm-Kulsumga uylangani uchun hazrati Xalifa Usmonni "Ikki shams egasi"deb atashgan.

"Ikki shams egasi" deb atalgan Xalifa Usmon o'ldirilgandan so'ng ko'p o'tmay, mana shu birinchi (asl) nusxa yo'qolgani ma'lum bo'ldi. Ko'hna bitiklar yillar o'tib uning goh u, goh bu shaharda paydo bo'lgani haqida hikoya qiladilar" (132-bet). Demak, ushbu aytilganlardan shuni o'qish mumkinki, xalifa Usmon rahnamoligida tartib berilgan birinchi kitobot-"Kur'oni Karim"(aslida bu nusxadan avval Muhammad alayhis-salom davrida "samoviy vahiy" kitobot holiga keltirilgan deb taxmin qilingan) asl nusxaga mos keladi. Shuning uchun uni hozirgacha Qur'onning asl nusxasi deb qarab kelingan. Temuriylar davridan beri xuddi ana shu asl nusxaning saqlanadigan asosiy joyi bizning qadimiy shahrimiz Samarqand hisoblangan edi....

Xo'sh, xalifa Usmon "Qur'on"i qanday qilib yurtimizga, to'g'rirog'i Samarkandga kelib qolgan? Bu savolga javob bo'ladigan ma'lumotlar tarixiy manbalarda turli xildir. Abu Sa'id ibn Abdulxayning o'g'li Abu Tohirxoja o'zining "Samariya" asarida yozishicha "Xalifa hazrati Usmonning (tangri undan rozi bo'lsin) qo'lida Qur'onning birinchi nusxasi bo'lgan va Xalifa shu Qur'onni o'qib turgan chog'ida kofirlar tomonidan shahid qilingandir. Shunda xalifaning qoni u o'qib turgan Qur'on betiga sachragan bo'lgan. Xalifaning to'kilgan muborak qonining izi hali ham shu Qur'onning betida bor. Ushbu Qur'onni Amir Temur Ko'ragon keltirib o'z dahmasiga qo'ygan ekan. Viloyatning buzuqchiligi chog'ida u yerdan olinib hoja Nasriddin Ubaydullo Ahror madrasasi (Madrasai safed)ga qo'yilgan. Ushbu Qur'on kiyik terisiga kufiy xat bilan yozilgan. Xalifa Usmonning qutlug' qoni qora-qizil tusda ko'rinib turibdi. Xalq ushbu Qur'onni muborak bilib, ziyorat etishadi. (Samariya, 1991 yilgi nashri, 44-bet).

Buxorolik mashhur tarixnavis Abu Bakr Muhammad ibn Jafar an-Narshaxiy (286-348, 899-959 y.) o'zining "Buxoro tarixi" asarida yozishicha, Xuroson amiri Ubaydullo ibn Ziyod amirlikdan tushirilgach (675-676), uning o'rniga Sa'id ibn Usmon Xuroson amiri sifatida Buxoroga keladi, so'ng Samarqandga o'tadi. Bu haqda "Buxoro tarixi" kitobida quyidagicha ma'lumot bor: "Sa'id hazratlari Buxoro ishlaridan



forig' bo'lgach, Samarqand va Sug'dga borib, ko'p janglar qildi va zafar uning tomonida bo'ldi. U vaqtda Samarqandda biror podshoh yo'q edi. Sa'id hazratlari Samarqand dan o'ttiz ming kishini asir qilib, ko'p molni qo'lga tushirib qaytdi". Bizningcha, Abu Tohirxoja ham ushbu o'rinda Xuroson hokimi hazrati Usmonning o'g'li Sa'id hazratlarini nazarda tutgan bo'lsa kerak. Chunki "Samariya" asarining o'zida ham Abu Tohirxoja hazratlari Usmonni o'g'li Sa'id hazratlarining Movaroun nahrda, Samarqandda bo'lganligini qayd etadi.

Masalan, "Usmon o'g'li hazrati Sa'id yarash yo'li bilan Samarqandni olib, xalqini musulmon qildi. Dinni kuchaytirmoq va shariat hukmlarini yurguzmak tilagi bilan Qusam ibn Abbos hazratlarini bir necha islom qo'shini bilan birga bunda qoldirgan" (29-bet).

Abu Tohirxo'janing yozishicha, tarixiy manbalarda, masalan, G'iyosiddin Javhariyning asarida, "Qomus ul-a'lom"da, ayniqsa, Mo'min Hoji Muhammd al-Farog'iyning "Maorij an-nubuvat fi madorij al-futvat" nomli kitobida hazrati Qusam ibn Abbos payg'ambarimiz hazrati Muhammad alayhis salomning amakisi hazrati Abbos bin Abulmutallib ibn Hoshim al-Qarshi al-Hoshimiyning o'g'lidir. Hazrati Qusam hazrati Muhammad payg'ambar vafot etgan chog'larida tabarruk tanalarini yuvishda qatnashgan ekan.

Har qalay bizningcha, o'sha davrlarda Samarqand islomiyat uchun tayanch markazlardan bo'lganki, hazrati Muhammad alayhis-salomga eng yaqin kishilar Samarqand tuprog'ida yashagan. Ehtimol, hazrati Usmon "Qur'on"i ham ana shu avlodlar, balki, Usmonning o'g'li Sa'id yoki Husan ibn Abbos tomonidan Samarqandga olib kelingan bo'lishi mumkin, degan taxminimiz ham yo'q emas. Ana shunday taxminiy fikrlar haqida yozuvchi Xurshid Davron "Samarkand xayoli" kitobida quyidagicha yozadi: "bu haqda uch xil taxmin bor.

**Birinchi taxmin**ga qaraganda, uni X asrga yashagan, o'sha davrning nufuzli diniy arbobi Abu Bakir Kaffol ash-Shoshiy Bog'doddan Movarounnahr tuprog'iga olib kelgan (bizningcha, xuddi shu davrlarda ushbu Qur'onning tarjimasi-"Tafsir"ham yaratilgan).

**Ikkinchi taxmin**: Xo'ja Ahror madrasasida saqlanganidan bo'lsa kerak, ushbu Qur'onni Xo'ja Ahror shogirdlaridan biri (Hatto ba'zilar Xo'ja Ahrorning o'zi deyishadi) Makkaga hajga borib, qaytayotganda Kustantiyada turk sultonidan (boshqa ma'lumotlarga qaraganda haj davrida xalifani) davolab, evaziga shu muqaddas kitobni so'rab olgan deyishadi.

**Uchinchi taxmin** tarafdorlarining fikricha: xalifa Usmon “Qur’oni”ni, yuqorida Abu Toxirxo’ja Samarqandiy yozganidek, Amir Temur Shom yoki Iroq yurishi paytida o’z poytaxtiga olib kelgan (132-b.). Muallif ana shu uchinchi taxminga qo’shilgan. Lekin ko’pchilik tarixnavislar, jumladan, Aby Tohirxo’janing “Samariya” asarini nashrga tayyorlovchilar ham, Xo’ja Ahrorning tarjimai holi mufassal yozilgan “Rashaxot” kitobida ham hazrati Usmon “Qur’on”ni kim olib kelganligi haqida hech qanday ma’lumot yo’qligini qayd etishgan.

Shunga qaramay, keyingi davr ma’lumotlariga ko’ra, Halifa Usmon hazratlarining muqaddas “Qur’on”i buyuk jahongir sarkarda Amir Tsmur tomonidan Movarounnahr poytaxti Samarqand shahriga olib kelingan, degan xulosa ustun turadi. Xalifa Usmon hazratlarining “Qur’on”i nihoyatda katta hajmda bo’lganligi sababli Mirzo Ulug’bek Mo’g’ulistondan keltirilgan uchta katta toshning biridan ana shu “Qur’on”ni o’qish uchun lavh yasatgan (Samariya,68-b.). Ushbu tosh hozir ham Bibixonim madrasasi ichida saqlanmoqda.

Lekin Samarqandniig nodir yodgorligi “Qur’oni Karim”ning o’zi esa hozirgi davrda Toshkentda tarix muzeyida saqlanib kelinmoqda. To’g’ri, 1868-69 yillarda bosqinchi rus generallari Abramov va Fon Kaufmanlarning talon-tarojligi tufayli xalifa Usmon “Qur’on”i Peterburgga jo’natilgan edi. 1917 yilgi inqilobdan so’ng xalifa Usmon “Qur’on”i musulmonlar talabi bilan Ufa diniy mahkamasiga va keyinchalik 1923-24 yillarda Toshkentga, so’ng esa, o’z o’rni Samarqandga qaytarib keltirilgan edi, ammo an’analarga ko’ra barcha tarixiy yodgorliklar markaziy muzeylarda saqlanishi lozim degan qabilda yana Toshkentga olib ketilgan edi.

Mamnuniyat bilan ta’kidlash kerakki, shaxsan yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mustaqil respublikamizning ko’hna ilmfaniga, madaniy merosiga-yodgorliklarga, ularning tarixi va nomi unutilayotgan bunyodkorlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu kabi nodir yodgorliklar va shaxslarning mavqeyi hamda nomi qaytadan tiklandi. Ularning mavqeyi o’z o’rniga qo’yildi. Jumladan, ayni kunlarda Temuriylar davri madaniy ma’naviyatiga va ularning meroslariga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda. Bizningcha, shu munosabat bilan buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan olib kelingan ba’zi nodir yodgorliklar, jumladan, Xalifa Usmon hazratlarining “Qur’on”i ham hech bo’lmasa aynan o’zidek nusxalashtirib, ko’hna islom madaniyatiga boy shahar-Samarqand muzeyiga qaytarilsa ajab emas.

Qadimdan, ayniqsa temuriylar davrida dunyoga ma'shal Samarqand shahri bunday nodir yodgorliklarga ega bo'lishiga loyiqdir.

Zero, Samarqand tabiatan jannatnamo, mo'tabar va buyuk allomayu ulomalar, avliyo-yu ambiyolar tabarruk hoki yotgan maskandir. Ziyoratgoh Samarqand ham o'z shuhrati bilan yurtimiz poytaxti Toshkentdan qolishmasligi qadimdan ma'lum, albatta. Masalan, "Al-Ma'mun aytgan ekan: Shamning ko'zi-Damashq, Rumning ko'zi Kustantiya, al-Jaziraning ko'zi - ar-Rakka, Iroqning ko'zi - Bog'dod, al-Ibolning ko'zi - Isfahon, Xurosonning ko'zi - Naysobur va Movarounnahrning ko'zi-Samarqanddir" yoki Abul-Fath al-Bustiy Samarqandni ta'riflab quyidagi baytlarni aytgan ekan:

Ul dunyoda jannat bordir mo'minlarga atalgan,

Bul dunyo jannatining nomi erur Samarkand.

Balxni unga tenglashtirgan el bilmagan g'ofil zot,

Abu Jahl tarvuziga teng kelurmi, axir, qand.

Xa, shahrimizni chin dildan sevadigan hamshahrimiz Xurshid Davron Samarqand haqida aytilgan, kuylangan ushbu madhiyalarni o'z kitobida bejiz keltirmagan. Samarqand haqiqatdan ham qadimdan tabarruk joy, jahonshumul ilm-fan, madaniyat maskani, ulug' va mo'tabar allomalarni yetishtirgan tarixi uzoq bo'lgan buyuk shahardir. U islom tarixida, xususan, buyuk bobokalonimiz Temuriylar, Boburiylar davrlarida gullab yashagan, madaniy-ma'naviyat o'chog'i bo'la olgan mashhur va muhtasham, mo'tabar qadamjoydir.

Xullas, bu mo'tabar shahar tuprog'ida o'ziga xos juda ko'p tabarruk zot (Shohizinda-Qusam ibn Abbos, Amir Temur, Al-Buxoriy dahmalari kabi)larning ziyoratgoh maskanlarini va juda ko'p o'tmish yodgorliklarini, jumladan islom ma'naviyatida nodir va muqaddas asarlarni, jumladan Xalifa Usmon hazratlarining «Qur'on»ining asl nusxasini o'z bag'rida avaylab, asrab kelinganligi bilan yanada mashhur va qadrlidir. Shu sababli qadimi ajdodlarimiz va mo'tabar bobokalonlarimiz ruhini shod etib, shahrimizning o'tmish yodgorliklari qatori Xalifa Usmon hazratlarining "Qur'on"idan asliga o'xshash bir nusxa qadimiy poytaxt-Samarqand shahriga tuhfa etilsa yanada savob ish bo'lardi.

## ***17. Temuriylar davridagi iqtisodiy islohatlar va unga boburiylarning munosabatlari***

Tarixiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz ma'naviyat va iqtisodni insonning yashashi uchun asosiy omil deb bilganlar va ularning rivojlanishiga alohida ahamiyat bilan qaraganlar.

Ma'naviy barkamollik va iqtisodiy rivojlanish Xuroson va Movarounnahr o'lkalarida mo'g'ul istilochilari hukmronligining inqirozga uchrashi va Amir Temur davlatining vujudga kelishi bilan alohida rivojlanish bosqichiga ega bo'lgan. Temur davriga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy rivojlanish muhim soha sifatida davlatning e'tiborida bo'lgan. Amir Temur bu sohalar bilan shug'ullanuvchi devonxonalar-vazirliklar tashkil qilgan. Jumladan, "Temur tuzuklari"da quyidagicha fikrlarga duch kelinadi: «yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yer osti suvlarini yuqoriga chiqarish uchun ishlatiladigan inshoot, tizma quduqlar) qursa, biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron harob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hyech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat (soliq to'lovchi xalq, kishi) o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin».

Bundan tashqari temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvi va iqtisodiy qarashlarini, xususan, soliqlar tizimini aks ettirgan "Mubayyin" asarida bobokaloni Amir Temur tomonidan joriy qilingan va qo'llangan ko'pgina ishlar davom ettirilgan. Umuman, temuriylarning hukmdorlik davrlarida turli soliqlar devoni mol tomonidan amalga oshirilgan. Soliqlar tizimi esa islomiy qonun qoidalarga agoslangan.

Ma'lumki, temuriylar avlodiga mansub bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur tarixiy sharoit taqozosiga ko'ra Hindiston mamlakatida hukmdorlik qilishga mahkum bo'ldi. Hindiston mamlakatida Bobur nafaqat hukmdor bo'lgan, balki bu o'lkani u o'z vatanidek bilib, taraqqiyotiga katta ahamiyat berdi. Tilshunos X.Nazarova e'tirof etganidek, Bobur ham o'z hukmronligi davrida atrofiga shoir, olim va fozil kishilarni to'pladi. Mamlakatning ilm-ma'rifat rivojiga e'tiblr berdi. Mamlakatning boshqaruv tizimini ishlab chiqdi va uni amalga joriy etdi, iqtisodiy islohotni amalga oshirishda hamda ma'naviy yuksalishda ham o'z ajdodlari hisoblangan buyuk Temuriylar an'alarini davom ettirdi. Jumladan, Temur davlatining iqtisodiy faoliyatda bo'lgan tizimni qo'llay boshladi. Chunonchi, Tumur

davlatida yetti nafar vazirdan ikkitasi, ya'ni egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish ishlari vaziri va saltanatning kirim-chiqim ishlarini boshqaruvchi moliya ishlari vaziri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi xususida ish olib borganlar. Ular vaqf va soliqlar bilan jiddiy shug'ullanganlar.

Turli tarmoqli soliqlar shu vazirliklarga berkitilgan. Fuqaroga hukmdor tomonidan ajratib berilgan yer yoki viloyatning qay biridan soliq olinishi yoki olinmasligi bilan ham shu vazirliklar shug'ullanganlar. Chunonchi, Bobur saltanatida ham Temur davlatida soliqlarning Vaqf, Suyurg'ol, Tiyul, Molujihot, Kunalg'a, Shilon, Xolisa, Sarishumor, Xonashumor singari bir necha turlari qo'llanilgan bo'lib, ularning asosiy qismi, ya'ni yer solig'i va shunga o'xshash soliqlar xiroj deb ataluvchi umumiy istiloh bilan nomlangan.

Bundan tashqari soliqlar davlat tomonidan belgilanishiga ko'ra bir-biridan farq qilgan. Masalan, qo'shin boshliqlari, taniqli saroy shoirlari, yirik mansabdorlar, shuningdek musulmon ruhoiylar va boshqalarga mamlakat ravnaqi yo'lida ko'rsatgan katta xizmatlari evaziga hukmdor tomonidan in'om etiladigan yer-suv, kiyim-kechak, mol-mulk va boshqalar umumiy nom bilan Suyurg'ol deb atalgan. Xiroj va soliq yig'ib olish sharti bilan in'om etilgan yer mulk viloyat va boshqalar Tiyul, Tiyul egasi esa Jog'irdon deb atalgan. Davlat ixtiyoridagi barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv Xolisa hisoblangan.

Temur davlatida vazirliklardan tashqari soliqlar bilan shug'ullangan oliy mansabdorlardan iborat hay'at ham tuzilgan bo'lib, bu ham Xolisa deb yuritilganligi kuzatiladi. Shuningdek, davlat va xususiy kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjid, madrasalar, xonaqolar va mozorlarga ajratilgan mol-mulk vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vosiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy mansabdor mutavalli, Vaqf yerlari va Vaqf etilgan boshqa mulkning hisob-kitobini olib boruvchi mansabdor Sadr, yoki ularning boshlig'i esa Sadrlar Sadri deb yuritilgan. Naqd pul va mahsulot bilan to'lanadigan soliq molu jihot deb nomlangan.

Temur davridan boshlangan bu an'ana Shsxrux. Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqarolar tomonidan amalda joriy etilib borilgan. Jumladan, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobida (125-127 va 331-sahifalarida "Tojir", "Savdogar", "Devoni mol" singari tushunchalar hamda bu ish bilan shug'ullanish to'g'risidagi), xususan, Boburning "Mubayyin" asarida keltirilgan ma'lumotlar ham Amur Temur davri

solliqlar tizimi an'anaviy tarzda keyingi davrida amalda bo'lganligini tasdiklaydi.

Ma'lumki, O'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida o'ziga xos moliya mahkamasi "Devoni mol" nomi bilan yuritilgan. Shuning bilan bir qatorda aholidan soliq o'ndirish amalga oshiruvchilarni "Dorug'a" deb atagan. O'rta asrlarda viloyat, tuman yoki shahar hokimlari ham dorug'a deb atalgan. Uning zimmasiga solnq to'lashi kerak bo'lgan aholi ro'yxatini tuzish, soliq yig'ish vazifasi yuklatilgan. Bu kabi mamlakatning ma'naviy va iqtisodiy yuksalishida Bobur temuriylar an'anasini davom ettirdi va yangi sharoit -Hindiston muhitida o'ziga xos tizimni vujudga keltirdi. Lekin uning mamlakat iqtisodiyotini tiklash va ma'lum tartib qoidalar asosida rivojlantirishga qaratilgan siyosati shariat qonun-qoidalariga asoslanganligi bilan karakterlanadi. Bobur davlatining solliqlar tizimi va bu tizimning amalda qo'llanilishi haqida ma'lumot beruvchi ajoyib manba uning "Mubayyin" asaridir.

Albatta, Boburning iqtisodiy qarashlari, solliqlar va solliqlar tizimi haqidagi fikrlari, xalqdan olinadigan solliqlar asosida mamlakatni obod qilishda qaratilgan g'oyalari faqat "Mubayyin"da emas, balki "Boburnoma" da ham aks etganligi kuzatiladi.

Darhaqiqat, ta'kidlanganidek, Zahiriddin Muhammad Boburning mamlakatni obodonlashtirish iqtisodiy yuksaltirish borasidagi siyosatida temuriylarning ta'siri sezilarlidir. Zero, Boburning solliqlar tizimi ham islomiy qonun-qoidalarga va shariatiga asoslangan edi. Bundan tashqari Amir Temur Tuzuklarida keltirilgan "Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga solish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshuruvchi kishilar tuzugi" ham muhim rol o'ynagan bo'lsa ajab emas. Zotan, tuzuklarda aks etgan iqtisodiy qonunlar, jumladan, temuriylar davri solliqlar tizimining adolatli asosga qurilganligi nafaqat boburiylar uchun balki bugungi kunda biz uchun ham ibratlidir.

Umuman, temuriylar davri solliqlar tizimining ta'siri Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" asaridagi "Kitob-uz-zakot" nomi bilan atalgan uchinchi bo'limida aks etgan. Boburning iqtisodiy qarashlarini o'rganishda aynan ana shu "Kitob-uz-zakot" bo'limi muhim o'rin egallaydi. Ushbu bo'limning kirish qismida ham islom binosining besh ustuni yoki barcha barcha musulmonlar bajarishi lozim bo'lgan besh farzni qanday ado etish haqida ekanligi ta'kidlanadi. Shundan keyin "Zakot shartining bayoni", "Zakot mollarining bayoni" haqida qisqacha fikrlar bildiriladi:

To'rt qism o'ldi barcha moli zakot  
Tut quloq, dey barig'a bir-bir ot.  
Bir naqdina bir savoim bil.  
Yana moli tijorat eshitgil  
Yana yerdin chiqar zakotin ber  
Bilki shar ahli so'z bularda na der.

Demak, zakotning barcha turlari to'rt qism bo'lib, ular Naqd yoki Naqdina, Savoim, Tijorat, Yerdin chiqar yoki Ashru xirojidir. Ashru xiroji yerdan undiriladigan mahsulotlar bilan bog'liq soliq hisoblanadi. Bundan tashqari, Bobur "Naqdina bayoni" da Solima deb ataladigan soliq haqida ham so'z yuritadi. Solima solig'i kishi molining davlatga tegishli yerlarda, o'tloq joylarda boqilgani, ya'ni ko'klamdan to kuzga qadar mol egasining o'z molini sarf harajatisiz davlat yeriga boqqani uchun to'lanadi, deydi:

Yana ul quyu uyu teva durur,  
Kim kuyubsan bular charoda erur.  
Yer uchun qush uchun, yo'q uchun emas,  
Kim erurlar bular charoda bas.  
Ilki, oting gar o'lsa, ey, hamdam,  
Minmasang borgir bo'lmasa ham.  
Shart' eli ushlularni solima der,  
Kim charoda yurub yozi o't yer.  
Gar yarim yildin ortiq o'tla solar,  
Ushbulardin zakot bermak bor.  
Hojatingdin bularni bil avfzal,  
Ushbularning zakotini bergil.

Yana "Nakdina bayoni"da (107, 106, 105 sahifadagi she'riy parchalarda) e'tirof etilishicha, naqdina nakd pul birligi bilan bog'liq soliqdir. U kumush va oltin tanganing ma'lum foizi hisoblanmish dinor, ya'ni 4.235 g. oltin tanga va dirham, ya'ni 3,4, yoki 3,5 g. vazndagi kumush aqcha hisobida to'lanishi ta'kidlanadi:

Bilki naqdina bor tilla va kumush,  
Aytay olar nisobini tut go'sh.  
Bo'lsa misqoll birla oltundin,  
Bil nisobi yigirmadir mundin  
Yuz jav bo'ldi buvazin biliy yor(bil,ey,yor).  
Muni oltunda deyilar dinor,  
Bir zakotin muning yarim misqol.  
Ashr ming rub'i bo'ldi bu yod ol,

Ortsa gar yigirmadin moling  
To'rt bo'lguncha ushбудur holing,  
Sen kumushning nisobini so'zi muz  
Bil diram birla bordur iki yuz.

"Zakot kitobi"ning "Savoim bayoni" bo'limida qo'y, echki, tuya, ot singari jonivorlar hisobiga qarab to'lanadigan soliq haqida ma'lumot beriladi. Unda ta'kidlanishicha, biror kishiga tegishli qo'yning soni qirqtaga yetsa, undan bir qo'y zakot olinadi. Bu miqdor qo'ylarning yuz yigirmataga yetguniga qadar saqlanadi. Agar yuz yigirmadan bitta oshsa ham ikkita qo'y zakot beriladi:

Qo'y agar senda bo'lsa ayla hisob,  
Qirqqacha gar yetishsa bo'ladi nisob.  
Qirq qo'ydin zakot bir qo'ydir.  
Yuz yigirma bor o'lguncha muni ber,  
Yuz yigirma bir o'lsa ikkini ber.

Echkiga beriladigan zakot ham shu tartibda amalga oshirilishi ta'kidlanadi:

Echkining hukmi dog'i qo'ydek bil,  
Qo'ydekdur aning zakotini bergil.

Asarda ko'rsatilishicha, har bir kishi qaramog'idagi tuyalarning soni yigirma beshtaga yetsa, undan ikki yoshga to'lgan tuya, agar tuyalar soni o'ttiz oltitaga yetsa, uch yoshga to'lgan bir tuya berish lozim bo'lgan:

Bir teva yigirma besh esa boq,  
Ikki yoshga qo'ygin o'lgay oyoq.  
Teva gar o'ttuz olti bo'lsa nedir,  
Bir teva uch yoshiga kirganin ber.

Zakot(soliq) turining uchinchi Tijoratdir. Ushbu qismda tijorat ahlining qanday kishilarga zakot berilishi ma'qul ekanligi ko'rsatilgan. Chunonchi, "Zakot masarifining bayoni"da ko'rsatilishicha, faqat faqir, miskin, g'arib, muhtoj, qazdor kabi kishilar soliqdan ozod etilishi lozimdir:

Masarifin tangri deb turur sekiz(sakkiz),  
Borini etayin eshitgaysiz.  
Bir faqiru ikkinchi miskin bil,  
Yana uchinchi bordurur amal,  
Yana bordur mulkg'a qlub,  
Bor beshinchi makotib esbit xub,  
Bil bor oltinchi qarzlik muhtoj,  
Yana g'ozilar uldi habaj,



Sakkizinchi g'ariblardur bil.

“Ashru yoki zairoat” to'rtinchi tur zakot hisoblanadi. Boburning e'tirof etishicha, ekin ekilgan yer ofat topsa, u xiroj, ya'ni to'lanadigan soliqlardan soqit etiladi:

Bu zairoatqa yo ekin yeriga,

Ofati gar yetishsa har bir-biriga,

Yerda ekin bu nav bo'lg'onda

Soqit o'lg'ay xiroj ul ovda...

Xullas, Bobur mamlakatni odilona boshqarish uchun iqtisodiy muammolarni ham xalq manfaatini ko'zlagan holda hal etishni istagan. Shuning uchun soliqlar tizimini ishlab chiqishga harakat qilgan. Bu soha o'z davri uchun muhim masala sanalgan. Umuman, temuriylar hukmronligi davrlarda qo'llanilgan soliqlar tizimini maxsus o'rganishning hozirgi davr uchun ham ahamiyati kattadir.

## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI .....	3
BUYUK SALTANAT VA MA'NAVIYAT SOHIBI AMIR.....	7
TEMURNING HAYOTIY FAOLIYATIDAN LAVHALAR .....	7
1. Sohibqiron tushunchasi va Sohibqironning dunyoga kelishi.....	7
2. Sohibqironning o'spirinlik davrlari .....	12
3. Sohibqironning ta'lim-tarbiya olgan davrlari.....	20
4. Sohibqironning nasl- nasabi .....	26
5. Temuriylar sulolasining tarixiy mohiyati .....	31
6 . Amir Temur uchun zafar yo'lining boshlanishi .....	36
7. Amir Temur o'zini "xon" deb atashga xohish bildirmadi .....	41
8. Amir Temur Dashtiqipchoq yerlarini zabt etishi .....	45
9. Amir Temur saltanatining boshqaruv tizimi .....	49
10. Sohibqiron davlatining qo'shin tarkibi va harbiy boshqaruv uslubi.....	57
11. Jahongir sarkardaning harbiy yurishlari va qudratli markazlashgan turkiy-o'zbek davlatiga .....	61
asos solishi .....	61
12. Markazlashgan turkiy o'zbek davlatining bo'linishi.....	67
13. Chingizxon va Temur avlodlari hamda sulolasining o'zaro munosabati .....	69
14. Qadimgi yodgorliklardagi yozuvlar va ularga temuriylarning munosabali .....	96
15. Temuriylar ilmiy markazi-akademiyasi va uning asoschisi.....	105
16. Temuriylar ezozlagan nodir yodgorlik.....	108
17. Temuriylar davridagi iqtisodiy islohatlar va unga boburiylarning munosabatlari.....	116

**Usmon SANAQULOV**

**AMIR TEMUR HAYOTI BILAN BOG`LIQ  
TARIXIY LAVHALAR**  
(O'zbekiston tarixi bo'yicha maqolalalar to`plami)

Muharrir - A. Eshqobilov  
Tex. muharrir - Q. Berdiyev  
Sahifalovchi - I. Bilyalov

\_\_\_\_\_ yilda bosishga ruxsat etildi.

Hajmi 7,5 b/t. Adadi 100 nusxa.

Buyurtma № \_\_\_\_\_. "Times" garniturasida.

---

SamDChTI nashr-matbaa markazida chop etildi  
Manzil: Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.

